

XORAZM DOSTONLARIDAGI NOMLARNING GENDER XUSUSIYATLARI

Monografiya

Quvondiq Olloyorov



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Quvondiq Olloyorov

**XORAZM DOSTONLARIDAGI
NOMLARNING GENDER
XUSUSIYATLARI**

(Monografiya)

UDC: 398.8

LBC: 82.3 (0)

ISBN: 978-1387-5777-1-2

Olloyorov Quvondiq / Monografiya /

“Xorazm dostonlaridagi nomlarning gender xususiyatlari” / Olloyorov Q.M.
Published by Lulu Press, Inc.860 Aviation Parkway. Suite 300 Morrisville, NC
27560, United States of America. 2022. -90 pages.

Ushbu monografiyada Xorazm regionida tarqalgan dostonlar tilida uchraydigan antroponimlar va ular tarkibida qo'llanilgan affiksoidlarning gender ifodalash jihatlari xususida olib borilgan tekshirishlar natijalari o'rinni olgan. Shuningdek, gender ifodalovchi ayrim onomastik birliklarning tarixiy-etimologik xususiyatlari bo'yicha mulohazalar bayon etilgan. Mazkur monografiyada bildirilgan ayrim masalalar mamlakatimiz va xorijdagi nufuzli nashrlarida e'lon qilingan.

Monografiya dostonlar leksikasi, onomastik tizimi, antroponimikasi va kishi nomlarining gender ifodalash xususiyatlari bilan qiziquvchi keng ilmiy jamoatchilik uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: Zaribboy Do'simov, filologiya fanlari doktori, professor. Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi.

Taqrizchilar: Hamid Norimov, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent., Nasiba Sobirova, filologiya fanlari doktori (DSc), dots.

Mazkur monografiya Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti kengashining 2022-yil, 31-may sanasida o'tkazilgan 10-sonli bayonnomasiga ko'ra nashrga tavsiya qilingan.

UDC: 398.8

LBC: 82.3 (0)

ISBN: 978-1387-5777-1-2

“Lulu Press”, The United States of America. 2022.

K I R I S H

Mamlakatimiz mustaqillika erishgandan so‘ng ko‘plab sohalarda yangilanish, o‘zgarish, yangicha dunyoqarash shakllana boshladi. Xususan, ilmiy sohadagi ko‘plab yo‘nalishlarda ham oldindan qolipga tushib kelgan, bir xildagi qarashlar barham topdi. Har bir tushuncha haqida qaytadan xulosalar chiqarila boshlandi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrda bayon etgan nutqi va Farmondagи muhim fikrlar ham mazkur yo‘nalishdagi ishlarning ahamiyati va dolzarbligini belgilab beradi. Jumladan, Farmonda shunday deyiladi: “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”¹.

Milliy manfaatlarimizning eng muhim himoyasi milliy tilimizning himoyalanishidan boshlanadi. Milliy tilimizning asosiy manbalari esa, folklor asarlari, xususan, dostonlar leksikasida saqlanadi va avloddan-avlodga yetib keladi. Dostonlar tili shunday muhim lisoniy unsurlarni o‘zida saqlab kelmoqdaki, ularni to‘plash, o‘rganish zamonaviy o‘zbek tilining rivojlanishida muhim manba vazifasini o‘tay oladi.

Dostonlar tili yuzasidan olib borilayotgan ishlarning aksariyatida masala muayyan bir doston leksikasikadan o‘rin olgan lug‘aviy birlklarga e’tibor qarataladi yoki ularning kelib chiqishi va qay tillarga aloqadorligi masalalari bilan cheklaniladi. Bu ham o‘ziga xos tarzda yangi ilmiy ma’lumotlar berishiga shubha yo‘q, albatta. Biroq, folklor asarlari tilida o‘ta muhim hisoblanadigan atoqli otlar tizimi mavjud. Mazkur birliklar muayyan regionda yashab kelayotgan kishilarning urf-odatlari, yashash tarzi, an’analari, nomlash tendensiyalari, motivlari kabi ko‘plagan lingvistik faktlarni o‘zida saqlab keladiki, bu bugungi kunda tilimizga

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи, 2019, 22 октябрь, № 218 (7448).

turli tomondan tajovuzlar amalga oshirilayotgan bir davrda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Dostonlar tilidagi onomastik metriallarni o‘rganish, xususan, Xorazm dostonlari tilidagi atoqli otlar tizimini tekshirish borasida bir necha ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa ham, mazkur tizimdagi nomlar tarkibiuda faol qo‘llanilib kelinadigan affiksoidlar bortasida deyarli maxsus ish olib borilgan emas. Biz ushbu monografiyani tayyorlash jarayonida bir necha yillik tekshirishlarimiz natijasi sifatida yuzaga kelgan fikrlarimizni bayon etishga harakat qildik.

O‘zbek tilshunosligida morfologiya, xususan, ot turkumini hozirgi qoliplarda o‘rganish o‘tgan asrning o‘rtalarida keng tus ola boshladi. Jumladan, “O‘tgan asrning 60-70 yillarda o‘zbek tilshunosligida bir qator ilmiy yo‘nalishlar paydo bo‘ldi va shakllana bordi. Chunonchi, eksperimental fonetika, fonologiya va morfonologiya, o‘zbek tilini qiyosiy o‘rganish, frazelogiya, uslubiyat, nutq madanyati va boshqalar.

O‘tgan asr o‘zbek tilshunosligida morfologiyaning ot turkumi, ayniqsa, atoqli otlar tizimi yangi o‘rganila boshlangan tarmoqlardan hisoblangan. Ayniqsa atoqli otlarning guruhanishi bo‘yicha juda kam ma’lumotlar berilgan. Keyingi davr o‘zbek tilshunosligida bu sohada ancha katta yutuqlarga erishildi. O‘zbek nomshunosligi sohasining antropomika (kishi isimlari), toponimika (joy nomlari), etnonimika (xalq urug‘ nomi) kabi sohalarida barakali ishlar qilindi. O‘zbek ismlarining to‘planib, uchta nomzodlik dissertatsiyasi (E.Begmatov 1965, F. Sattarov 1990, S.Raximov 1998) himoya qilindi. Ayniqsa, o‘zbek toponomiysi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasi samarali bo‘ldi. Bu sohada 20 ga yaqin nomzodlik, 2 ta doktorlik (Z.Do‘simov, S.Qoraev) ishlari himoya qilindi.

O‘zbek nomshunoslida mavjud bo‘lgan ishlarning aksariyatida ismlar, qisman laqab va taxalluslar,mikroponim va makroponimlar, etnonimlar tahlil qilingan. Sal oldinroq aytilgan fikrlarga e’tibor qilinsa, jumladan, “O‘zbek tilidagi atoqli otlarning bazi” tiplari deyarli o‘rganilgan emas. Bular kosmonimlar (astronomlar), mifonimlar, nekronimlar (muqaddas joy nomlari) agionimlar (ilohiy

nomlar) fitonim (o‘simlik nomlari) va boshqalar”¹, deyilgan edi. Ammo, bugungi kunga kelib esa, onomastikaning bir necha tarmoqlari, xususan, kosmonimlar (A.Primovning “O‘zbek tili kosmonimlarining lisoniy xususiyatlari” 2009), fitonimlar (H.Norimovning “Xorazm mintaqaviy fitonimlarining lisoniy tahlili” 2020) ishlari maydonga keldiki, bu holat o‘zbek tilshunosligida onomastik tadqiqotlar davom etib kelayotganligini bildiradi.

O‘zbek tilida atoqli otlarni tadqiq qilish ishi barcha ilmiy yo‘nalishlarda bir xil darajada olib borilayotgani yo‘q. O‘zbek tarixiy onomastikasi, badiiy asarlar onomastikasi, folklor onomastikasi, tarixiy obidalar, inshootlarning atoqli otlari, tarixiy va ilmiy asarlar atoqli oti deyarli tadqiq qilingan emas. Ayniqsa, onomastik etimologiya eng qoloq yo‘nalishlardan biridir. Shunga qaramay, atoqli otlarni o‘rganish ishi o‘tgan asrning boshlarida boshlangan bo‘lsa ham uning bo‘yicha tilshunoslari, tarixchi va geograflar qo‘lga kiritgan yutuqlar o‘zbek tilshunosligida onomastika sohasining paydo bo‘lishiga va maxsus yo‘nalish sifatida shakllanishiga asos bo‘ldi.

Bugungi kunga kelib, Xorazmda taniqli o‘zbek folklorshunos olimi Safarboy Ro‘zimboyev tashabbuslari bilan «Go‘ro‘g‘li», «Oshiqnoma» turkum dostonlari nashr qilindiki, mazkur manbalar bundan keyingi davr yoshlarini, izlanuvchilarini yangi-yangi tadqiqotlarga chorlab qolmoqda. Ushbu dostonlar leksikasidagi atoqli otlar tizimi, ayniqsa dastavval ko‘zga tashlanadigan birliklar hisoblanadi. Bu sohada, ya’ni dostonlar onomastikasi bo‘yicha juda kam tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Shuni alohida qayd qilib o‘tish joyizki, bizning 2018-yilda himoya qilgan dissertatsiyamiz² va shu nomdagi monografiya³mizning yo‘nalishi biz tekshirish olib borayotgan yo‘nalishga eng yaqin tadqiqotlardan hisoblanadi. Mazkur ish “Xorazm dostonlari onomastikasi” deb nomlanadi va unda dostonlarimiz leksikasida uchraydigan atoqli otlar muayyan darajada tekshirilgan, tahlil qilingan

¹ Begmatov E, Uluqqov N. O‘zbek onomastik terminlarining izohli lug’ati. Namangan, 2006.

² Olloyorov Q. Xorazm dostonlari onomastikasi. PhD.diss.avtoref. –Samarqand: 2018.

³ Оллоёров К.М. Хоразм достонлари ономастикаси. Монография. –Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2017. 120 бет.

va tarkibiy jihatdan ham ma'lum xuloslalar berilgan. Biroq o'sha ishlarda ham Xorazm dostonlaridagi nomlar tarkibida qo'llanilgan affiksoidlar batafsil tahlilga tortilmagan. Buni keyingi tadqiqotlarimizda amalga oshirishni niyat qilgan edik va bunga navbat yetib keldi.

Boshqa bir ishlarda ma'lum bir dostonning leksik xususiyatlari, lingvopoetik jihatlar, nofaol birliklar bo'yicha tadqiqotlar boshlangan bo'lishiga qaramay, bugungi kunda nashr etilayotgan yuqorida tilga olib o'tganimiz turkum dostonlar leksikasidagi nomlar tarkibida uchraydigan affiksoidlar bo'yicha maxsus tekshirishlar o'tkazilgan emas. Ushbu ishimizda Xorazm dostonlaridagi atoqli otlarning qo'llanishini imkon qadar tahlil qilishga urinamiz.

O'zbek tilshunosligida dostonlar leksikasi va umuman folklor asarlari leksikasi bo'yicha o'tgan asrning ikkinchi yarmida bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, Sh.Shoabdurahmonovning "Ravshan" dostonida badiiy fonetika, A. Ishayevning "Chambil" so'zining etimologiyasi, "Shohsanamning vatani qayer?" D. Abdurahmonov va H. Bektemirovlarning "O'zbek xalq dostonlari onomastikasi" kabi ishlari o'tgan asr o'rtallaridan keyin yuzaga kelgan ilmiy tadqiqotlardan sanaladi.

Oradagi vaqt davomida ma'lum sabablarga ko'ra folklor asarlarini lisoniy tahlil qilish va izlanish ishlari deyarli to'xtab qolgan edi. Ammo so'nggi yillarda milliy qadriyatlarga e'tibor qayta shijoat va yuqori sur'atlarda avj olib ketdi. Buning natijasida folklor asarlari leksikasini o'rganish ishida yangi-yangi tadqiqot ishlari maydonga keldi. Jumladan, Z. Xolmonovaning "Shayboniyxon" dostoni leksikasi, M. Jumaniyozova "Xorazm xalq qo'shiqlari leksikasi" (1999), J.Xolmurodova "Shimoliy Xorazm dostonlarining til xususiyatlari" (2000) mavzulari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar.

S.Ro'zimboevning "Janubiy Xorazm dostonlarining lisoniy xususiyatlari ("Shahriyor" va "Malikai Zavriyo" qo'lyozma dostonlari asosida)" (2000) nomli nomzodlik ishi e'tiborga loyiqidir¹. Chunki bu ish boshqalardan farqli kitobat

¹ Ro'zimboyev S.S. Janubiy Xorazm dostonlarining lisoniy xususiyatlari.("Shahriyor" va "Malikai Zavriyo" qo'lyozma dostonlari asosida) NDA. -T,: 2000.

qilingan dostonlar tadqiqiga bag‘ishlangan. Qo‘lyozma dostonlarning og‘zaki dostonlardan farqli jihat shundaki, ular juda uzoq muddat oldin yozib olingan, kitobat qilingan. Shu sababli, ular keyingi avlodga o‘zgarmas matn holatida yetib kelgan. Bu esa, ularda tilimizning ma’lum darajada qadimiyroq bo‘lgan lisoniy xususiyatlarini saqlab qolishi bilan ahamiyatlidir.

Xalq dostonlari tilini o‘rganish borasida S.M.Sariyevning “Xorazm “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining qo‘lyozma variantlari” nomli dissertatsiyasi (2007)¹ muhim material vazifasini o‘tashi bilan ahamiyatlidir. A.A.Xoliqovning “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni tilining leksik-semantik xususiyatlari (2009) nomli tadqiqotida biz o‘rganayotgan masalalar bo‘yicha ham ayrim fikrlar bildirilgan². S. Tursunovning nomzodlik dissertatsiyasi dostonlar tilining leksik xususiyatlariga bag‘ishlangan. Uning “Alpomish” dostonining leksik xususiyatlari” deb nomlangan tadqiqotida doston leksikasining o‘ziga xos jihatlari, ayniqsa, frazeologizmlar, ularning o‘rni, hajmi va qo‘llanish chastotasiga alohida e’tibor qaratgan³.

O‘zbek tilshunosligidagi dostonlar umuman folklor asarlari leksikasiga bag‘ishlangan ishlardan tashqari biz tadqiq qilmoqchi bo‘lgan mavzu tilshunosligimizning yana bir ulkan sohasi leksik qatlamalar bo‘yicha ham fikrlar bildirishga to‘g‘ri keladi. Bu sohada E. Begmatovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari”⁴ nomli monografiyasi, S. Usmonovning “O‘zbek tilining lug‘at sostavida tojikcha-forscha va arabcha so‘zlar”⁵ asari va boshqalarni keltirib o‘tish mumkin.

Ushbu monografiyada keyingi davrda olib borilayotgan dostonlar leksikasiga doir tadqiqotlar an’anasiga tayanamiz. Dostonlar leksikasidan o‘rin olgan nomlar tarkibidagi affiksoidlarni to‘plab izohlash uchun yuqorida tilga olib

¹ Sariyev S.M. Xorazm “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining qo‘lyozma variantlari. NDA. –T.; 2007.

² Xalikov A.A. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni tilining leksik-semantik xususiyatlari. NDA. –T.; 2009.

³ Tursunov S. Leksicheskie osobennosti dastana “Alpomish” AKD. –Toshkent: 1990. –S. 19; “Alpomish” dostonining leksik-frazeologik xususiyatlariga doir. O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent: 1986, III. –B. 60.

⁴ Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent. 1985y.

⁵ Usmonov S. O‘zbek tilining lug‘at sostavida tojikcha-forscha va arabcha so‘zlar. Toshkent. 1968y.

o‘tilgan ishlarga tayangan holda shaxsiy kuzatishlarimizga asosan ilmiy qarashlarimizni yuzaga chiqarishga harakat qilamiz.

Ushbu monografik tadqiqotimizning obyekti sifatida Xorazm xalq dostonlari onomastik tizimidan o‘rin olgan atoqli otlarni belgiladik. Tadqiqotimizning predmeti uchun esa, mazkur atoqli otlar tarkibida qo‘llanilgan affisoidlar va ularning genderlikni ifoda qilishi masalalari bo‘yicha leksik-grammatik, uslubiy-funksional va tarixiy-lisoniy xususiyatlar tanlangan. Shuningdek, ushu ishdan ko‘zlangan asosiy maqsad Xorazm dostonlari leksikasidan o‘rin olgan affiksoidli nomlarni to‘plash, ular tarkibidagi affiksoidlarni ajratib olib, ifoda imkoniyatlarini chegaralash, ularning gender ifolash xususiyatlariga baho berish, leksik qatlamlarini aniqlash, shu bilan birga, mazkur birliklar doirasida etnolingvistik, tarixiy-etimologik, tarkibiy-semantik, funksional o‘zgarishlar evolutsiyasi borasida tahlillarni amalga oshirishdan iborat.

Monografik tadqiqotimizning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko‘rsatishimiz mumkin:

- Xorazm dostonlari leksikasidan o‘rin olgan affiksoidli nomlarni to‘plash va lisoniy xususiyatlarini tekshirish;
- Dostonlar leksikada uchraydigan affiksoid deb hisoblanauvchi birliklarning chegaralarini belgilash;
- Affiksoilarning tarixiy-etimologik, semantik-morfologik xususiyatlarini aniqlash;
- Universal xarakterdagи affiksoidlarni to‘plash va uslubiy-funksional jihatlarini anqilash.

Mazkur monografik ishimiz shu doirada olib borilgan tadqiqotlardan bir qancha yangi masalalarni qamrab olishi bilan xarakterlidir. Jumladan:

Xorazm dostonlarida uchraydigan affiksoidli nomlar to‘plangan va ularning tarkibiy jihatlari tadqiq qilingan;

Dostonlar tilidagi atoqli otlar tarkibidagi affiksoidlar tarixiy-etimologik jihatdan o‘rganilgan;

Xorazm dostonlari qo'llanilgan affiksoidlarning gender ifodalash xususiyatlari tekshirilgan va ularning ifoda imkoniyatlari belgilab berilgan;

Affiksoidlarning gender jihatdan universallik jihatlari aniqlangan va xususiyatlari tahlilga tortilgan.

Tadiqotning asosiy masalalari va farazlari xususida to'xtaladigan bo'lsak quyidagi mulohazalarni bayon etishimiz mumkin. Folklor asarlari tilini o'rganish o'zbek tilshunosligining o'tgan asr ikkinchi yarmidan boshlab keng tus olgan tarmoqlaridan hisoblanadi. Maqol va matallar, afsona-yu rivoyatlar, ertaklar, tez aytish va boshqa turdag'i xalq qo'shiqlari tilining lingvistik jihatdan tekshirilishi hozirgi o'zbek tilimizning boyishi va rivojlanishida alohida o'rinn tutib kelmoqda. Ammo bunday folklor asarlari o'zlarining ixchamligi, kichik hajmliligi bilan o'ziga xosligini namoyon qiladi.

Folklor manbalari orasida dostonlar leksikasi keng hajmga ekanligi, kishilik jamiyatining to'liq bir lavhalarini, voqe'a-hodisalarini qamrab olishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Dostonlar matnlari turmushning turli sohalariga mansub ma'lumotlarni saqlab kelishi bilan xarakterlidir. Ularda xalqimizning muayyan davrlardagi hayoti, turmush tarzi, yashash sharoitlari, ijtimoiy munosabatlari, urf-odatlari va an'analari o'z ifodasini topgan bo'ladi. Shunday ekan bunday matlarda lingvistik, tarixiy, jug'rofiy, astronomik, o'simliklar olami, boringki, bugungi zamonaviy ilm-fanning rang-barang tarmoqlariga oid materiallarni uchratish mumkin.

Bizning mazkur monografik ishimiz ana shu noyob manbaning lingvistik yo'nalishi, xususan, atoqli otlar tarkibidagi affiksoidlarni turli tomonдан tekshirishga bag'ishlanadi. Xorazm regoinida tarqalgan dostonlar matnlarida uchraydigan atoqli otlarning statistikasi shuni ko'rsatadiki, u yerda qo'llanilgan onomastik materiallar orasida katta foizni kishi nomlari (antroponimlar) tashkil etadi¹.

¹ Оллоёров К.М. Хоразм достонлари ономастикаси. Монография. –Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2017. – Б.38. (120 бет)

Ana shu nomlarning katta foizi birdan ortiq qismlardan tarkib topgan nomlar bo‘lib chiqadi. Bunday antroponimlar tarkibiy jihatdan tekshirilganda ularning tarkibidan o‘rin olgan birliklarning har biri ham o‘zining mustaqil semantikasini saqlab qolmaganligi ma’lum bo‘ladi. Kishi nomlari tarkibida mavjud bo‘lib o‘z mustaqil semantikasini saqlamagan, ayni vaqtida qo‘sishimcha ifodaviy vazifalarni, uslubiy funksiyalarini bajarishga o‘tgan elementlar turlicha nomlanadi.

Ayrim tadqiqotlarda bunday birliklarning o‘ziga xosliklari aniqlanib “onomastik indikatorlar”¹ deyilsa, boshqa birlarida shu xarakterdagi birliklarni “affiksoidlar”² deya baholanadi. Ushbu ishimiz ana shu masalalrning muayyan shegaralaini belgilashni ham o‘z oldiga maqsad qilganligi bilan o‘ziga xoslik namoyon etadi. Mazkur monografik ishda hozirgi (sinxron) va tarixiy (dioxron) tavsiflash, nomlarning tarqalishi, o‘rganilayotgan hudud qardosh tillaridagi ularning dublet variantlarini tadqiq qilishda tavsifiy metod, struktur analiz metodi, qiyosiy-tarixiy metod kabilardan foydalanildi.

Xorazm dostonlarida uchraydigan affiksoidli nomlar tizimini tadqiq qilish natijasida olingan xulosa va nazariy umumlashmalar ayrim antroponimlarni bugungi onomastik tizim bilan qiyosiy tahlil qilishda, kishi nomlarining tanlanish tamoyillari tizimining rivojlanishi, taraqqiy qilish va boyish qonuniyatlarini belgilashda o‘zbek tili antroponimlar bazasining tarixiy qatlamlariga oydinliklar kiritish mumkin.

Ushbu nashr o‘zbek tilining onomastik tizimini chuqurroq o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotning ilmiy natijalaridan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Dialektologiya” va “O‘zbek adabiy tili tarixi” fanlarini o‘qitishda onomastikaga oid lug‘atlarni boyitishda, o‘zbek xalq dostonlari leksikasi lug‘atlarini yaratishda, foydalanish mumkin.

Shuningdek, nomlar fondida ko‘p jihatdan munozarali bo‘lgan birliklar va grammatik formalar ham mavjudki, nomlarning tarkibiy-semantik xususiyatlarini

¹ Ражабов Ў. Топонимик индикаторларнинг функционал-семантик хусусиятлари. НД. Тошкент, 2009.

² Olloyorov Q.M. Xorazm dostonlaridagi gender xususiyatlari universal nomlar va affiksoidlar//Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. –Xiva, 2019.-B.102.

aniqlashda ilmiy faktik materiallarni topishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, nomlar tarkibida uchraydigan affiksoidlarni tahlil qilish mazkur birlikning ma’nosiga leksik qatlamlar nuqtayi nazaridan oydinlik kiritish bilan birga ularda sodir bo‘lgan fonetik o‘zgarishlar, tarkibiy va semantik hamda funksional o‘zgarishlarning evolyutsiyasini aniqlash imkonini berishi bilan ahamiyatlidir.

I BOB

XORAZM DOSTONLARDAGI ATOQLI OTLARNING TARKIBIY JIHATLARI

Dostonlar tilini o‘rganish ishi o‘tgan asrning o‘rtalarida boshlangan bo‘lsa ham, uning eng samarali bosqichi sifatida 70-80-yillardan so‘nggi davrlarini aytish mumkin. Chunki, shu davrda fan-texnika taraqqiyoti juda ko‘plab xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plash, magnit tasmalariga va qog‘ozga tushurish imkonini bera boshladi.

Xorazm regionida mavjud bo‘lgan va baxshilar tomonidan kuylanib kelingan dostonlar o‘z uslubi tuzulishi va tili bilan alohida ajralib turushini juda ko‘plab folkloristlar, tilshunos mutaxassislar aytib o‘tishgan. Ushbu ishda Xorazm dostonlarini to‘plab, o‘rganish va nashr qilishda jonbozlik ko‘rsatgan ustozimiz professor, S.R. Ro‘zimboyevning xizmatlari ham inobatga olinmog‘i joizdir.

Ushbu ishning yuzga kelish jarayonida Xorazm dostonlarida uchraydigan atoqli otlar to‘planib, kartochkalar tayyorlandi. Shu jarayonda atoqli otlarning ko‘p xususiyatlari ko‘zga tashlanadiki, bu ma’lumotlar ham ishning umumiyligini aloqador ekanligini e’tiborda tutish lozim deb hisoblaymiz.

Dostonlarda uchraydigan atoqli otlarning eng katta foizini, albatta kishi ismlari, ya’ni antroponimlar tashkil etadi. Bunga o‘xshash xulosalarni dostonlar onomastikasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan ko‘plab tadqiqotchilar ham bildirib o‘tishgan. Dostonlar tilidagi atoqli otlar bo‘yicha dastlabki tekshirishlarni olib borgan o‘zbek tilshunoslari Do‘stmurod Abdurahmonov va Habibullo Bektemirovlarning qayd qilishlaricha, dostonlar tilidagi atoqli otlar leksikaning

boshqa sathlariga qaraganda, miqdor jihatdan eng kam hajmni tashkil etuvchi birliklardir¹.

Ularning statistikasiga ko‘ra bitta dostonda bor-yo‘g‘i o‘ntadan yigirma beshtagacha nomlar bo‘lishi mumkin ekan. Agar ma’lum bir dostonda ishlatilgan so‘zlar miqdori bilan undagi atoqli otlar miqdori solishtirilganda uning juda oz miqdor ekanligi yana ham oydinlashadi. Ularning ham katta qismini kishi ismlari tashkil qilishi aniqlangan.

Xorazm dostonlari bo‘yicha ham xuddi ana shu fikrni aytish mumkin. Xorazm dostonlar tilini leksik jihatdan baholaydigan bo‘lsak atoqli otlar eng kam miqdorni tashkil etishi yaqqol ko‘rinib turadi. Ammo, dostonlar leksikasidagi atoqli otlar doston mazmunini eng ko‘p o‘zida mujassam etgan birliklar hisoblanadi. Chunki, har bir nom ma’lum ma’noni oydinlashtirishga, muayyan voqelar ifodasini to‘ldirishda, qandaydir syujetining rivojlanishida, qahramonlarning xarakterini ochishda, taqdirini belgilashda shu bilan birga voqealar rivojining ta’sirchanligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbek tilshunosligining ana shu sohadagi tadqiqotlaridan bizga ma’lumki, kishi ismlari turli faktlarga, tamoyillar va tensensiyalarga asoslangan holda qo‘yiladi. Bu holat faqat dostonlar, badiiy asarlar tilidagina emas, balki kundalik hayotimizda ham xuddi shu yuqorida tilga olingan tamoyilga ko‘ra qo‘llaniladi.

Folklor asarlarida uchraydigan har bir ismda shu shaxsning tug‘ilgan joyi, kasb-kori, mansab-unvoni, jinsi, fiziologik belgilari (xarakteri, ko‘rinishi va boshqa) belgilar aks etadi. Masalan: «Go‘ro‘g‘li» turkum dostonlaridagi Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi va unga nom qo‘yilishi haqidagi fikrlar va boshqa turkumlarga kiruvchi dostonlardagi Xunxorshoh, Gulandom, Safar mahram (Safar ko‘s), Kajang botir (Shoqalandar), Xirmondali (Dali xirmon) kabi kishi ismlari uchraydiki, ularning semantik tomoniga diqqat qilsak, biz yuqorida tilga olgan xususiyatlar yaqqol aks etib turganligin ko‘ramiz.

¹ Абдурахмонов Д., Бектемиров Х. Ўзбек халқ достонлари ономастикаси // Ўзбек халқ ижоди. Тўплам. – Тошкент: Фан, 1967. –Б.177.

Yuqorida tilga olganimiz «Go‘ro‘g‘li» turkum dostonlari va «Oshiqnom» turkum dostonlarining barchasida uchraydigan yana bir xususiyatga alohida diqqatni qaratish lozim deb o‘ylaymiz. Xorazmda yaratilgan va umuman ushbu region xalqlari uchun birdek amalda bo‘lgan urf-odatlarni o‘zida mujassam etgan bu dostonlarda yana bir muhim qirra mavjud. Bu o‘lkalarda yashaydigan xalqlar islom diniga e’tiqod qilgan va shu e’tiqodni kundalik hayotida asosiy tumush tarzi sifatida joriy qilganlar. Biroq, islomdan oldingi diniy qarashlar ham ushbu o‘lka aholisining etnik xususiyatlarida ma’lum darajada o‘z izini qoldirgan¹. O‘lkada mavjud nomlar tizimida turli til qatlamlariga oid birliklar, xususan, Avesto manbasi bilan bog‘liq nomlar guruhini ham kuzatish mumkin.

Dostonlarimiz tilida alohida o‘rinni egallovchi nomlar sifatida e’tiqodiy qarashlarimiz bilan bog‘liq nomlarni keltirish mumkin. Shularni hisobga olgan holda aytish joyizki, Xorazm dostonlarida uchraydigan ko‘pchilik nomlar taraqqiyotning turli davrlariga oid diniy tasavvurlar va e’tiqodlar bilan bo‘g‘liq nomlar bo‘lishi tabiiy hol. Chunki, taraqqiyotning qaysi davriga oid doston bo‘lmisin, o‘sha davrni o‘zida aks ettiruvchi muayyan e’tiqodiy, diniy qarashlar o‘sha doston voqealarida o‘z aksini topmay qolmaydi. Bunday ismlar “nekronim” (avliyo nomi), “agionim” (agio – muqaddas, ilohiy) antropoteonim (muqaddalashtirilgan diniy maskanlarning kishi atoqli otlaridan hosil qilingan turi)² kabi tushunchalarga to‘g‘ri keladi.

Xorazm dostonlarida, asosan, islomiy qarashlar bilan bog‘iq nekronimlar katta foizni tashkil qiladi. Aloida jihat shundaki, bunday nomlar Xorazmdagi turkum dostonlarning deyarli barchasida uchraydi. Masalan: *Jabbor, Xidir Ilyos (Xiz ilyos, Xo‘ja Xizr)*, *Shohimardon (Hazrati Ali)*, *Dovud, Sulaymon, Lut, Yusuf, Abu Bakr, Ayub, Ya’qub, Bahovuddin, Sulton Uvays, Imom A’zam, Muhammad Mustafo* va boshqalarni yuqoridagi toifaga taalluqli nomlar deb hisoblasak bo‘ladi.

¹ Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмончиликдан аввалги маросимлари ва урф одатлари. Таржимон: С.Рўзимбоев. УрДУ ноширлик бўлими, 2018. –Б. 18.

² Бегматов Э. Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати. Наманган, 2006. –Б.11-16.

Dostonlarimiz leksikasida uchraydigan bu tipdagи nomlarning katta ko‘pchiligi birdan ortiq qismlardan iborat bo‘lishiga qaramay ularning tarkibidagi qismlardan birini har doim ham affiksoid deb hisoblab bo‘lmaydi. Bu haqda keying bo‘limda alohida to‘xtalamiz.

Xorazm dostonlarida uchraydigan atoqli otlarning hajman ikkinchi o‘rinda turadigan yana biri turini joy nomlari (ya’ni toponimlar) tashkil qiladi. Dostonlar leksikasida uchraydigan toponimlar (joy nomlari) dostonlarda ro‘y beradigan voqeа-hodisalar, jarayonlar bilan bevosita bog‘liq tarzda tanlanadi. O‘zbek tilshunosligida bu sohada ulkan ishlarni amalga oshirgan ustozlarimiz, Z.Do‘simov, S.Qorayev, T.Enazarov va boshqalar ham, toponimlarning yuzaga kelishi haqida qimmatli ma’lumotlar berib o‘tganlar¹.

Dostonlar tilidagi joy nomlari ham zamonaviy o‘zbek tilidagi joy nomlariga xos xususiyatlarni o‘zida saqlaydi. Masalan, Eron, Iroq, Rum, Xorazm, Isfahon, Chamlibel, Istanbul, Arabiston, Eram, Sangsor, Vayangon, Tehron, Shirvon, Nishopur, Ozarbayjon, Arzirum, Seyiston, Basra, Diyorbakir, Bog‘dod, Makka, Giabriz, Ganji Qorabog‘, Misr va boshqalar.

Yuqorida tilga olib o‘tganimiz kishi nomlari va joy nomlari orasida yana bir xususiyat ko‘zga tashlanadi. Bu nomlar orasida real tarixiy shaxslarning nomlari va real tarixiy joy nomlari va bugungi kunda ham qo‘llanilayotgan nomlar hamda ma’lum darajada eskirgan (arxaiklashgan) yoki umuman iste’moldan chiqib ketgan nomlar ham uchraydi. Masalan: Shohimardon (Hazrat Ali), Abu Bakr, Sulton Uvays, Muhammad Mustafo kabi ismlar real tarixiy shaxslar nomlariga misol bo‘lsa, Bozirgan, Jig‘olibek, Arab Rayhon, Safo og‘li chaqon, Oydin Yusuf, Xunxorshoh, Kajang botir, Bolibek, Yasmuq momo, Ovodon, Guljamol, Sanamjon (Shohsanam), Mehrigul, Nozli va boshqalar tarixda umuman mavjud bo‘lmagan o‘brazlarga qo‘yilgan atoqli otlar hisoblanadi.

Joy nomlari orasida ham shunday holatni kuzatish mumkin. Masalan: Eron, Iroq, Arabiston, Tehron, Istanbul, Bag‘dod, Makka, Basra va boshqalarni real

¹ Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. –104 б; Кораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: ЎзМЭ давлат нашриёти, 2005. – 240 б. Эназаров Т., Хусанова М., Эсемуратов А. Ўзбек номшунослиги. –Тошкент: Наврӯз, 2015. -14.б.т.

shahar va davlatlarning nomlari deb hisoblasak; Xunxor, Shahrizar, Chamlibel, Sangsor, Ko‘hi qof va boshqalarni tarixan mavjud bo‘lmagan joy nomlariga misol bo‘la oladi.

Joy nomlari va kishi nomlarining ham o‘ziga xos umumiyliklaridan biri shundaki, ko‘pchilik antroponimlar o‘rni bilan joy nomlari sifatida ham qo‘llanilib kelingan. Bunday onomastik birliklar sohaga oid manbalarda antropotoponimlar deb yuritiladi¹. Yuqorida tilga olib o‘tganimiz ikki xil tipdagi nomlarning birdan ortiq qismlardan tarkib toprgan shakllari talaygina. Ammo ular tarkibiy qismnlarini tashkil qilgan ikkinchi, ba’zan esa, birinchi component har doim ham affiksoid bo‘lib chiqavermaydi.

1.1. Xorazm dostonlaridagi nomlarning yuzaga kelishida affiksoidlarning o‘rni

Affiksoidlar leksik birliklar orasida ot so‘z turkumi doirasida mavjud bo‘ladi va xarakteri jihatidan ot turkumiga mansub birliklardan hisoblanadi. Endi ot so‘z turkumi xususida ham ikki og‘iz so‘z. O‘zbek tilshunosligida qadimdan so‘zlar turli xususiyatlari bo‘yicha guruhlanib kelgan. Bu holat tilimizda arab tilshunosligi va boshqa Sharq tillaridagi kabi shaklda mavjud bo‘lgan.

O‘tgan asrda o‘zbek ziyoliylari orasida Abdurauf Fitrat birinchilardan bo‘lib zamonaviy o‘zbek tili grammaatikasini yaratishga kirishdi. U tomonidan 1925-yilda “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir kitob”, “Sarf” (1-kitob), “Nahv” (2-kitob) asarlari bosmadan chiqdi. Ushbu asarlar o‘zbek tili grammaatikasining deyarli barcha masalalarini qamrab oldi. “Nahv” asarining so‘z boshi qismida olim quyidagilarni yozadi “Biz til qoidalarining atamalarini ishlashning hali birinchi paytida yashaymiz”².

Ko‘rinadiki, Fitratning maqsadi tilimizda amal qiladigan qonuniyatlarini atroflicha o‘rganish, til hodisalarini aniqlab ularning mohiyatiga mos keladigan ilmiy atamalarini to‘g‘ri belgilash edi. Fitrat o‘zbek tilidagi so‘zlarni tub va

¹ Бегматов Э. Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изохли лугати. Наманган, 2006. –Б. 16.

² Qurbanova M. Fitrat tilshunos. –Toshkent: Universitet, 1996.

yasama so‘zlarga ajratdi. So‘z turkumlarini esa 4 guruhga bo‘ladi: ot, sifat, fel, ko‘makchi¹.

Ungacha so‘z turkumlari ikkiga: ismlar va fe’llar deya ajratilganligi ko‘plagan manbalardan bizga ma’lum. Shu davrdan boshlab o‘zbek tilshunosligida juda ko‘p siljishlar yuz berdi, o‘zgarishlar paydo bo‘ldi, ko‘plab atamalar qo‘llanila boshlandi. Ayniqsa, ot so‘z turkumi bo‘yicha dastlabki tasavvurlarga qaraganda ko‘plagan yangi tushunchalar fanimizga kirib keldi.

Oldingi darsliklarimizda ot so‘z turkimida atoqli otlar va turdosh otlar mavjud deya ta’rif va misollar berilib o’tilar edi. Keyingi tadqiqotlar natijasida atoqli va turdosh otlarning ham qanchadan qancha guruhlari mavjud ekanligi aniqlandi va e’tirof etilmoqda hamda darsliklarga kiritilmoqda.

2004-yilda nashr qilingan 6-sinf uchun darslikda atoqli va turdosh otlar ma’ruzasida (79-bet) atoqli otlarga quyidagicha ta’ruf beriladi: “yakka shaxs, narsa, joy, mahsulot, tashkilot va muassasa nomlarini bildirib kelgan otlar atoqli otlardir”².

2005-yilda nashr qilingan 6-sinf uchun darslikda esa (mualliflar N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. 96-bet) shunday izohlanadi: “Biror shaxs, narsa yoki joyga atab qo‘yilgan nomlar atoqli otlar sanaladi. Atoqli otlar nimani atab kelishiga ko‘ra shaxs nomlari va joy nomlariga bo‘linadi”³.

Ushbu ta’riflar biri-biridan farqlanishidan ko‘rinadiki, atoqli otlar borasidagi tushunchalar kundan-kunga takomillashib, o‘zgarib bormoqda. Keyingi nashrlarda atoqli otlarning ma’noviy guruhlari ham kengaytirib borilmoqda. Masalan, joy nomlari, tashkilot, korxona, muassasa nomlari, qit’a nomlari, davlat nomlari, shahar nomlari, qishloq nomlari, mahalla nomlari, tarixiy sana va bayram nomlari, suv havzalari va inshootlari nomlari va boshqa ko‘plab turlarga bo‘lingan.

Shunday bo‘lsa ham, dostonlar leksikasidagi atoqli otlar tizimini tahlil qilish uchun yuqorida tasniflarning yetarli emasligi yaqqol ko‘rinadi. Dostonlar tilida keng iste’molda bo‘ladigan avliyo va ilohiy(mifik) obrazlar nomlari,

¹ Fitrat. Nahv. –Samarqand. 1930.

² Ne’matov H va boshqalar. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. –Toshkent: 2004, 79-bet

³ Mahmudov N va boshqalar. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. –Toshkent: 2005, 96-bet

payg‘ambarlar nomlari, hayvon nomlari, tomonlarni anglatuvchi nomlar, osmon jismlarini anglatuvchi nomlar kabi atoqli otlarni ham uchratish mumkinki, bularni qamrab olish uchun yuqoridagi kabi tasniflar yetarli emasligi kunday ravshan.

Demak, Xorazm dostonlaridagi atoqli otlar mavzusini keng yoritish uchun eng yangi fan yutuqlarini ishga solish zarur bo‘ladi, ya’ni so‘nggi davrlarda nashr etilayotgan atoqli otlar bo‘yicha tadqiqotlar natijalaridan foydalanishning ahamaiyati yuqori bo‘ladi. Shularni hisobga olib aytish mumkinki, dostonlar leksikasidagi atoqli otlarni o‘rganish borasida olib borilayotgan tadqiqotlarni hozirda tugallangan deb hisoblash unchalik ham to‘g‘ri bo‘lmasa kerak. Barcha yo‘nalishlardagi izlanishlar hali davom etaveradi. Yangi-yangi atamalar, tushunchalar kirib kelaveradi. Tilimiz, fanimiz shular evaziga boyib boraveradi. Xuddi shu masalalar qatoriga nomlar bilan birga qo‘llaniladigan affiksoidlarning genderlik xususiyatlarini aniqlashni ham kiritish mumkin.

Xorazm dostonlari leksikasidan o‘rin olgan ayrim nomlar tarkibida morfem jihatdan ham atash ma’nosiga ega bo‘lgan leksik birlik (so‘z, leksemaga), ham o‘z leksik ma’nosini butunlay yo‘qotgan, vazifasi jihatdan affikslarga yaqin turuvchi birliklar ham uchraydi. Bunday birliklar ilmiy adabiyotlarda “affiksoid” atamasi ostida birlashadi. “Affiksoid deb asli leksik birlik bo‘lib, keyinchalik xuddi affiks kabi grammatik ma’no ifodalashga xizmat qilishga o‘tgan, affiks kabi bir necha leksemalarga qo‘shilib kelish xususiyatiga ega bo‘lgan birlikka aytildi”¹.

“Affiksoid” atamasi lotincha “affiksoid” – “affiksga o‘xhash” degan ma’noni anglatadi. Masalan, o‘zbek tili lug‘at tarkibida “xona” leksemasi va affiksoidi mavjud (mening xonam); shu xususiyati bilan birga bu leksik birlik ayrim so‘zlar tarkibida affiksga yaqinlashib qolgan holda ishlatiladi. Masalan, ishxona, oshxona, choyxona, mehmonxona kabilar. Demak ushbu “xona” birligi yuqorida tilga olib o‘tganimizdek ham leksemalik, ham affikslik xususiyatiga ega. Bunday birliklar hozirgi o‘zbek tilshunosligida affiksoidlar deb qaralmoqda. Shunday birliklar qatoriga “noma” (taklifnoma, aybnoma, ruxsatnoma), “jon” (

¹ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent. Universitet, 2006.

Salimjon, Rahmatjon), “xon” (Jamolxon, Yulduzxon) va boshqalarni kiritish mumkin.

Affiksoidlarning katta qismini eroniy tillardan o‘zbek tiliga o‘zlashgan deb hisoblash mumkin, biroq dostonlarimiz tilida uchraydigan nomlar tarkibida turkiy tillarga xos bo‘lgan affiksoid xarakteridagi birliklarni ham kuzatamiz. Affiksoidlar aslida tilimizdagи barcha turkumlarga xos so‘zlarga ham qo‘silib kelishi mumkin, ammo bizning mazkur ishimiz mavzusi dostonlar onomastikasiga daxldor affiksoidlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan ekan, biz ham fikrlarimizni shu doirada olib borishga harakat qilamiz.

Xorazm dostonlari leksikasi o‘zining juda boy va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, atoqli otlar tizimi juda ham ko‘p qirrali tekshirishlarni talab qiladi. Xususan, dostonlar tilidagi atoqli otlar tuzilish jihatidan sodda va qo‘shma tarkibga ega bo‘lishi mumkinligi olib borilgan tadqiqotlardan bizga ma’lum. Hatto ayrim nomlar murakkab tarkibga, ya’ni ikkidan ortiq qismlardan tuzilgan shaklga ega.

Olib borilgan tekshirishlarimiz natijalarija tayangan holda aytishimiz mumkinki, Xorazm dostonlarida sodda tarkibli nomlar hajman ozchiligni tashkil qiladi. Katta foizi esa birdan ortiq komponentlardan tuzilgan nomlardir. Affiksoidli nomlar ham aynan birdan ortiq qismlardan tashkil topgan nomlar orasida kuzatiladi. Buning ham o‘ziga xos sabablari bor, albatta. Agar affiksoid o‘zining ma’nosini tamomila yo‘qotib, Grammatik vazifaga o‘tib olgan birlik bo‘lar ekan, mantiqiy ravishda anglashiladiki, nomning tarkibi sodda, ya’ni, bir qismdan iborat bo‘lsa, u butunlay ma’no ifodalash xususiyatidan chiqib keta olmaydi. Ya’ni affiksoid xarakteriga o‘ta olmaydi. Shu boisdan ham affiksoidli nomlar hech bo‘limganda ikki qismdan, balki undan ham ortiq qismlardan tashkil topgan qo‘shma yoki murakkab nomlar bo‘lishi talab etiladi. Shundagina qismlarining bittasi asosiy nominative funksiyada qoladi boshqa qismlaridan biri yordanchi funksiyalarga o‘tgan bo‘lishini gumon qilish mumkin bo‘ladi.

Qo‘shma tarkibli nomlar borasida fikr yuritar ekanmiz, ular tarkibidagi ikkinchi qism ko‘p hollarda o‘z atash ma’nosini yo‘qotgan holda qo‘llaniladi, ya’ni

nomga qo'shimcha ma'no qirralarini qo'shish uchun xizmat qilayotganini sezish qiyin emas. Masalan, *Albandjon*, *Alibek*, *Ahmadbek*, *Boboxon*, *Lolagul*, *Navbahorbibi*, *Oysulton* va boshqalar. Ushbu nomlar tarkibidan o'rinni olgan *-jon*, *-bek*, *-xon*, *-gul*, *-bibi*, *-sulton* kabi birliklar o'rni bilan leksik birlik vazifasida ham kelishi mumkinligini hech kim inkor qilmasa kerak. Biroq, yuqoridagi nomlar tarkibida esa bu birliklar o'z atash ma'nosida kelmagan. Shunga o'xhash birliklar ilmiy adabiyotlardagi affiksoidlar atamasiga qo'yiladigan barcha talablarga javob bera oladi. Ana shu kabi affiksoidli nomlar, shuningdek, bu affiksoidlarning jins ifodalash xususiyatlini tekshirish va tadqiqi qilish ushbu ishimizdan ko'zlangan asosiy maqsadimiz hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Xorazm dostonlari tilida uchraydigan kishi ismlari (antroponimlar) mazkur matlar leksikasidan o'rinni olgan onomastik birliklarning eng katta qismini tashkil etadi. Bu ham o'ziga xos lingvistik qonuniyatni taqozo qiladi. Nega deganda, zamonaviy o'zbek tilida uchraydigan nomlar qatlaming ham eng katta qismini antroponimlar tashkil qilishini hisobga olsak, dostonlar leksikasi ham xuddi ana shu qonuniyatdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi.

Xorazm dostonlari matnlarida uchraydigan nomlarning, xususan, kishi nomlarining katta qismi bordan ortiq qismlardan tashkil topgan nomlar bo'lib chiqadi. Quyidagi bo'limda ana shu masalaga to'xtalamiz.

1.2. Qo'shma tarkibli nomlar va ularning tarkibida affiksoidlarning qo'llanishi xususida

Birdan ortiq qismlarga ajralishi mumkin bo'lgan nomlarning tarkibiy qismlari hisoblangan komponentlar har doim ham o'zinbing mustaqil birlik sifatidagi semantik strukturaasini saqlab qolmagan bo'ladi. Lingvistikaga oid adabiyotlarda nomlar tartkibida o'zining ma'no butunligini yo'qotib, o'zi qo'shilib kelgan birlikning ma'nosiga qo'shimcha ottenkalar yuklashga xizmat qiluvchi elementlar affiksoid atamasi bilan izohlanadi.

Xorazm dostonlari leksikada uchraydigan nomlar tarkibida ham morfem jihatdan ikki xil xarakterdagи onomastik elementlar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni, o‘zining sof atash ma’nosini to‘liq saqlagan element bilan birga o‘zining leksik ma’nosini butunlay yo‘qotgan, vazifasi jihatdan affikslarga yaqinlashib qolgan birliklar ham uchraydi. Bunday birliklarning ilmiy manbalarda “affiksoid” atamasi ostida birlashishi haqida yuqorida aytib o‘tgandik.

Affiksoid aslida leksik birlik bo‘lib, turli lisoniy faktorlar natijasida xuddi affiksiga o‘xshab grammatik ma’no ifodalashga moslashib qolgan birliklar tushuniladi. Ya’ni ular affiks kabi bir necha leksemalarga qo‘shilib kelish xususiyatiga ega bo‘ladi. Sh.Rahmatullayevning “Hozirgi adabiy o‘zbek tili” asarida ham ana shunday fikrlarga duch kelamiz: “Affiksoid deb asli leksik birlik bo‘lib, keyinchalik xuddi affiks kabi grammatik ma’no ifodalashga xizmat qilib, affiks kabi bir necha leksemalarga qo‘shilib kelish xususiyatiga ega bo‘lgan birlikka aytiladi”¹.

“Affiksoid” atamasi lotincha “affiksoid” – affiuksga o‘xshash degan ma’noni anglatadi. Masalan, o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi “xona” leksemasiga e’tiborni qarataylik. Ma’lum bo‘ladiki, muayyan o‘rinda mazkur so‘z o‘zining mustaqil atash ma’nosini to‘liq saqlagan holda iste’mol qilinadi. Masalan: *mening xonam, xonada dars tayyorladim* kabi jumlalarda yuqorida aytilgan kriteriyalarga to‘liq javob beradigan holda ishlatiladi. Shu sababdan ham ayrim manbalarda ularni “morfema affikslar”, “morfema-affiksoidlar”, “leksik tabiatli morfemalar” tarzida nomlanadi.

Shu xususiyatidan tashqari “xona” elementi ayrim leksemalar tarkibida o‘zining leksik ma’nosini qisman yoki to‘liq yo‘qotgan, grammatik funksiyaga o‘tgan holda qo‘llanishi ham mumkinligi hech kimga sir emas. Masalan: *ishxona, oshxona, choyxona, mehmonxona* va boshqalar shular jumlasidandir.

Mana bu shakldagi qo‘llanish o‘zbek tilidagi boshqa so‘zlarga, xususan, “noma” birligiga (taklifnoma, aybnoma, ruxsatnoma) “jon” elementiga (Salimjon,

¹ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent. Universitet, 2006. B. 116

Rahmatjon), “xon” (Jamolxon, Yulduzxon) va boshqalarga ham taalluqli deb hisoblash mumkin.

Affiksoidlarning katta qismini eroniy tillardan o‘zbek tiliga o‘zlashgan deb hisoblash mumkin, biroq turkiy tillarga xos bo‘lgan affiksoid xarakteridagi birliklar ham mavjud. Affiksoidlar aslida tilimizdagi ko‘plagan so‘zlarga ham qo‘shilib kelishi mumkin, ammo bizning mazkur ishimiz mavzusi dostonlar onomastikasiga daxldor affiksoidlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan ekan, biz ham fikrlarimizni shu doirada olib borishga harakat qilamiz. Affiksoidlarning antropoimlar tizimida qo‘llanishi tekshirilar ekan, ularning o‘ziga xos bo‘lgan, alohida lisoniy xususiyatlari yuzaga chiqadi. Ayniqsa, dostonlar tilida uchraydigan kishi iosmlari tarkibidagi affiksoidlar muhim jihatlari bilan tadqiqotchilar e’tiborini tortadi.

Ayrim ilmiy manbalarda kishi nomlari tarkibiga qo‘shilib keladigan bunday birliklarni “antropoimik indikatorlar” deb nomlanishini ham ko‘ramiz¹. Mazkur fikr ham muayyan darajada ayrim antropoimlar tarkibidagi ko‘rinishlardagina o‘zini oqlashi mumkin.

“Indikatorlar” xarakter jihatidan joy nomlari tarkibida keng qo‘llaniladigan birliklar bo‘lib, toponimlar sathi uchun ko‘proq mos keluvchi elementlardan hisoblanadi. Mazkur atamani “onomastik indikator” shaklida dastlab taniqli o‘zbek tilshunosi, o‘zbek onomastikasi yo‘nalishining bugungi kundagi darg‘laridan bo‘lmish ustozimiz Z.Do‘simovning ishlarida qo‘llanilgani e’tirof etiladi².

Boshqa bir ilmiy manbada kishi nomlari tarkibida uchraydigan biz zikr qiliayotgan birliklarni “antropoimik formant”, “antropoformant” atamasi bilan izohlanishini kuzatamiz. Bu yerda ham aynan biz tahlilga tortayotgan birliklar nazarda tutiladi va “antropoimlar yasashda ishtirok etuvchi yoki nom tarkibida formal ravishda mavjud bo‘luvchi affiksal morfema” sifatida baholanadi³.

Bizningcha, dostonlarimiz matnlarida kuzatiladigan birdan ortiq qismlarga ega bo‘lgan antropoimlar tarkibidagi nom asosiga qo‘shimcha semantik jihatlarni

¹ Оллоёров К. Хоразм дostonlари ономастикаси. –Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2017. –Б.73(1206)

² Дўсимов З. Топонимик индикаторлар //ЎТА. №5. – Тошкент, 1972. – Б.71-74.

³ Бегматов Э. Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати. Наманган, 2006. –Б. 14.

qo'shishga moslashgan, haqiqatan ham formal ravishda mavjud bo'ladigan bunday shakllarni "antroponimik affiksoidlar" deb atash ancha real holatga yaqinlashadi.

To'g'ri, ayrim kishi nomlari tarkibida uchraydigan birliklar, haqiqatan ham, nom egasini shu nomdag'i boshqa shaxslardan ajratib ko'rsatishini va bu o'rinda "indikator"ga yaqin vazifalarni ham bajarishini inkor etish qiyin, albatta. Shunga qaramay, kishi nomlari tarkibida qo'llaniladigan biz nazarda tutayotgan birliklarni yuz foiz barchasini "antropoformant", "antroponimik indikator" kabi atamalar bilan izohlay olmaymiz. O'rni kelganda laqablar ham mazkur tipdagi nomlarning ma'lum qismida xuddi yuqoridagi funksiyalarga to'g'ri kelib qolishi mumkin. Shu sababdan, mazkur birliklarning muayyan chegaralarini, ifoda tamoyillarini ishlab chiqish lozim deb o'ylaymiz.

Xorazm dostonlari leksikasi o'zining juda boy va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, atoqli otlar tizimi juda ham ko'p qirrali tekshirishlarni talab qiladi. Xususan, dostonlar tilidagi atoqli otlar tuzilish jihatidan sodda va qo'shma tarkibga ega bo'lishi mumkinligi olib borilgan tadqiqotlardan bizga ma'lum. Hatto ayrim nomlar murkkab tarkibga, ya'ni ikkidan ortiq qismlardan tuzilgan shaklga ega. Oldingi bo'limlardagi fikrlarimizga tayangan holda aytishimiz mumkinki, Xorazm dostonlarida sodda tarkibli nomlar hajman ozchiligni tashkil qiladi. Katta foizi esa birdan ortiq komponentlardan tuzilgan nomlardir.

1.3. Xorazm dostonlaridagi ayrim affiksoidli antroponimlar haqida

Qo'shma tarkibli nomlar borasida fikr yuritar ekanmiz, ular tarkibidagi ikkinchi qism ko'p hollarda o'z atash ma'nosini yo'qotgan holda qo'llaniladi, ya'ni nomga qo'shimcha ma'no ottenkalarini qo'shish uchun xizmat qilayotganini sezish qiyin emas. Masalan, *Albandjon*, *Alibek*, *Ahmadbek*, *Boboxon*, *Lolagul*, *Navbahorbibi*, *Oysulton* va boshqalar. Ushbu nomlar tarkibidan o'rin olgan *-jon*, *-bek*, *-xon*, *-gul*, *-bibi*, *-sulton* kabi birliklar o'rni bilan leksik birlik vazifasida ham kelishi mumkinligini hech kim inkor qilmasa kerak. Yuqoridagi nomlar tarkibida bu birliklar o'z atash ma'nosida kelmag'an. Shunga o'xshash birliklar ilmiy

adabiyotlardagi *affiksoidlar* atamasiga qo‘yiladigan barcha talablarga javob bera oladi.

Quyida ularning qo‘llanilgan o‘rinlaridan ayrimlariga e’tibor qarartamiz:

“*Ganji Qorabog‘da bir podshoh bor erdi...Aning bir o‘gli bor erdi otig‘a Albanjon der erdilar...*” (Oshiqnoma, 2-kitob, 139-bet);

“...*Aytibon o‘z holinioldingda yig‘lar Oyjamol,*

Alibek otlig‘ gul navbahordin ayrilg‘ali...” (Oshiqnoma, 2-kitob, 89-bet); yoki; “...*G‘arib Shirvon viloyatinda yurub erdi. Bir kun karvon yo‘liqdi, karvonning ichinda Boboxon degan Shohsanamning shotiri bor erdi...*” (Oshiqnoma, 2-kitob, 79-bet).

Ushbu parchalarda qo‘llanilgan “jon”, “bek”, “xon” kabi affiksoidlar kishi nomlari tarkibida uchraydigan eng faol shakllardan hisoblanadi. Mazkur affiksoidlar zamonaviy atroponimikamizda ham ancha faol shakllardan hisoblanadi.

Xorazm dostonlari onomastik birliklari, xususan, undagi kishi nomlari hamda hozirgi o‘zbek onomastikasining antroponimikasini qiyoslash orqali qiziq bir faktga duch kelamiz. Odatda, kishi nomlari fondi davrga mos ravishda eskirish, arxaiklashish xususiyatga ega. Biroq, mazkur nomlar tarkibidagi affiksoidlar bunday xususiyatdan ancha uzoq. Ya’ni qanchalik qadimiyligi bo‘lmashin, affiksoid eng zamonaviy nomlar tarkibida qo‘llanishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ayrim affiksoidlarning yashovchanligi ancha kuchli. Yuqorida misollarda keltirilgan “jon”, “bek”, “xon” affiksoidlari ana shu xarakterdagi shakllardan hisoblanadi.

Biroq bu fikrlarimiz kishi nomlari tarkibida uchraydigan affiksoid birliklarning doimiyligini, ularda eskirish xarakterining mavjud emasligini anglatmaydi. Ba’zi affiksoidlarning arxaiklashganini, bugungi nomlar tarkibida qo‘llanila olmasligini quyidagi antroponimlarning tahlilida ko‘rish mumkin. Jumladan, *Anjumpari*, *Arabtang‘an*, *Bolukaniz*, *Valido‘nik* kabi nomlar tarkibidagi ikkinchi komponent; *Badrustam*, *Bibi Tarli*, *Bibiniyoz* kabi nomlar tarkibidagi birinchi komponentlar ma’lum darajada eskirganligi, bugungi zamonaviy

antroponimlar tarkibida qo‘llanishi sustlashganligini e’tirof etib o‘tish joyiz deb hisoblaymiz.

Misollarning qo‘llanishiga e’tibor qilganimizda fikrlarimizning asosli ekanligini ko‘ramiz: “...*Alqissa, Shahsuvor bu so‘zni aydi, ondin so‘ng bu mohro‘yning otini Anjumpari qo‘ydilar. Xudo rizosi uchun moli xayrod etdi, yana yetti kecha-kunduz to‘y berdi...*” (Oshiqnoma, 2-kitob, 361-bet), yoki “...*ko‘rsa bog‘, gullar ochilib, bulbullar sayrab, qumrilar dam chekib, chumchuqlar naqshi ma’no o‘qib turg‘an. Ersa bu bog‘ Bibitarlixon parining bog‘i erdi...*” (Oshiqnoma, 2-kitob, 139-bet).

Ushbu parchadagi *Bibitarlixon pari* antroponimiga diqqat qiladigan bo‘lsak, mazkur nomni tarkibiy qismi hisoblangan “bibi”, “tarli”, “xon”, “pari” kabi qismlardan nomning asosini tashkil qiluvchi qism sifatida faqat ikkinchi shaklni olish mumkin. Nomning birinchi, uchunchi va to‘rtinchi qismlari nom asosiga qo‘shimcha ma’no nozikliklarini qo‘shish uchun xizmat qiluvchi, yordamchi funksiyalarga aylangan birliklar hisoblanadi. Ular orasida bugungi onomastik tizimda faolligini yo‘qotmagan shakl sifatida “xon” affiksoidini olish mumkin, boshqalari qo‘llanish davriga ko‘ra arxaiklashgan elementlar hisoblanadi.

Mazkur parchada e’tiborga olinayotgan *Bibitarlixon pari* murakkab antroponimining tarkibiy jihatlariga e’tibor qilinsa, nom asosini belgilashda biroz qiyinchilikka duch kelamiz. Bu o‘rinda uchta komponent: “bibi”, “tarli”, “xon” va oxirda “pari” elementlariga nazarimiz tushadi. Bu o‘rindagi *bibi* leksemasi gender jihatdan ayol kishilar nomlari tarkibida qo‘llanuvchi element hisoblanadi. Bu element zamonaviy o‘zbek antroponimikasida ham, dostonlar antroponimik tizimida ham faol qo‘llaniluvchi qism hisoblanadi. Masalan, Xorazm dostonlaridagi *Bibijon*, *Bibizahro*, *Bibiniyoz*, *Bibi Oysha*, *Bibi Xadicha* va boshqa nomlar tarkibida keng qo‘llanilgan. Ayrim nomlar tarkibida nomning asosi vazifasida kelsa, ba’zilarida yordamchi komponent funksiyasini bajaradi.

Bu qism O‘rta Osiyo xalqlarida ayol ismlarini hosil qiluvchi eng faol komponentlardan biridir. Islom diniga e’tiqod qiluvchi xalqlarda tabarruk kishilar va ularning avlodlaridan bo‘lgan ayollarni nomlashda ularning ismiga hurmat

ifodalovchi, ularning avlodlarini ulug‘lovchi qo‘sishimchalar qo‘sib aytilish ujudum bo‘lgan. Masalan Ibrohim payg‘ambarning xotini O‘rta Osiyo xalqarida *Bibisora* shaklida qo‘llaniladi. Xuddi shuningdek, Muhammad (s.a.v)ning xotinlari Xadicha va Oysha ismlariga ham “bibi” elementi qo‘sib, *Bibixadicha*, *Bibioysha* tarzida aytiladi.

Mazkur elementning asosiy funksiyasi ayol ismlarini hosil qilishdir. Misol, arab oy kalendari (taqvimi) bo‘yicha Ashur yoki Rajab oyida tug‘ilgan chaqaloqlar ushbu oy nomlari bilan atalganlar. Lekin shu oyda tug‘ilgan qiz bolalar ismiga albatta “bibi” komponenti qo‘silgan: *Bibiashur* yoki *Ashurbibi*; *Rajabbibi* yoki *Bibirajab* kabi. “Bibi” elementi kelib chiqishiga ko‘ra turkiy birlik bo‘lib, “xonim” ma’nosini anglatadi. Forsiy xalqlarda bibi – buvi ma’nosida qo‘llanadi. Og‘zaki nutqda “bibi” so‘zining ikkinchi bo‘g‘ini boshidagi “b” undoshi ba’zan “v” tarzida, ba’zida esa bu bo‘g‘in umuman tushib qolgan tarzda talaffuz qilinadi: *Bivirajab*, *Bivisora* yoki *Birajab*, *Bisora* kabi. Mazkur so‘z Xorazmda hozirgi kunda ham ayol ismi sifatida keng qo‘llaniladi: *Bibijon*, *Bibigul*, *Bibi* va boshqalar.

Tahliga tortilayongan *Bibitarlixon* nomining ikkinchi komponenti “tarli” qismi ham o‘ziga xos etimologik jihatlarga ega. *Tarli* leksemasi o‘zbek tiliga oid manbalarda qo‘llaniladigan “tarlon” so‘zining og‘zaki ijod namun alarida qo‘llanilgan shkli hisoblanadi. *Tarlon* so‘zi o‘zbek tilining imlo lug‘atida “olachipor ot” ma’nosida kelishi haqida ma’lumotlar keltiriladi. Ya’ni tanasida oq va qora yoki boshqa qismlari bo‘lgan ot ma’nosida ishlatalishi haqida aytiladi¹.

Xorazm dostonlari turkumidan nashr etilgan dostonlar matnida bu so‘z “qush” ma’nosida qo‘llanilganini kuzatamiz. Masalan, “Oshiqnomा” turkumining 5-kitobidan o‘rin olgan “Sayod va Hamro” dostonida ana shu ma’noda qo‘llanilgan: “...*Undan so‘ng oraga kanizlari tushib, ey, Sayodxon pari, sizning tarlon qushlaringiz bor, jayron qushlaringiz bor, kaklik qushlaringiz bor, ana shularni bir-bir keltirib, Hamrojonga ta’rif ettirib ko‘ring...*” yoki “...*Bul so‘z*

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T harfi. A.Madvaliyev tahriri ostida. –Toshkent: O’zME nashriyoti, www.ziyouz.com. –B.684.

Sayodxonga ma'qul tushib, bir yerda saqlab qo'ygan – tarlon degan bir qushi bor erdi. Bul yurtda tarlon – deydi, ul yurtda qarchig 'ay – deydi...¹.

Demak, *Bibitarlixon, Bibitarli* antroponomalarining tarkibidagi tarli elementi ko‘proq qush timsoliga yaqin manoda dostonlar leksikasida ishlataladi. Shu o‘rinda aytish mumkinki, biz tekshirayotgan nom pari obrazi bilan yaqinlashgan kishi nomi sifatida bo‘lgani va bundau timsollarning afsonaviy, mifik xarakterdagi hodisalar bilan ham bog‘lanishini nazarda tutgan holda shunday nom tanlangan degan xulosaga kelish mumkin.

Nom tarkibidagi uchunchi element “xon” affiksoidi haqida shularni aytish mumkinki, bu element ham erkak kishilarga, ham xotin qizlar ismlariga qo‘silib keluvchi affiksoid hisoblanadi. Bunday xarakterdagi birliklar fanda “gender universaliya” atamasi bilan izohlanadi. Umuman, bu kabi nomlarning tarkibiy jihatlarini tekshirish juda keng va qiziq lingvistik ma'lumotlar berishi mumkin.

Ayrim affiksoidli nomlarning qo‘llanishiga e’tibor qilinsa, ularning uslubiy-badiiy maqsadlarga xizmat qilishi, bir vaqtning o‘zida nomning tarkibidagi affiksoid ham muayyan lingvo-stilistik funksiyalarni bajarishga moslashganligini ko‘ramiz. Shunday xarakterga ega nomlardan biri *Valido‘nik* antroponimidir. Ushbu nom ikki qismdan iborat bo‘lib, ikkinchi qismi nom asosiga qo‘sishmcha badiiylik berish uchun, nom egasining xulq-atvori va xarakteriini ochishga xizmat qiluvchi yordamchi funksiyalarga xizmat qilmoqda. Dostondan olinga quyidagi parchada qo‘llanilgan: “... ana yigitlarding ichinda ola-tasirdi bo‘laverdi, *Safar ko‘sá boshchi bo‘lib Valido‘nik, Seytak qirqma yigitlarding yarmisini olib bir yoqqa chiqdi...*” (Go‘ro‘g‘li turkumi, 438-bet).

Mazkur nom tarkibidagi ikkinchi qismda ishtirok etayotgan “do‘nik” elementi nom egasining xarakteridagi *aldoqchilik, so‘zida turmaslik* kabi nuqsonlari borligiga ishora qilib turuvchi yordamchi birlik sanaladi. Yana bir jihat alohida diqqatga sazovorki, ko‘pchilik affiksoidlar o‘zlashma qatlamga xos leksik birliklar vositasida hosil qilinsa, ushbu nom tarkibidagi affiksoid sof turkiy (o‘zbekcha) leksema asosida yuzaga kelgan. Ya’ni, “do‘nmoq” o‘zgarmoq, fikrini

¹ Oshiqnoma. 5-kitob. Mas’ul muharrir S.Ro’zimboyev. –Urganch: Xorazm nashriyoti, 2011. –B.257. (272)

o‘zgartirmoq kabi ma’nolarni tashuvchi bu so‘z dostonlar matnida shunday xarakterga ega bo‘lgan qahramon nomini yasashda affiksoid vazifasida xizmat qilmoqda.

Xuddi shunday xarakterdagi antroponimlardan yana biri *Safar ko’sa* antroponimidir. Nomning tarkibi ikki – “safar” hamda “ko’sa” qismlaridan iborat. Antroponimning asosini birinchi qism dagi element bajaradi. *Safar* ismi islomiy e’tiqodlarga ko‘ra nom tanlaash tamoyillari asosida shakllangan nom bo‘lib, ism, asosan, mazkur nom bilan yuritiluvchi oyda tug‘ilgan farzandga qo‘yiladigan nomdir. Islomiy e’tiqodga amal qiluvchi kishilar uchun farzandga nom berishda “...muqaddas hisoblangan kunlar, oylar, bayramlar nomidan hosil qilingan ismlar...” ancha faol qo‘llaniladi. Bunday ismlarda, bir tomonidan, chaqaloqning tug‘ilgan vaqtiga, paytiga ishora qilish mavjud bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, mana shu kabi nomlar chaqaloqqa yaxshilik keltiradi, uning sog‘-u salomat va baxtli bo‘lib o‘sishiga garov bo‘ladi, deyilgan umid va ishonch mujassamlashgan¹.

Nomning asosida hech qanday qo‘shimcha ma’no ottenkalari sezilmaydi, jiddiy, o‘ziga xos e’tiqodiy ohang, nomga nisbatan hurmatli bo‘lish hissi talab etilganday ohang yetakchilik qiladi. Hatto xuddi shu obrazga nisbatan boshqa baxshi ijrosida yuqoridagi ohang yetakchilik qilgaligini ham kuramiz. Ya’ni, Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining Rahmatulla shoir Yusuf o‘g‘li ijrosidagi variantida Go‘ro‘g‘lining do‘sti bo‘lgan, Xorazm dostonlarida *Safar ko’sa* tarzida nomlangan qahramon “Safarboy” deb qo‘llaniladi. Quyidagi parchaga diqqat qilaylik: “...Go‘ro‘g‘li Safarboy polvonning bu so‘zini eshitib, G‘irotidan irg‘ib tushib, G‘irko‘k otini bir bodomchaga ildirib, kelasolib safarboy polvonni tutib, yerga ko‘tarib bir urdi...”².

Go‘ro‘g‘li turkumining xorazm versiyalarida ushbu qahramon nomiga biroz hazilomuz xarakter berish maqsadida *ko’sa* elementi qo‘shiladi va nomning egasi ishtirokqilgan ko‘pchilik voqealarda ana shu xususiyat yetakchilik qiladi. Mazkur so‘z o‘zbek tilining izohli lug‘atida “...soqol mo‘yabi juda siyrak yoki

¹ Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. –Тошкент: Фан, 2013. –Б. 199. (264)

² Go‘ro‘g‘li. Aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchilar: To‘ra Mirzo va Zubayda Husainova. –Toshkent: Sharq, 2006. –B. 56. (448)

butunlay yoq, chiqmaydigan odam” deya sharhanadi¹. Koplagan Sharq xalqlari ertaklarida komik xarakterga ega bo‘lgan nomi yonida shunday qo‘shimchasiga ega qahramonlar nomlari mavjud. Masalan, *Aldarko ‘sa* – tadbirli va ayyor kishining obrazi hisoblanadi.

Xorazm dostonlari leksikasida qo‘llanilgan ana shu obrazni nomlashda ham baxshilar ma’lum darajada ana shu xarakterda tasvirlashni maqsad qilganlar. Parchaga e’tibor qilaylik: “...*Go ‘ro ‘g ‘lig ‘a qarab galavardi, ammo safar ko ‘sani ham juft yog ‘irini yera yopishti. Ishni yomon qochg ‘inini bilib, Safar ko ‘sa hiylaga o ‘tdi...*”². ushbu satrlardanm ham ma’lum bo‘ladiki, Xorazm regionida tarqalgan dostonlarda ushbu nom egasiga sujet rivojida boshqacha vazifalar yuklangan.

Dostonlar voqealari o‘ziga xos aralsh sujetli janr bo‘lib, unda o‘rni kelganda komediyalik, vaqt bilan tragediyalik, muayyan o‘rinlari yosh, o‘smirlarga, ma’lum o‘rinlari o‘rta yoshlar va keksalarga mos bo‘lgan epik-dramatik xarakterni aks ettiradi. Chunki, axborot vositalari ommalashmagan davrlarda, dostonlar katta-katta davralarda (qur) ko‘p minglagan kishilar orasida ijro etilgan va o‘sha kishilar uchun ham kino, ham ertak, ham tragediya, ham komediya, ham axloq-odob o‘rgatuvchi bir vosita rolini bajarganligini inobatga olsak, *Safar ko ‘sa* antroponimiga yuklangan komik xarakterning funksiyasi yana ham oydinlashadi.

Bob yuzasidan qisqacha xulosalar

1. Dostonlar onomastikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ma’lum bir doston leksikasida tilning boshqa sathlariga qaraganda atoqli otlar eng kam miqdorni tashkil etadi. Osha kam miqdorda uchraydigan atoqli otlarning eng katta foizini, albatta kishi ismlari, ya’ni antroponimlar tashkil etadi. Bunga o‘xhash xulosalarni dostonlar onomastikasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan ko‘plab tadqiqotchilar ham bildirib o‘tishgan.

2. Ularning statistikasiga ko‘ra bitta dostonda bor-yo‘g‘i o‘ntadan yigirma beshtagacha nomlar bo‘lishi mumkin ekan. Agar ma’lum bir dostonda ishlataligan

¹ O’zbek tilining izohli lug’ati. K harfi. A.Madvaliyev tahriri ostida. –Toshkent: O’zME nashriyoti, www.ziyouz.com. –B.472.

² Гўрўғли. Масъул мухаррир С.Р.Рўзимбоев. –Урганч: Хоразм нашриёти, 2004. –Б.56.(480)

umumiy so‘zlar miqdori bilan undagi atoqli otlar miqdori solishtirilganda uning juda oz miqdon ekanligi yana ham oydinlashadi.

3. Qo‘shma tarkibli nomlar tarkibidagi ikkinchi qism ko‘p hollarda o‘z atash ma’nosini yo‘qotgan holda qo‘llaniladi, ya’ni nomga qo‘shimcha ma’no qirralarini qo‘shish uchun xizmat qiladi va bunday elementlar tilshunosligimizdagi affiksoid atamasi bilan izohlangani maqsadga muvofiq.

II BOB

Atoqli otlar tarkibidagi affiksoidlarda gender jihatlarning namoyon bo‘lishi

Garchi, xalq dostonlarini to‘plash va tadqiq qilish ishlari o‘tgan asrdan boshlangan bo‘lsa ham, ularning aksariyatida bu material folklorshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Vaholanki, xalq dostonlari o‘zining ko‘lamdorligi va o‘ziga xos murakkab xarakterga egaligi bilan boshqa janrlardan farq qiladi. Ayniqsa, uning leksik boyligi xalq dostonlarini lisoniy jihatdan ham o‘rganish zarurligini taqozo etadi. Bu tilimizning yechilishi zarur bo‘lgan bir qator muammolarini hal qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qila oladi. X.T.Zaripov dostonlar leksikasining ahamiyati haqida: “Bu boy leksika adabiy tilimizni boyitish uchun asosiy manbalardan hisoblanganidek, o‘zbek tili tarixini, shevalar taraqqiyoti yo‘llarini o‘rganish uchun ham muhimdir”¹, – degan edi.

Shu fikrga qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, Xorazm dostonlari tilini o‘rganish ham muayyan darajada muhim tadqiqotlar bilan boyib bormoqda. Jumladan, mazkur manbalar tilida qo‘llanilgan atoqli otlar, xususan, antroponimlar boyicha ham ma’lum ishlarni kuzatmoqdamiz. Bu ishlar hali kichik darajalarda bitiruv-malakaviy ish, magistrlik ishlari shaklida bo‘lsa ham bir qancha umumlashma va xuloslarga ega bo‘lmoqdamiz. Dostonlar tili haqida fikr յoritar ekanmiz, hech bir mubolag‘asiz aytish mumkinki, ular “...xalq tilining xira

¹ Zaripov X. O‘zbek xalq ijodi. Ko‘p tomligiga kiradigan asarlarni tayyorlash prinsiplari. Islom shoir ijodi va uning xalq poeziyasida tutgan o’rni. –T.: 1978. 133-bet.

tortmas ko‘zgusi, jonli xalq tilining, xalq donoligining jonli tarixi in’ikosidir”¹. Ushbu fikr o‘z navbatida o‘zbek xalq dostonlarining barchasi uchun, xususan, Xorazm dostonlari ham uchun xos ekanligini ta’kidlash lozim.

Xorazm dostonlari deb talqin qilinayotgan dostonlar hozirgi Xorazm viloyati va unga yondosh bo‘lgan qo‘shni Tukmaniston, Qoraqalpog‘iston kabi hududlarda tarqalgan, xalq baxshilari tomonidan to‘y-hashamlarda yoki boshqa marosimlarda kuylanib kelingan og‘zaki ijod mahsuli hisoblanadigan dostonlar tushuniladi. Bu dostonlar turli davrlarda yaratilgan bo‘lishi, ayrim hollarda ma’lum farqlarga ega bo‘lishi bilan birga, ushbu hududda yashab kelayotgan kishilarning tilidagi eng noyob leksik birliklarni ham saqlab keladi.

Darhaqiqat, folklor asarlari va xalq shevalarining o‘zaro munosabati mavzusi dialektolog olimlarning ham diqqatini jalb qilgan. Bu sohada taniqli shevashunos olim A.Ishaevning tadqiqotlari e’tiborga loyiqidir. U dostonlar tili lisoniy jihatdan ikki aspektda o‘rganilishi lozimligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, dostonlar tilini leksik-morfologik xususiyatlariga ko‘ra va badiiy til vositalari jihatdan o‘rganish va tadqiq qilish yaxshiroq samara beradi. A.Ishaev bevosita dostonlar onomastikasi muammolarini ham o‘rganish va tadqiq qilish borasida ham faoliyat olib borgan. U dostonlarda uchraydigan joy nomlarini tahlil qilish natijasida ularni doston yaratilgan hududning tarixiy-etnografik xususiyatlari bilan bog‘lash va ayrim nomlarni boshqa hududdagi shunday onomastik birliklar bilan qiyosiy tadqiq qilish orqali moddiylashtirish usulidan foydalangan². Xalq dostonlarining lisoniy xususiyatlarini o‘rganish mustaqillik yillarida yana ham jadallahdi. O‘rni bilan shuni ta’kidlash lozimki, Urganch Davlat universiteti olimlari tomonidan professor S.R.Ro‘zimboev rahbarligida xalq dostonlarining og‘zaki va kitobiy variantlarini baxshi va qissaxonlardan yozib olib, to‘plib nashr qilindi³. Bu dostonlar “Go‘ro‘g‘li” va “Oshiqnomma” turkumlarini tashkil qilib, hozir ularni soni o‘ttizdan ortiqdir. Ular nafaqat vohamizda istiqomat qiluvchi

¹ Mahmudov N. O’zbekning o’lmas so’zi// Til.- Toshkent. 1998. – B. 27.

² Ishayev A. Shohsanamning vatani qayer? Fan va turmush. –T.: 1971, №11. –B. 26-27.

³ “Go‘ro‘g‘li”, Urganch, 2004; “Oshiqnomma”, I kitob, Urganch, 2006; II kitob, 2006; III kitob, Urganch, 2008; IV kitob, Urganch, 2009. (nashrga tayyorlovchi S.R.Ro‘zimboev, S.S.Ro‘zimboev, G.Eshchanova).

o‘zbek, turkman, qoraqalpoq xalqlarining, balki Kavkaz va Sibir o‘lkalarida yashovchi turkiy qavmlarning tarixiy aloqalari haqida ma’lumot beruvchi muhim merosdir.

Mazkur tadqiqotning vujudga kelishida ushbu dostonlar materiallari asos qilib olindi. Xalq dostonlarining lisoniy xususiyatlari haqida ayrim fikrlar aytilgan bo‘lsa ham, ularning muhim qismi hisoblangan onomastik birliklar hozirgacha ilmiy tadqiqot ob’ekti bo‘lgan emas. Zero, hozirgi davr xalqimiz tarixining ayrim noxolis yoritilgan sahifalari qayta ko‘rishga muhtoj ekanligini taqozo etmoqda. Shuning uchun ham, uzoq davrning mahsuli bo‘lgan atoqli otlarni tahlil qilish ma’lum ma’noda bu sohada ham ko‘mak berishi shubhasizdir. Chunki sobiq sho‘rolar hukmronligi davrida tarixga, tarixiy haqiqatga bir tomonlama, davr mafkurasi manfaati pozitsiyasidan baho berilgan edi. Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi atoqli otlar, garchi, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lsa ham, voha onomastik tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham, ularni tadqiq qilish Xorazm onomastikasining shakllanish va rivojlanish jarayoni bilan bog‘liq holda amalga oshirilmog‘i lozim deb o‘ylaymiz.

Atoqli otlar ham til birliklari bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti va unda ro‘y bergan o‘zgarishlar, diniy va milliy an’analar har bir davrda shu davr mafkurasi va madaniyati bilan bog‘liq holda tilning lug‘at sostavidan o‘rin olib boradi. Shuni ham alohida qayd etish lozimki, bir tushunchani ifoda etuvchi nomlar faqat o‘zi mansub bo‘lgan, faoliyat ko‘rsatadigan tilning leksik-semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan bo‘ladi.

Tadqiqotchilaricha, o‘tmishdagi atoqli otlarni o‘rganish bilan bog‘liq murakkab muammolardan biri tarixiy nomlar tushunchasini aniqlashdir¹. Tarixiy nomlar majmuini zamonaviy ismlar fondidan farqlash murakkab masaladir. Chunki tarixiy deb yuritiluvchi ko‘pgina nomlar hozirgi davr onomastik fondida ham iste’molda bo‘lib, faol qo‘llanmoqda. Bunday nomlar tilda paydo bo‘lish va yashash davriga ko‘ra tarixiy bo‘lsa-da, qo‘llanishi, hayotiyligiga

¹ Xusanov N.A. XV asr o‘zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari. DDA. – Toshkent: 2000. –B. 8.

ko‘ra zamonaviydir. Bu, ayniqsa, antroponimlar tizimida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ismning tarixiy ekanligini belgilash uning ma’lum o‘tmish tarixiy yozma manbalarda yoki folklor tilida uchrashi kabi xususiyatlariga asoslanishi lozim.

Har qanday antroponimik tizimda, nomlar gender ifodalash jihatiga ko‘ra ikki toifaga ajratiladi. Ya’ni, u zamonaviy antroponimlar tizimi bo‘lsin yoki tarixiy antroponimlar bo‘lsin, yoki bo‘lmasa, dostonlar antroponimikasi bo‘lsin erkaklar nomlari va xotin qizlar nomlarini ifodalashiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi. Xuddi shu jarayonni antroponimlar tizimidagi affiksoidlar tizimiga ham tatbiq qilish mumkin.

Xorazm dostonlari tilida uchraydigan antroponimlar tarkibidagi affiksoidlarni tekshirish orqali ana shu faktning yaqqol misollarini ko‘rishimiz mumkin. Eng faol antroponimik affiksoidlar sifatida *-jon*, *-bek*, *-xon*, *-gul*, *-bibi*, *-sulton* kabilarni keltirish lozim bo‘ladi. Affiksoidlar va antroponimlarning bir jihatni alhoda farqlanaib turadi, ya’ni kishi ismlarining katta qismini real ikkita gender guruhga ajtaish qiyin emas. Erkaklar ayollar ismlari gender ifodalash xususiyatiga ko‘ra jiddiy farqlanadi. Ular maxsus tovush birliklar, grammatik elementlar yoki leksik elementlar vositasida ikki guruhga bo‘linadi. Masalan, *Tohir // Tohira*, *Ashurbek // Ashurbib*, *Rajabboy // Rajabbibi*, *Sultonboy // Sultanposhsha*, *Norbek // Norgul*, *Oybek // Oygul*, *Oyjon*, *Safarboy //Safargul* va boshqalar.

Nomlar tarkibida qo‘llaniladigan affiksoidlarda uchta guruhga ajralish holati antroponimlar tizimidan farqlanadi. Ya’ni, affiksoidlar kishi ismlari tarkibida erkak kishilar ismlariga xos, ayollar ismlariga xos va gender jihatdan universal bo‘lgan affiksoidlar kabi turlarga ajraladi. Nomlar fondida bu holat sezilarli darajaga ko‘tarila olmagan. Bugungi zamonaviy antroponimik tizimda ba’zi nomlarning gender jihatdan universallik ifodalash holatlari mavjud. Masalan, Xursand, Karomat, Sevinch va boshqalarda gender universallikni ko‘rishimiz mumkin ammo bu antroponimik tizimda alohida bir guruh deb baholash darajasiga yetib kelmagan.

Umuman, o‘zbek antroponimiyasida jins (rod) ifodalash masalasiga ko‘pgina olimlarimiz munosabat bildirishgan. Masalan, A.N.Kononov o‘zining o‘zbek tili grammatikasiga oid dastlabki ishini “Категория рода” (Jins

kategoriyasi) deb nomlagan. U mazkur maqolasida o‘zbek tilida jins leksik, morfologik va sintaktik usullarda ifodalinishini ta’kidlaydi¹. Bizningcha, shu qatorga fonetik usulni ham kirtish lozim. Chunki shunday elementlar borki, ularni yo grammatik (morfologik), yo sintaktik usul deb hisoblab bo‘lmaydi. Masalan, *Tohir // Tohira, Javohir // Javohira, Ziyod // Ziyoda* kabi nomlarning jins ifodalashi bitta tovush vositasida amalga oshgan va bu tovushni grammatik-morfologik yoki sintaktik element sifatida baholab bo‘lmaydi.

Ulkan nomshunos olim Ernst Begmatov o‘zining “O‘zbek tili antroponomikasi” kitobida “antroponomik aniqlagichlar” (antroponomik indikatorlar) masalasiga to‘xtalib shunday deydi: “...Ma’lumki, indikatorlar nomning qaysi obyektning atoqli oti ekanini aniqlab, unga ishora qilib turadi. Mana shunday holat antroponomikada ham mavjud. Antroponimlar tuzilishidagi mana shunday vositani biz “antroponomik aniqlagichlar” yoki “antroponomik indikatorlar” deb atashni lozim topamiz. Demak, antroponomik aniqlagishlar ismlarni erkaklar va ayollar ismlariga ajralishida asos bo‘ladi. Masalan, ismlarga birikadigan *-bobo, -buva, boy//beg, -din, -jon(-chon), -toy, -sho* kabilar ismning egasi erkak kishi ekanligiga ishora qilsa, *-ya(-iya), -cha, -bonu, -bibish, -beka//bika, -bibi, -buvi, -gul, -go ‘zal, -niso(nisa), -momo, -poshsha, -xon, -xonim* kabilar ism egasining ayol jinsiga mansub ekanligiga ishora qiladi”².

Mazkur fikrlarning ba’zi jihatlariga o‘zgacha mulohazalar bildirish mumkin. Birinchidan, bu o‘rindagi keltirilgan birliklarning ayrimlari (*-bobo, -buva, boy//beg, -jon, -toy, -sho, beka//bika, -bibi, -buvi, -bonu, -momo, -poshsha, -xonim*) biz tekshiriayotgan birliklar – affiksoidlar toifasiga ham mansub. Ikkinchidan, ularning ayrimlari gender jihatdan universallik xarakteriga ega, masalan, *-xon, -gul, -go ‘zal* kabilarni shular jumlasiga kiritish mumkin.

¹ КононовА. Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. –М.;Л.: Изд-во АН, 1960. С. 70-72.

² Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. –Тошкент: Фан, 2013. –Б. 231. (264)

Aynan shu masala yuzasidan Xorazm dostonlaridagi affiksoidlarning gender ifodalash xususiyatlari haqida yozilgan Q.Olloyorovning fikrlari buni yana bir bor tasdqlishi mumkin¹.

Affiksoidlarmi yoki aniqlagichlarmi? – degan savol tekshiruvchini muayyan bir prinsip asosida javob berishga undaydi. Bu savolga o‘zbek tilshunosligiga oid aksariyat manbalarda “affiksoidlar” atamasiga berilgan sharhlar orqali javob berish mumkin deb o‘ylaymiz. Oldingi bo‘limlarda keltirilgan bir jumani takror keltiramizki: “Affiksoid deb asli leksik birlik bo‘lib, keyinchalik xuddi affiks kabi grammatik ma’no ifodalashga xizmat qilib, affiks kabi bir necha leksemalarga qo‘shilib kelish xususiyatiga ega bo‘lgan birlikka aytildi”².

Yuqorida ajratib ko‘rsatilgan birliklarning katta ko‘pchiligi affiksoidlar toifasiga kirishini hech ikkilanmay aytish mumkin. Dostonlar onomastik tizimini tadqiq qilish natijasida olingan xulosa va nazariy umumlashmalar tarixiy nomlarni bugungi onomastik tizim bilan qiyosiy tahlil qilishda, onomastik tizimning rivojlanishi, taraqqiy qilish va boyish qonuniyatlarini ochishda o‘zbek tili leksikasining tarixiy qatlamlari, xususan, substrat qatlam ma’nosiga oydinliklar kiritish mumkin.

2.1. Erkak kishi nomlari tarkibidagi affiksoidlar

O‘zbek onomastikasi yoki nomshunosligi o‘tgan asrning 60-70-yillarida alohida ilmiy yo‘nalish sifatida yuzaga keldi. O‘zbek nomshunosligi o‘tgan asming ikkinchi yarmidan boshlab eng rivojlangan sohalardan biriga aylandi. Ayniqsa, bu sohaning antroponomika, toponimika, etnonimika kabi bir qator sohalarida juda barakali ishlar amalga oshirildi. Masalan, o‘zbek ismlari (antroponimlari) materiallari atroflicha to‘plandi, to‘rtta nomzodlik dissertatsiyasi (E.Begmatov – 1965, G‘.Sattorov – 1990, S.Rahimov – 1998, R.Xudoyberganov - 2007) himoya qilindi, E.Begmatovning “Kishi nomlari imlosi” (1970), “O‘zbek ismlari imlosi”

¹ Olloyorov Q.M. Xorazm dostonlaridagi gender xususiyatlari universal nomlar va affiksoidlar//Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. –Xiva, 2019.-B.102

² Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent. Universitet, 2006. B. 116

(1972), “O‘zbek ismlari” (1991), “O‘zbek ismlari ma’nosi” (1998; 2004; 2010), “Ism chiroyi” (1994) nomli kitoblari nashr etildi.

O‘zbek tarixiy toponimikasi va antroponimikasi bo‘yicha ham keying davrlarda tilshunosligimizda ma’lum ishlar amalga oshirilgan. Masalan, akademik B.Ahmedov, akademik A.Muhammadjonovning ayrim tarixiy toponimlar etimologiyasiga doir kuzatishlari¹, Sh.Kamoliddinning O‘rta Osiyodagi qadimgi turkiy toponimiyaga oid ishlari diqqatga sazovor². N.Husanovning XV asr yozma yodgorliklaridagi antroponimlarga, Sh.Yoqubov va B.Bafoyevlarning Alisher Navoiy asarlari onomastikasiga, M.Turdibekovning Abulg‘izi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asari onomastikasiga, I.Xudoynazarovning o‘zbek folklori onomastikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlari o‘zbek nomshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek nomshunoslari olib borgan keng ko‘lamli tadqiqotlar keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligi sohasini bir qator monografiyalar (S.Qorayev, T.Nafasov, Z.Do‘sarov, L.Karimova, A.Turobov, N.Oxunov, N.Begaliyev, T.Enazarov, N.Husanov, S.Karimov, S.Bo‘riyev), risolalar (S.Qorayev, E.Begmatov, N.Oxunov, T.Nafasov, T.Enazarov, B.Qilichev), izohli lug‘atlar (S.Qorayev, E.Begmatov, Z.Do‘sarov, X.Egamov, B.O‘rinboyev, T.Nafasov, V.Nafasova, O.Holiqov) hamda ko‘p sonli ilmiy hamda ilmiy-ommabop maqolalar (S.Qorayev, E.Begmatov, T.Nafasov va boshqalar) bilan boyitdi. Bu sohada, ayniqsa, T.Nafasov, Z.Do‘sarov, H.Hasanov, S.Qorayev, N.Oxunov, N.Husanov, T.Enazarov, X.Doniyorov, A.Otajonova, B.O‘rinboyev kabi olimlarning hissasi kattadir.

Xuddi shu yillari SamDUDA “Onomastika masalalari” nomi bilan bir necha ilmiy to‘plam nashr etilgan, bu sohada ilmiy-tadqiqotlar ko‘لامи ancha kengaygan edi. Masalan, xuddi shu yillari SamDU olimlari poetik onomastika yoki onomastik uslubiyat masalalari bilan maxsus shug‘ullana boshladilar. Taniqli adabiyotshunos

¹ Муҳаммаджонов А. “Турон” геоними ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. №2. 12-16-бетлар; Муҳаммаджонов А. Самарқанднинг тарихий топонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. № 4. 37-42-бетлар.

² Камолиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. –Ташкент: Шарқ, 2006, 192 с

olim E.B.Magazannikning “Onomapoetika yoki adabiyotda gapiruvchi nomlar” nomli yirik monografiyasi Toshkentda nashr etilgan edi¹. Bu olimning shogirdi Y.Po’latov esa shu sohada izlanishlar olib borib, badiiy matndagi nomlar tarjimasiga doir qiziqarli risola yaratgan edi². Keyinchalik I.Mirzayev badiiy tarjimada kishi ismlari va geografik nomlarning berilishiga doir ayrim kuzatish ishlari olib bordi.

Xorazm dostonlari antroponimik tizimidagi erkak kishilarning nomlari haqida fikr yuritar ekanmiz, ularning birdan ortiq qismlardan tarkib topgan shakllari anchayin ko‘proq miqdorni tashkil etadi. Birdan ortiq tuzilishga ega bo‘lgan erkaklar ismlari tarkibida erkaklar ismlarini tashkil qiluvchi affiksoid atamasi ostiga birlashuvchi elementlar ham muayyan miqdorni tashkil qiladi.

Ular orasida *-ali, -arab, -berdi, -barzanggi, -bobo, -bog ‘bon, -boy, bek // beg (-biy), -botir, -baxshi, -vazir, -guppi, -dali, -jon, -zoda, -ko ‘sa, -ko ‘r, -malik, -mehtar, -mulla (-mullo), -mahram (-maram), -mirza (-mirzo), -miroxur, -niyozi, -ota, -polvon, -pir, -sardor, -said, -sulton, -xon, -xo ‘ja, -cho ‘pon, -shayx, shoh (-sho), -eshon, -o ‘g ‘lon, -qul* kabilarni uchratish mumkin.

Ushbu erkaklar nomlari tarkibida qo‘llanigan affiksoidlarning ifoda imkoniyatlari, uslubiy-funksional xususiyatlariga ko‘ra bir necha guruhlarga ajratish mumkin.

1. Qo‘llanish chastotasiga ko‘ra:

- a) faol qo‘llanuvchi affiksoidlar;
- b) nofaol qo‘llanuvchi affiksoidlar.

2. Qo‘llanish davriga (tarixiylik jihatiga) ko‘ra:

- a) arxaiklashgan affiksoidlar;
- b) zamonaviyligini yo‘qotmagan affiksoidlar.

3. Uslubiy xoslanganligiga ko‘ra:

- a) uslubiy xoslangan affiksoidlar;
- b) uslubiy chegaralanamgan affiksoidlar kabilar.

¹ Магазаник Э.Б. Ономапоэтика или «говорящие имена» в литературе. – Ташкент: Фан, 1978, 148 с

² Пўлатов Ю. Бадиий асарда номлар таржимаси. – Тошкент: Фан, 1967, 63 бет

1. Qo'llanish chastotasiga ko'ra yuqorida keltirilgan erkaklar nomlari bilan birga qo'llaniladigan affiksoidlar orasida eng faollaridan biri -xon affiksoidi deb hisoblash to'g'ri bo'ladi. Chunki, mazkur affiksoid Xorazm dostonlari tilida uchraydigan juda ko'psonli nomlar tarkibida uchraydi. Masalan: *Hasanxon*, *Avazxon*, *Alixon*, *Asadalixon*, *Qoraxon*, *Boboxon*, *Eralixon*, *Ziyodxon*, *Oyxon*, *Eralixon*, *Mamatxon*, *Musoxon* kabi ko'plagan nomlar tarkibida faol qo'llaniladi.

Mazkur erkaklar ismlari tarkibida qo'llanilgan -xon affiksoidi ba'zi nomlar tarkibida o'zining mustaqil ma'nosini muayyan darajada saqlagan bo'lsa, boshqa birlari tarkibida to'liq yo'qotib, yordamchi vazifalarga o'tib ketganligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Masalan, "Oshiqnoma" turkumining 3-kitobidan o'rin olgan quyidagi parchada birinchi holat yetakchilik qiladi: "...*Urganch yurtida besh shahar bor erdi. Ul shaharlarning har birida bir xon bor erdi. Alardin eng ulug'ini Eralixon der erdilar...*"¹. bunday holatda –xon elementini mustaqil funksida kelgan deb hisoblash va affiksoid sifatida qaralmasligi ham mumkinligini nazarda tutgan ma'qul.

Endi boshqa bir misolga yuzlanamiz: "...*Avazxon shu borishina Xunxorshohning Karam dali dagan sarkardasining to'pini ustinnan chiqdi...*"². mazkur o'rindagi –xon elementi shunchaki nomning ma'nosiga qo'shimcha bo'yoq, effekt berish uchun qo'llanilganini sezish qiyin emas. Ushbu affiksoid haqida yana bir jihatni aytish lozimki, mazkur birlik hozirgi o'zbek antroponimiyasida ham ancha faol birliklardan sanaladi, shu bilan birga gender jihatdan universallik xususyatiga ega, ya'ni xotin qizlar ismlari tarkibida ham, erkaklar ismlari tarkibida ham birdek qo'llanila oladi.

Ushbu affiksoidning yana bir jihat mavjud, ya'ni u asosdan oldin ham, keyin ham ishlatalishi mumkin bo'lgan birliklardan sanaladi. Yuqorida keltirilgan misollarda –xon elementi nom asosidan keyin qo'llanilgan bo'lsa, quyida uning asosdan oldin ham qo'llanilgan o'rinlarini kuzatishimiz mumkin:

“...*San na dab o'ylading bizni,*

¹ Oshiqnoma. 3-kitob. Mas'ul muharrir S.Ro'zimboyev. –Urganch: Xorazm nashriyoti, 2008. –B.16.

² Гўрўғли. Масъул муҳаррир С.Р.Рўзимбоев. –Урганч: Хоразм нашриёти, 2004. –Б.177. (480)

Ayamay qirarman sizni,
Qutqarurman xon Avazni,
Karbalo cho 'llarim bordur...". (“Go‘ro‘g‘li”, “Qirq minglar” dostoni, 170-bet) yoki:

“...*Seni menga Mavlon berdi,*

O‘g‘limmisan xon Avazim,

Qanday seni xudo urdi,

Zolimmisan xon Avazim...”. (“Go‘ro‘g‘li”, “Arab tang‘an” dostoni, 156-bet). Ko‘p hollarda affiksoidlar o‘zga tillardan o‘zlashgan birliklar asosida shakllanadi. Ushbu mazmundagi fikrlar tilshunosligimizga oid ko‘plagan ilmiy manbalarda ham keltirib o‘tiladi. Biroq, -xon elementi turkiy tillarga xosligi bilan ahamiyatlidir.

Ushbu element dastlab turkiy va mo‘g‘ul hukmdorlarining unvoni hisoblangan. VI asrlarda *qaan* O‘rta Osiyoda katta hududning hukmdori ma’nosida ishlatilgan. Keyinchalik turkiy xalqlar islom dinini qabul qilgach arabiylar talaffuzga moslanib *xoqon* deb yuritila boshlagan. X asrlardan boshlab Qoraxoniylar va Somoniylar sulolalari vakillari nomiga “xon” so‘zi qo‘shib ishlatilgan: Qoraxon, Bug‘roxon, Arslonxon kabi.

Mo‘g‘ullar istilosi davrida o‘zbek urug‘larining yo‘lboshchilari “xon” unvonini olganlar. Keyinchalik bu odat o‘zbeklardan Eron, Afg‘oniston va Hidistongacha tarqalgan. Davr o‘tishi bilan eroniy mansabdorlar va kichikroq amaldorlar ham *xon* deb atala boshlgan. Asta sekin O‘rta Osiyoda xonlarning xotinlari ismiga ham bu so‘z qo‘shib ishlatila boshlangan. Shu sababdan ham bugungi kunda mazkur element gender universaliya holatida ishlatiladi.

Xorazm dostonlaridagi erkaklar ismlari tarkibida uchraydigan yana bir faol affiksoid ***bek*** // ***beg*** affiksoidi hisoblanadi. Mazkur affiksoid ham erkaklar ismlari tarkibida hozirgi kunda ham faol qo‘llaniladi. Xorazm dostonlaridagi *Alibek*, *Yusufbek*, *Ahmadbek*, *Ashurbek*, *Bobobek*, *Og‘abek*, *Bek Go‘ro‘g‘li*, *Bekpo‘lat posho*, *Bek Ravshan*, *Jig‘olibek* kabi ko‘plagan erkak ismlari tarkibida uchraydi.

Bek // beg affiksoidi ham turkiy qatlamga oid birlik bo‘lib, turkiy tillarda “janob” degan ma’noga yaqin turadi. Shuningdek, bek so‘zi hukmdor, aslzoda ma’nolarini ifodalagan. O‘rta Osiyo xonliklarida shahar yoki viloyat boshlig‘i hisoblangan beklar xon tomonidan tayinlangan. Xorazmda xon va davlat arboblarining o‘g‘illari va qarindoshlariga beriladigan faxriy unvon ham bek deb yuritilgan. Beklar muayyan yer va mulkka ega bo‘lganlar va o‘sha yerkari uchun soliq to‘lashdan ozod etilganlar.

Bek affiksoidi ham *xon* elementi kabi nom asosidan oldin ham, keyin ham qo‘llanishi mumkin bo‘lgan birliklardan sanaladi. Dostonlarimiz matnlaridan olingan parchalarda ana shu jihatni ko‘rishimiz mumkin:

“...*Aytibon o,,z holini oldingda yig,,lar Oyjamol,*

Alibek otlig,, gul navbahordin ayrilg,,oli...” (“Oshiqnomma” 2-kitob, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, 86-b) yoki “...*Yusufbek Alixo ja eshonga, Ahmadbek Shayx Sharof eshonga qo‘l berdi*” (“Oshiqnomma” 3-kitob, “Yusuf va Ahmad” dostoni, 27-b). ushbu misollarda bek elementi odatdagidek asosdan keyin qo‘llanilayotgan bo‘lsa, *Bek Go‘ro‘g‘li, Bekpo‘lat* posho kabi antroponomilar tarkibida asosdan oldin ham qo‘llanilishini ko‘rsatmoqda:

...*Bek Go‘ro‘gli orin oldi,*

G‘anim ko‘nglina dog‘ soldi,

Bibijon foydaga qoldi,

Qarindoshlar go‘rishali... (“Go‘ro‘g‘li”, 1-kjitob, “Arab Rayhon” dostoni, 98-bet) yoki “...*Go‘ro‘g‘li sultonning ko‘zini bir ochirib qo‘yay deb, -Bekpo‘lat poshoga bir lak qo‘shin berib, Avaz o‘g‘longa qo‘shib Chambilga jo‘natdi...*”. “Go‘ro‘g‘li”, 2-kjitob, “Avaz o‘glonning Rumga qochishi” dostoni, 266-bet).

Mazkur birlikning asosdan oldin qo‘llanishi Xorazm dostonlaridagi ko‘plagan kishi nomlarida kuzatiladi. Masalan, *Bek Ravshan* (“Go‘ro‘g‘li” II kitob, 17-bet), *Bektosh* (“Go‘ro‘g‘li”, II kitob, 149-bet) kabilarni keltirish mumkin.

Misollar: ... *Qadim zamonda takali turkmanning chamlibel viloyatinda Jig‘olibek degan bek o‘tdi...*¹

... *Aytibon o‘z holini oldingda yig‘lar Oyjamol,*

*Alibek otlig‘ guli navbahordin ayrilg‘oli...*²

Nomlar tarkibida qo‘llaniluvchi “bek” affiksoidi, odatda bir qismdan iborat sodda nomlarga qo‘shiladigan bo‘lsa, ayrim o‘rinlarda birdan ortiq komponentli onomastik birlklarga ham qo‘shilish o‘rinlarini uchratish mumkin. «Go‘ro‘g‘li» turkumiga kiruvchi dostonlardan olingan quyidagi parchada ana shu holatni kuzatish mumkin:

...*Nishopurning hokimi Mamadalibekni Xunxorning farmoni bilan podsho qilib qaytdi..*³.

“biy” affiksoidi. Mazkur birlik ham Xorazm dostonlari leksikasidan o‘rin olgan nomlar tarkibida uchraydi. “biy” so‘zi aslida ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi xalqlarning, jumladan, o‘zbek urug‘larining oqsoqollariga beriladigan unvon nomini anglatadi. XVII – XIX asrlarda yirik o‘zbek urug‘lari va qabilalariga boshchilik qilgan biylar faqat markaziy hukumatgagina itoat etganlar. Biy unvoni avloddan avlodga meros qilib qoldirilgan.

Xorazmda biy – otaliq, inoq kabi lavozimlardan so‘ng keluvchi faxriy unvonlardan biri bo‘lgan. Biylar kamida 300, ko‘pi bilan 500 navkarga sarkardalik qilganlar. Shuni ham ta’kidlash kerakki, biylar yuqori lavozimga ko‘tarilganlarida ham, ularning eski *biylik* lavozimlari olib tashlanmasdan, balki o‘zlarida saqlanib qolingga.

Dostonlar leksikasida bu birlik nomlar tarkibida, ko‘pincha, asosdan keyin qo‘shilib keladi. Masalan: *Olabiy, O‘taganbiy, Sharmonbiy, Ermonbiy, Tulumbiy* kabilar. “Oshiqnoma” turkum dostonlariga taalluqli quyidagi parchalarga e’tibor

qarataylik: ...*To ‘xtamishxon Tulumbiyni hamma mahramlaridan ziyoda yaxshi ko‘rar erdi...*¹ yoki, ...*Alqissa O‘tganbiyning so‘zleri podshog‘a xush kelib aytdi: “xo‘p aytursizlar”...*²

¹ Гўрўғли 2-китоб. Гўрўғлининг туғилиши достони. 17-бет

² Ошиқнома 2-китоб. Ошиқ Ғарип ва Шоҳсанам достони. 86-бет.

³ Гўрўғли 2-китоб. 171-бет

“Biy” komponentining etimologik jihatlarini tahlil qilish uning “bek” so‘zi bilan aloqador ekanligini ko‘rsatadi. So‘zlar tarkibidagi “k” yoki “g” tovushining “y” tovushiga aylanishi o‘zbek tili tarixidan hamda dialektologiya kabi sohalarda ancha keng tarqalgan hodisa ekanligi ma’lum hodisalardan sanaladi. Turkiy tillarga xos bo‘lgan *bek* // *bey* hodisasi shevalar leksikasiga oid fonetik hodisa sifatida ham ma’lum. Masalan, *tek* // *tey*; *deg* // *dey*; *chegir* // *cheyir* va boshqalar.

Xorazm dostonlaridagi atoqli otlar tarkibida qo‘llaniladigan affiksoidlar qanday nomga qo‘shilishiga ko‘ra ham qiziq ma’lumotlarga duch kelishi mumkin.

Masalan, turkiy tillarga xos affiksoidlar arab-fors tillariga oid nomlariga qo‘shilishi mumkin va aksincha, arab-fors tillariga oid affiksoidlar turkiy tillarga mansub nomlarga qo‘shilib kelishi mumkin.

2.2. Xotin-qizlar nomlari tarkibidagi affiksoidlar

Xorazm dostonlarining atoqli otlar tizimi tahlil qilinar ekan, dastavval bu tizimdagи nomlarning tarkibiy jihatlari e’tiborini tortadi. Dostonlar tilidagi nomlarning katta ko‘pchiliginи birdan ortiq qisimlardan iborat bo‘lgan nomlar tashkil etadi. Bunday nomlarning ham o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkinligini darrov ko‘zga tashlanadi. Masalan, bu nomlarning etimologik qirralarini aniqlash ismlarning (atoqli otlarning) tarixiy ildizlariga hamda sinxron jihatlariga alohida e’tibor berish va shunga o‘xshash belgilarni aniqlash ham nomshunoslik uchun yangi va qiziqarli ma’lumotlar taqdim etishi shubhasizdir.

Dostonlar tilida uchraydigan atoqli otlar tizimida kam miqdorni tashkil qilsa-da sodda tarkibdan iborat nomlar ishlatilganligi bu borada olib borilgan tadqiqotlardan ham ma’lum. Ammo shu nomlarning leksik qatlamlar nuqtayi nazardan teshkirilishi, ularning qo‘llanish davriga nisbatan o‘rganilishi (arxaiklashgan yoki arxaiklashmagani) yana-da qiziqarli va muhim ma’lumotlar berishi aniq.

¹ Ошиқнома 1-китоб. Эдиго достони. 170-бет.

² Ошиқнома 1-китоб. Эдиго достони. 205-бет.

Ma'lumki har qanday xalq dostonida xalqimizning hayot tarzi, qiziqish va urf-odatlari va shunga o'xhash ko'p holatlar aks etadi. Bunung ichida dostonlardagi ishq-muhabbat mavzusi alohida diqqat va e'tiborga loyiq hodisadir. Ayniqsa, "Oshiqnoma" turkum dostonlari bu borada yetakchilik qiladi.

Ishq mavzusi "Oshiqnoma" turkum dostonlarining yetakchi mavzusi hisoblanadi bu mavzu esa xotin-qizlar ishtirokisiz ro'yobga chiga olmaydi, albatta. Shu sabab dostonlar leksikasidagi xotin-qizlar ismlarini alohida o'rghanish va tahlil qilish ham mazkur tadqiqodimiz doirasiga mansub deb hisobladik.

Xorazm dostonlaridagi atoqli otlarning sodda tarkibli turlari ichida ko'pchiligi erkak jinsli kishilarga qo'yilgan nomlar bo'lishi bilan birga, ayrim nomlar xotin-qizlar, payg'ambarlarning rafiqalari, afsonaviy parilar, devlar kabilarga tegishlidir.

Yuqorida tilga olib o'tganimizdek, Xorazm dostonlari, xususan, "Oshiqnoma" turkum dostonlaridagi atoqli otlar tizimida ayollar bilan bog'liq bo'lgan xotin-qizlar ismlari alohida e'tiborga molikdir.

Aksariyat dostonlar sujeti ishqiy yo'nalishdan, ishq-muhabbat mavzusidan chetda bo'lolmaydi. Bu holat, ayniqsa, "Oshiqnoma" turkumidagi dostonlarda alohida o'rin tutadi. Shunday ekan, mazkur dostonlarda uchraydigan xotin-qizlar ismlarini turli tomondan tekshirish, tahlil qilish, jumladan, ularning tuzulish jihatidan o'r ganilishi masalasiga oid fikrlar bildirish ushbu ishimizni yanada mazmunli qilishi, yangi materiallar bilan boyitishi hech qanday shubhaga o'rin qoldirmaydi.

Shularni hisobga olib, biz ushbu bo'limda Xorazm dostonlarida uchraydigan xotin-qizlar ismlari tarkibida uchraydigan affiksoidlarni tekshirishni maqsad qildik. Zero, mavzuyimiz ham dostonlardagi nomlarning tarkibiy tuzilishiga aloqador birliklar (affiksoidlar) xususiyatlarini o'r ganishga bag'ishlanadi.

Xorazm dostonlaridagi xotin-qizlar ismlarini to'plab tahlil qilish, ularning tarkibiy jihatlarini o'r ganishdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, dostonlar tilida uchraydigan xotin-qizlar ismlarining asosiy qismi birdan ortiq komponentlardan

tashkil topgan nomlardir. Shunday bo‘lsa-da tuzililish jihatdan sodda deb hisoblanuvchi xotin-qizlar ismlarini ham uchratish mumkinligini quyudagi misolla orqali e’tirof etish mumkin deb o‘ylaymiz. Misollarga murojaat qilaylik:

Aqcha (Aqja), Bonu, Gul, Gulzor, Gulshan, Zaynab, Zulayho, Zuhra, Zebish, Zebo, Layli, Maryam, Misqol, Mehribon, Nargis, Navbahor, Ovodan, Ra’no, Robiya, Sanam, Sora (Saro), Tansuq, Taxmis, Fotima, Shirin, Qaldirg‘och, Havvo (Momo Havo), Halima, Hojar va boshqalar.

Yuqoridagi misollarning aksariyatini sinxron nuqtayi nazardan, ya’ni hozirgi o‘zbek tili qonuniyatlariga ko‘ra sodda tarkibli nomlar deb hisoblash mumkin. Nega deganda, mazkur nomlar tarkibida hozirgi o‘zbek tilida mustaqil tarzda qo‘llanuvchi birdan ortiq qismlarni uchratmaymiz. Ularni morfologik jihatdan qismlarga ajratishga harakat qilsak, faqat ayrim sodda tarkibli xotin-qizlar ismlari tarkibidagi so‘z yasovchi yoki lug‘aviy shakl yasovchi affikslarga teng keluvchi birliklarnigina kuzatishimiz mumkin xolos. Bunday nomlarga misol qilib: **Aqcha, Gulzor** kabi nomlarni keltirishimiz mumkin.

Aqcha ismi “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonida qo‘llanilgan bo‘lib, ayrim o‘rinlarda “*Aqja*” variantida ham qo‘llaniladi. Ayniqsa, o‘g‘uz shevasi ta’siridagi varianlarda va turkman tiliga oid variantlarda “j” tovushi qo‘llanilishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. “*Aqcha*” ismli qizning asli ismi *Gulnihol* (dostonda *Gulnahal*) bo‘lib, “*Aqcha*” uning laqabi deya keltiriladi. Misol:

...Shohsanamning Gulnihol degan bir kanizi bor erdi. Laqabini Aqcha der erdilar¹.

Ushbu nom qahramonning “oq yuzli” ekanligini ta’kidlash uchun xizmat qilgan deyish xato bo‘lmaydi deb o‘ylaymiz. Nom tarkibidagi **-cha** qismi esa erkalash-kichraytirish vasifasini bajaruvchi lug‘aviy shakl ifodalashga xizmat qilmoqda. Quyidagi parchada qo‘llanilgan *Gulzor* ismi tarkibidagi **-zor** komponenti xususida ham xuddi shunday fikrlarni aytish mumkin. Ushbu ism “Oshiq Alband” dostonida qo‘llanilgan bo‘lib quyidagi parchada keltiriladi:

“...So‘najonning Gulzor degan bir kanizi bor erdi...”¹

¹Oshiqnoma. 2-kitob. 26-bet

Bu nom aslida turdosh otdan, aniqrog‘i, o‘rin-joy otidan atoqli otga aylangani juda aniq ko‘rinib turibdi. Nom tarkibidagi -zor komponenti ham leksemaning atoqli otga aylanmasidan oldin qo‘shilgan bo‘lib, yaxlit holda onomastik birlik shakillanishi jarayoni ro‘y bergan.

Sodda tarkibli ayrim nomlar tilimizga boshqa tillardan o‘zlashganligini turli ilmiy manbalar orqali bilishimiz mumkin. O‘zga tillardan o‘zlashgan deb hisoblanadigan xotin-qizlar ismlarining aksariyatini fors va arab tillaridan o‘zlashgan ismlar tashkil qiladi. **Zulayho, Layli, Ra’no, Robiya, Sanam, Fotima, Xojar** kabi ko‘plab nomlarni arab tili orqali tilimizga va dostonlarimizga kirib kelgan deb hisoblasak; **Bonu, Gul, Gulzor, Gulshan, Zebo, Navbahor** singari ko‘plab xotin-qizlar ismlarini forsiy til bilan bog‘lash mumkin.

Sodda tarkibli xotin-qizlar ismlarining mazkur jihatlariga e’tibor qaratishimizdan maqsad, ularning ayrimlarini o‘zga tilda bir komponentli nom deb qarash to‘g‘ri bo‘lmay chiqishi mumkin. Masalan, “*Navbahor*” ismiga e’tibor qilaylik. Nom “Edigo” (Tulumxo‘ja) dostonida qo‘llangan bo‘lib, quyidagi parchada keltiramiz: “...*Xo‘ja qizidin olg‘on Navbahor bibi degan xotini bor erdi...*” (Oshiqnoma.1-kitob.174-bet.)

Nom aslida “*Nav*” hamda “*bahor*” qisimlaridan tashkil topganligini shu soha kishilariga ta’kidlashning hojati yo‘q. Biroq, mazkur nom o‘zbek tili va shevalariga o‘zga tildagi shaklida yaxlitligicha kirib kelgani bois, bu kabi nomlarni o‘zbek tili nuqtayi nazaridan baholashda sodda tarkibli nomlar qatoriga qo‘shish ma’qul deb o‘ylaymiz. Bu hodisa haqida tilshunos olimimiz Azim Hojiyev o‘zining “O‘zbek tilida so‘z yasalishi ” deb nomlangan asarida ham batafsil ma’lumot berib o‘tadi.² Shu o‘rinda ayrim sodda tarkibli nomlar talaffuzidagi fonetik o‘zgarishlarga ham e’tibor qilish lozim deb hisoblaymiz. Biz ta’kidlamoqchi bo‘lgan fonetik o‘zgarishlar, asosan, nomlarning sheva variantlarida yuz beruvchi o‘zgarishlar bo‘lib ayrimlari o‘zbek adabiy tili uchun umumiylilik kasb etishi mumkin. Masalan, “**Zuhro**” ismi shevalarimizda *Zo‘ra*,

¹ Oshiqnoma. 2-kitob. 194-bet

² Hojiyev A. “O‘zbek tilida so‘z yasalishi” 1987-y.

Zo ‘vra; “**Robia**” ismi *Ro ‘ya* tarzida fonetik o‘zgarishga uchrasa; ayrim nomlar tarkibidagi bir unli yoki bir undosh o‘zgaradi. Masalan, *Zaynab – Zeynab, Layli – Leyli, Fotima – Potma* kabi.

Dostonlarimiz matnlarida kuzatiladigan xotin-qizlar nomlariga aloqador affiksoidlardan yana biri “*bonu*” birligidir. Ushbu eroniylardan tillarga xos bo‘lgan element dastlab grammatik ma’no ifodalagan. Ma’lumki, eroniylarda turkiy tillardagi kabi jins ifodalovchi grammatik ko‘rsatkich yo‘q. Shu sababli, jins ma’nosi leksik usulda, ya’ni so‘zlar yordamida ifodalangan. Jumladan, qadimgi Eronda davlat boshqaruvchi, hukmdor *xshatradora* so‘zi bilan yuritilgan. *Xshatra* qadimgi fors tilida “davlat, hokimiyat”degan ma’noni bildirgan.(Yangi fors tilidagi shaxr “shahar” so‘zi ham ushbu o‘zak bilan bog‘liq). *Dora* (yangi fors tilida – “*dor*”) “egallovchi” (rus. обладатель) demakdir. Shunday ekan, *xshatradora* “hokimiyat egasi” degan ma’noni anglatadi. Keyinchalik, hozirgi fors tilida *shahriyor* shakliga kelgan, bu so‘z ayni vaqtida unvon ma’nosida ham qo‘llangan. *Shahriyording* xotini esa *Shahribonu* maqomini olgan. Qishloq hokimi *katxudo* deb yuritsa, uning xotini *katbonu*, ya’ni “qishloq bekasi” (aynan, uy bekasi) deb atalgan.

Umuman, dastlab *bonu* elementi mustaqil qo‘llanmagan, u ayollar ismini hosil qilish uchun xizmat qilgan. Masalan, eroniylarda *Gavhar* ismi erkak kishilar nomi sifatida mavjud bo‘lgan, unga bonu komponenti qo‘shilgach ayol nomi *Gavharbonu* hosil bo‘lgan. Dastlab *bonu* elementi yuqori tabaqa ayollari ismlarigagina qo‘shilgan, keyinchalik barcha toifa vakillari nomiga qo‘shib ishlatish odat tusiga kirgan.

Ushbu komponent Xorazm dostonlarida ham faol qo‘llanilgan. “*Xiromon pari*”, “*Sayodxon va Hamro*” dostonlarida *Bonu* so‘zi mustaqil holda ism sifatida qo‘llangan: ...*Ammo qizlarning ichinda ikki kaniz bor erdi, birining oti Bonu, yana birining oti Lizon erdi...* (Oshiqnoma. 2-kitob. “*Xiromon pari*” dostoni, 318-bet). Mazkur element “*Malikai Zavriyo*” dostonida *Shahribonu* shaklida qo‘llanilgan: ...*So ‘najonning bir kanizi bor erdi. Otig ‘a Shahribonu der erdilar...*(Oshiqnoma. 1-kitob. “*Malikai Zavriyo*” dostoni, 301-bet).

Xulosa qilib aytganda, Xorazm dostonlaridagi xotin-qizlar nomlari tarkibida qo'llaniladigan affiksoidlarning turli shakllari va qo'llanish holatlari mavjudki, ularni to'plab tekshirish tilshunosligimizning antroponimika tarmog'ini yana ham kengayishi uchun xizmat qilishi shubhasiz.

2.3. Universal xususiyatga ega bo'lgan affiksoidlar

Atroponimlar bo'yicha olib borilgan ko'plagan tadqiqotlarda ularning funsional jihatlari haqida gap boradi va real tarixiy shaxslarning nomlarini ifodalovchi birliklar, to'qima noreal shxslarni ifodalovchi, diniy-tarixiy shaxsiyatlar kabilarni ifodalovchi ismlar kabi turlari tilga olinadi. Ushbu o'rinda biz nazarda tutayotgan erkaklarga xos ismlar nom egalarining turli jihatlari haqida xabar berish vazifasini o'zida mujassam etgan nomlardir.

Dostonlarimiz leksikasidan o'rin olgan kishi ismlari tarkibida ishtirok etadigan affiksoidlar orasida gender jihatdan universallik xususiyatiga ega bo'lgan turlari ham kuzatiladi. Ushbu bo'limda ana shunday xarakterdagi ayrim affiksoidli nomlarning qo'llanishi va uslubiy-semantik xususiyatlari haqida to'xtalamiz.

Xorazm dostonlari leksikasidagi xotin- qizlar ismlari orasida **-jon**, **-xon**, **-oy**, **-gul** kabi qismlar qatnashgan qo'shma tarkibli nomlar anchagina miqdorni tashkil etadi. Mazkur hodisa hozirgi adabiy tilimiz va shevalarimiz uchun ham hosdir. Nomlar tarkibidagi **-jon**, **-xon**, **-oy**, **-gul** qismlari aslida mustaqil leksik ma'noga ega bo'lgan birliklar bo'lib, nomlar tarkibida o'zining mustaqilligini doim ham namoyon qilavermaydigan birliklardandir. Masalan, **Asljon**, **Bibijon**, **Guljon**, **Zuhrajon**, **Nargisjon**, **Nigorjon**, **Nishotjon**, **Sanamjon**, **Sarvijon**, **So'najon...** kabilarda **-jon** komponenti qatnashsa, **La'lixon**, **Muloyimxon**, **Oyxon**, **Ro'zaxon**, **Sayodxon**, **Tarlixon**, **Chinnixon...** kabilarda **-xon** komponenti; hamda **Gulnozoy**, **Gulqizoy**, **Holjuvonoy**, **Hiloloy...** kabilarda **-oy** komponenti ishtirok etgan.

Dostonlar onomastik tizimi, xususan, kishi ismlari fondi tekshirib ko'rilganda ma'lum bo'ladiki, **-jon**, **-xon**, **-oy**, **-gul** qisimlari nafaqat xotin- qizlar nomlari tarkibida, balki erkaklar ismlari tarkibida ham birdek qo'llana oladi.

Najotjon, Qoraxon... kabilarda erkak kishi ismi tarkibida qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Universal xarakterga ega bo‘lgan affiksoidlardan biri sifatida “**gul**” elementini keltirish mumkin. Ushbu komponent kishi nomlari yasashda juda ham faol bo‘lib, dostonlar onomastik tizimidagi ko‘plagan nomlar tarkibida uchraydi: **Gulasal** (“Yusuf va Ahmad”), **Gulrux**, **Gulruxpari**, **Gulruxsor** (“Avaz uylangan”), **Gulandom** (“Go‘ro‘g‘li”), **Gulshirin** (“Arab tang‘an”), **Gulixiromon**, **Gulshan** (“Xirmondali”), **Guljon**, **Gulqiz**, **Gulnoz** (“Gulqizoy”), **Guljamila**, **Gulsarvi** (“Edigo”), **Gulchehra** (“Oshiq Alband”), **Gulchaman** (“Oshiq Najab”), **Gulsutun** (“Shahriyor”) va boshqalar.

Gul elementi kelib chiqishi jihatdan forsiy illarga aloqador ekanligi ma’lum holatdir. U kishi ismlari tarkibida nomning ma’nosiga “chechak, chiroyli, xushro‘y” kabi semalarni yuklash funksiyasini bajaradi. Qiyoq qiling:

Gulandom – gulga o‘xhash bo‘y, gulday kabi qomat;

Gulora – gullar bilan bezangan;

Gulasal – gulning asali (gulday go‘zal, asalday shirin);

Guljamol – gulday ochilgan, go‘zal yuz, mukammal;

Guljahon – dunyoning guli, go‘zallikda dunyoda yagona;

Gulizar – gulyuzli (gul + arabcha izar “yuz, oraz”);

Gulniso – ayollarning go‘zali;

Gulnigor – gul yuzli, gulchehra;

Gulnor – anor guli;

Gulnoz – nozli gul va shu kabilar.

O‘rta Osiyo xalqlarining deyarli barcha tillariga taalluqli bo‘lgan ushbu element nomning asosi bo‘lib kelishi, shuningdek, ismga qo‘shilib ham kelishi mumkin: **Donogul** (“Donogul”), **Ko‘kgul** (“Edigo”), **Lolagul** (“Gul va Sanobar”), **Novgul** (“Sayod va Hamro”), **Oygul** (“Avaz”), **Oqchagul** (“Yunus va Misqol”), **Olmagul** (“Zulfizar”), **Sarvigul** (“Xandon botir”), **To‘tigul** (“Go‘ro‘g‘li”) va boshqalar. Mazkur affiksoid hozirgi kunda, asosan, ayollar ismiga qo‘shilib keladi. Ammo, Xorazm dostonlarining birida (“Edigo” dostonida) **Ko‘kgul** shaklidagi

erkak kishining ismi tarkibida ham qo‘llangan: “...*Ammo, Ko‘kgul degan bola tamomi o‘g‘lonlarning ushoqlarini utdi...*” (Oshiqnoma.1-kitob. “Edigo” dostoni, 198-bet.)

Xorazm regional antroponimlarini tekshirgan ayrim olimlarning ishlarida va voha shevalari antroponimlarini kuzatish orqali ma’lum bo‘ladiki, *Gulmon*, *Gulimmat*, *Gulmirza* kabi erkak kishilarning ismlari tarkibida hozir ham gul elementi o‘z faolligini yo‘qotmagan. Demak, bu element bir vaqtlar erkak ismlarini yasashda ham qatnashgan degan xulosalar chiqarishimizga asos bo‘ladi.

Xorazm dostonlari onomastik tizimidagi ham erkak kishilarga xos nomlar, ham xotin qizlar nomlari tarkibida qo‘llana olish xarakteriga ega bo‘lgan yana bir faol affiksoid “oy” elementi hisoblanadi. Ushbu element ham faol antroponimik affiksoidlardan bo‘lib, ko‘plab kishi ismlarini hosil qilishda qatnashgan: ***Oysulton*** (“Bozirgon”), ***Oypora*** (“Oshiq G‘arib va Shohsanam”), ***Oygulqiz*** (“Gulqizoy”), ***Oygul*** (“Avaz”), ***Oyxon*** (“Yusuf va Ahmad”), ***Oysanam***, ***Oyjamol*** (“Oshiq G‘arib va Shohsanam”) kabi. Mazkur affiksoid ham asosdan oldin va asosdan keyin qo‘llana oladi. ***Boloyim***, ***Gulqizoy***, ***Gulnozoy***, ***Guloyim***, ***Donoguloy*** va boshqalar.

Bu nomlar tarkibida *oy* elementi o‘z ma’nosida emas, balki, erkalash, hurmat ottenkalarini ifodalash uchun qo‘llanilgan. *Oy* affiksoidi ***oyim*** shaklida egalik qo‘sishimchasi bilan qo‘llanib, yaqinlik, erkalash ma’nosini yana ham bo‘rttirib ifodalaydi. *Oy* so‘zi, asosan, ayollar ismiga qo‘silib, yuqorida tilga olganimiz kabi ottenkalarni ifodalasa ham, asl ma’nosida, “oy, osmon jismi, yerning tabiiy yo‘ldoshi” ma’nosini anglatadi. Ammo, ba’zi hollarda erkaklarning ismiga qo‘silib, “baxt, baxtli” ma’nosini ifodalaydi. Masalan, ***Oybek***, ***Oytemir*** kabi. Ushbu affiksoid boshqa turkiy tillarda ham faol qo‘llanadi.

Yuqorida keltirilgan xotin- qizlar ismlari tarkibidagi ***-jon***, ***-xon***, ***-oy***, ***-gul*** qismlari affiksoid shaklida bo‘lib, o‘z lug‘aviy ma’nosini to‘la saqlamagani holda, boshqa bir toifa nomlar tarkibida o‘z asl ma’nolarini to‘la namoyon qilgan tarzda qo‘llanishini kuzatish mumkin: ***Jonpari***, ***Jonshod***, ***Jondorpuch***, ***Xondalli***, ***Oygul***, ***Osanam***, ***Oysulton***, ***Oyxon***, ***Oyjamol***, ***Oypora*** kabilar.

Hozirgi o‘zbek adabiytili va shevalarda uchraydigan juda ko‘plagan ismlar tarkibida - *jon*, - *xon*, - *oy* qismlari faol qo‘llanilib kelinmoqda. Bu qismlarning qay darajada dostonlar leksikasidan o‘rin olishi baxshi yoki jirovlarning so‘z ishlatalish uslubiga ham bog‘liq. Chunki, ayrim nomlar tarkibiga yuqoridagi qismlarning ishlatalishi ancha sun’iyligi bilinib tursa (*Mehribonjon*, *Nargizjon*, *Qoljuvonoy*, *Gulqizoy*, *Gulnozoy*), ayrimlarida mazkur komponentlarning o‘rni ancha turg‘un holat kasb etgan. Masalan, *Bibijon*, *Guljon*, *Sanamjon*, *So‘najon*, *La’li hon*, *Oyxon*, *Sayodxon*, *Guloy*... kabilar.

Universal xarakterga affiksoidlardan yana biri sifatida “sho // shoh” elementini keltirish mumkin. Ushbu element o‘zbek tiliga eroniylardan “kirib kelgan¹” deb hisoblanuvchi so‘z bo‘lib, uning etimologik jihatlari haqida uzil-kesil bnuday xulosa chiqarish uchun muayyan mulohazalar yuritish lozim deb o‘ylaymiz.

Chunki, mazkur birlik ancha qadimiy bo‘lib, uning qaysi tildan qaysinisiga o‘zlashganligi mulohaza qilib ko‘riladigan masaladir. Qadimgi elementlarning, xusuan, Xorazm regionida, Avesto manbasi yaratilgan zaminda mavjud eroniylardan xos xususiyatlarga ega birliklarning qaysi tildan qaysi tilga o‘zlashganligi masalasida bir yoqlama xulosa chiqarish, bizningcha, unchalik ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bunday o‘rinlarda, taniqli tilshunos E.Begmatovning tavsiya qilgan prinsipi eng ma’qul usul deb hisoblashga asos bo‘ladi. Ya’ni, domlaning: “...bunday o‘rinlarda “leksik parallellik” atamasini qo‘llash kerak”² – degan fikrlari anchayin mantiqiy sanaladi.

Sho//shoh elementi Xorazm dostonlari leksikasida uchraydigan kishi ismlari tarkibida gender universallik holatida qo‘llanilganini quyidagi misollar ko‘rsatib turadi: *Shohsanam*, *Shohimardon*, *Shohi Olim*, *Xunxorshoh*, *Anvarshoh*, *Sho(h) Mahmud*, *Go‘zalsho(h)*, *Harishoh*, *Shoqalandar*, *Yusufsho(h)*, *Shohi Qaytus*, *Lakasho(h)*, *Gulsho*, *Dorobsho(h)*, *Shoh Iskandar* (*Iskandarsho*), *Zavar podsho*, *Kajang shoh*, *Mamatsho* // *Shomamat*, *To‘kashoh*,

¹ O‘zbek tilining izohli lug’ati. Sh harfi. A.Madvaliyev tahriri ostida. www.ziyouz.com kutubxonasi. –B.599.

² Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985. – б. 57. (200)

Sultonsho, Shovali, Shovot, Shozargar, Shomisqol, Shomomo, Shoniyoz, Shoqalandar, Shoh Abbas // Abbosshoh va boshqalar.

Nomlar tarkibida qo'llaniladigan mazkur element eski o'zbek adabiy tilidagi podshoh leksemasining badiiy talablarga ko'ra yuzaga kelgan shakllari hisoblanadi. Fikrimizning isboti uchun dostonlar matnlarida qo'llanilgan ayrim misollarga murojaat qilamiz.

...Zavarshoh der bo'ling omon,

Emdi mando yo 'qdur gumon,

Manga yo 'dosh nuri imon,

Inondim bolam inondim... (Oshiqnoma.1-kitob. "Malikai Zavriyo" dostoni, 305-bet). Ushbu parchadagi Zavarsho antroponimi tarkibidagi sho elementi aynan podsho so'zining ixchamlashgan varianti ekanligini aynan shu dostonda aynan shu qahramonning nomini Zavar podsho shaklida keltirilganligi bilan ham izohlash mumkin: "...*Bu yigitga Zavar podshoning qizi nasib bo'lg'ondir, deb g'oyib bo'ldilar...*" ... (Oshiqnoma.1-kitob. "Malikai Zavriyo" dostoni, 295-bet).

Go'ro'g'li turkum dostonlarida *Lakashoh // Lakhashoh* antroponimida ham shu holatni kuzatamaiz. "...*Xunkarsho podsho og'angning ko'zini o'yg'on bo'lsa, yengangdi olib ketgan bo'lsa, Lakasho seni netib edi, Yusufsho seni netib edi?..*" ("Go'ro'g'li", 1-kjitob, "Arab tang'an" dostoni, 124-bet) yoki

...Og'a beklar keting Lahka podshog'a,

Bedov ot oldina olib keltiring,

Bahromin, vazirin, beg-u xonini,

Birin qo'ymay, barin olib keltiring... ("Go'ro'g'li", 1-kjitob, "Arab Rayhon" dostoni, 100-bet). Ba'zan sho elementi nom tarkibida ortiqchalik holatida ham qo'llanilganligi yuqoridagi misoldagi *Xunkarsho podsho* antroponimida kuzatilmoxda.

Dostonlarimiz leksikasidagi yuqoridagi antroponimlar tarkibida qo'llanilgan *sho* elementi qo'llanishiga ko'ra nom asosining oldidan ham, asosdan keyin ham birdek qo'llanila oladi. Mazkur elementning bunday xususiyati ayrim kishi ismlarining dublet variantdorligini ham keltirib chiqaradi. Masalan: *Shoh*

Iskandar // Iskandarsho, Mamatsho // Shomamat, Shoh Abbas // Abbosshoh va boshqalar. Misollar:

...Bu dunyo hech kimga qilmadi vafo,

Ko 'ngildagi o 'ylaganlar bo 'lmadi,

Jamshid, Faridunman Zolu Rustamzar,

Yurtni olgan Shoh Iskandar qolmadi... (Go'ro'gli. 2-kitob. "Zulfizar" dostoni, 206-b) yoki "...Avazjon, o 'g 'lim, hazrati **Iskandarsho**-da meningday yurtni odil so 'ramag 'andi..." (Go'ro'gli. 1-kitob. "Arab Tang'an" dostoni, 137-b);

Dostonlar tilidagi antroponimlar tarkibida qo'llanlilgan "sho" elementining yana bir xususiyati u ayollarga xos nomlar tarkibida ham bemalol ishlatilaverishi mumkin. Masalan, **Shohsanam**, **Shomisqol**, **Shomomo**, **Gulsho** va boshqalar.

Nom tanlash tamoyillari haqida fikr yuritgan ilmiy manbalarda ism berishning 5 xil motivi haqida aytildi¹. O'. Nosirovning maqolasida o'r ganilgan hududda ism berish udumlari bilan ba'zi nomlarga keng to'xtalgan. Masalan, chaqaloq dunyoga kelgach, uning badanidagi belgilarga ishora qiluvchi *Qo 'shboy*, *Oltiboy* ismlarining; go'dakning yuzi, ko'zi va sochiga xos xususiyatlariga ko'ra *Ko 'kiboy*, *Sariboy* *Qorazboy*; agar chaqaloq tug'ilganidan to yetti kunga qadar ko'zi ochilmasa, unga *Ochilboy*, *Ochilbek* kabi ismlar berilishi haqida keltiriladi².

Xorazm dostonlari leksikasida kuzatiladigan ayrim nomlarning ham tanlanish tamoyillari muayyan prinsiplar asosida yuzaga kelgan deb hisoblash mumkin. Yuqorida keltirib o'tgan nomlarimizda ana shu xususiyat bo'rtib turganligin ko'ramiz.

Nom tarkibida *sho* elementi ishtirok etgan va nom egasining xarakteridan "so'zlovchi" yana bir erkaklar nomi **Kajangsho** antroponimidir. Mazkur nom to'liq to'qima nom bo'lib, nom egasining xulq-atvori haqida xabar beruvchi elementlardan tarkib topgan. Bu tipdagi nomlarni real antroponimik tizimda kuzatmaymiz, chunki, bunday nomlar badiiy tasvir uslubiga xos nomlardan

¹ Шамсиев М. Кишиларга атаб қўйилган номлар // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари, 4-киюб. – Тошкент: ЎзФА нашириёти, 1962. –Б. 456-463.

² Носиров Ў. Ўзбек тилидаги киши номлари ҳақида баъзи мулоҳазалар // Илмий асарлар, Қарши-Тошкент, 1965. Б. 194-197 бетлар.

hisoblanadi. Nom tarkibidagi “*kaj*” va “*sho*” – elementlari eroniy tillarga aloqador birliklar bo‘lib, birinchisi egri, qiyshiq ma’nolarini ifodalasa, ikkinchisi *podshoh*, *hukmdor*, ma’nolaridagi “*shoh*” leksemasining qisqargan shakli hisoblanadi.

Nomn egasi dostonda Kajangbotir tarzida ham noimlanadi va uning xarakteridagi qaysarlik o‘rni kelganda qat’iylik, prinsipiallik, mardlik kabi hislatlar bilan ug‘unlashib ketadi. Quyidagi parchaga diqqat qilaylik: “...san borma, dadi Kajngbotir. Xunxor podshoning lashkarlari kallangni oladi. Daryoni bo‘yini qora chugundin lashkar bosib yotibdi, yaxshisi, bizlara yo‘l go‘rsat, dadi...” yoki

Bag ‘dodda oy tug ‘ib chiqsa osmona,

Tabrizda ko ‘rinur undan nishona,

Kajangshoha kulib boqsa zamona,

Baxt-u iqbol biza balli galibdur...¹ (“Qirq minglar” dostoni)

Kajang botir, Kajangsho erkak nomlari stilistik-semantik jihatdan aslida salbiy xarakterga ega bo‘lishi kerak edi, ammo doston ijrochilari mazkur nomdag'i salbiy, qaysarlik va o‘jarlikning faqat dushmanga nisbatan bo‘lishi, yaqinlari va do‘stlari orasida esa nomning semantik tarkibidagi qat’iylik, sobitlik kabi jihatlarni yetakchi xarakterga aylantirganini yuqoridagi misollar ha tasdiqlab turibdi.

Bob yuzasidan qisqacha xulosalar

1. Har qanday antroponimik tizimda, nomlar gender ifodalash jihatiga ko‘ra ikki toifaga ajratiladi. Ya’ni, u zamonaviy antroponimlar tizimi bo‘lsin yoki tarixiy antroponimlar bo‘lsin, yoki bo‘lmasa, dostonlar antroponimikasi bo‘lsin erkaklar nomlari va xotin qizlar nomlarini ifodalashiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi. Xuddi shu jarayonni antroponimlar tizimidagi affiksoidlar tizimiga ham tatbiq qilish mumkin

2. Ayrim ilmiy manblarada (Ernst Begmatov o‘zining “O‘zbek tili antroponimikasi”, 231-bet) biz tekshirayotgan birliklar “aniqlagichlar” deya izohlanayotganini ham kuzatamiz. Bizningcha, antroponim tarkibidagi har qanday elementni ham aniqlagich (antroponimik indikator) deb hisoblab bo‘lmaydi. Qachonki, bir xil nomdag'i bir nechta shaxslarni bir-biridan farqlab, aynan u emas bu shaxs ekanligini ajratib aniqlab turgan birliklarnigina antroponimik indikator

¹ Гўрўғли. Масъул мухаррир С.Р.Рўзимбоев. –Урганч: Хоразм нашриёти, 2004. –Б.168-169.(480)

deb hisoblash to‘g‘ri bo‘ladi. Boshqa hollarda esa nomlar tarkibidagi yordamchi elementlarni affiksoidlar deb hisoblagan ma’qul deb hisoblaymiz.

3. Xorazm dostonlari leksikasida uchraydigan nomlar tarkibidagi affiksoidlarning o‘zida ham gender ifodalash xususiyati yaqqol sezilib turadi. Shu boisdan bunday birliklarni ham erkaklar nomlarini hosil qilishda qatnashadigan va ayollar nomlarini hosil qilishga xizmat qiluvchi turlarga ajratish mumkin. Lekin bunday birliklarda shu xususiyat ham bor ki, ularning ayrimlari gender universallik holatiga to‘g‘ri keladi. Bu zamonaviy o‘zbek antropinimiyasida ham mavjud holatga mos keladi.

III BOB

Affiksoidlarning tarixiy-etimologik tavsifi

Xorazm vohasida yashovchi aholi uzoq va qadimiylar tarixga ega. Ularning tillari ham murakkab rivojlanish jarayonini boshidan kechirgan. Bu yerdagi turkiy urug‘ va qabilalar tili ushbu hududlarda qadimiylar davrlardan yashab kelgan eroniylar bilan aloqada bo‘lgan. Tarixiy manbalarda VII-VIII asrlarda va undan oldin xorazm yozuvi keng tarqalgani haqida ma’lumotlar bor. Qadimgi xorazmiy tili XIV asrlarga kelib o‘zbek tili bilan qo‘silib ketgan¹. Natijada, bu tilga oid ba’zi leksik birliklar hozir ham saqlanib qolgan².

Eroniy tillar bilan aralashgan qadimgi turkiy qabilalar tillari oltoy-mo‘g‘ul tillari bilan ham aloqada bo‘lgan. Bu aloqalar XIII asrda mo‘g‘ullarning O‘rta Osiyoni istilo qilishi davrlarida yanada kuchaydi. O‘rta Osiyoda arablar hukmronligi davrida o‘zbek-arab tillari aloqasi yuzaga keldi. Bu davrda arab tili davlat va din tili, fan va rasmiy yozishmalar tili sifatida keng tarqaldi. Arab tili mahalliy aholiga davlat va fan tili, ayniqsa, din tili sifatida majburan o‘qitildi. Natijada, mahalliy aholi vakillari o‘z ona tili bilan bir qatorda arab tilida ham yozib, ham gaplashadigan darajaga yetishdi.

¹ Фрейман А.А. “Хорезмийский язык”, М-Л, 1951. – Б.32.

² Усмонов С. “Ўзбек тилининг лугат составида тожикча-форсча ва арабча сўзлар”. – Навоийга армуғон. Тошкент, 1968. – Б.109.

Xorazm dostonlari leksikasi qadimda ushbu hududda va undan tashqarida mavjud bo‘lgan, hamda etnik jihatdan turkiy va turkiy bo‘lmagan ko‘pgina urug‘, elat va qabilalarning yashash sharoiti, ijtimoiy ahvoli, turli iqtisodiy-siyosiy aloqalari haqida muhim ma’lumotlarni saqlagan. Ushbu bo‘limda etnonimlarning tarixiy-etimologik manbalari, aniqrog‘i, etimoni jihatdan qaysi tilga mansubligi haqida to‘xtalamiz. Dostonlarda juda ko‘plab etnonimlar tilga olinadi. Ularning aksariyat ko‘pchiligi turkiy tillarga mansubdir. Misol: Barlos (“Hasanxon”), Bulg‘or (“Hasanxon”), Yovmut (“Go‘ro‘g‘li”), Jaloyir (“Go‘ro‘g‘li”), Kenagas (“Erhasan”), Ko‘klang (“Go‘ro‘g‘li”), Mang‘it (“Edigo”), Ovshar (“Go‘ro‘g‘li”), Saroy (“Go‘ro‘g‘li”), Qo‘ng‘iroq (“Edigo”), Qipchoq (“Edigo”), No‘g‘oy (“Hasanxon”), Uyg‘ur (“Edigo”), Nayman (“Edigo”), Qalfoq (“Edigo”), Nukus (“Edigo”), Qangli, Xitoy, Chovdur (“Edigo”), Do‘rmon (“Go‘ro‘g‘li”), Eymir (“Yusuf va Ahmad”), Ersari (“Go‘ro‘g‘li”) va boshqalar.

Ushbu etnik nomlarning ko‘pchiligi hozir ham mamlakatimiz hududida joy nomlari sifatida yashab kelmoqda. Ularning ayrimlari qardosh bo‘lgan turkiy xalqlar tilida ham faol qo‘llanadi. Dostonlar leksikasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchilar dostonlarimizda o‘zbek tilining qipchoq lahjasiga, hamda turkiy tillarning qozoq, qoraqalpoq, no‘g‘ay, shuningdek, tatar, boshqird tillariga xos ko‘pgina so‘zlarning uchrashi mazkur lahja va tillarning bir guruhgaga taalluqli bo‘lishi bilan izohlanishini qayd qilganlar¹.

Shunday qilib, xalq tarixida sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar uning tilida ham o‘z izini qoldirdi. Xorazm xalq dostonlari tilida, ayniqsa, qo‘lyozma shaklida yetib kelgan dostonlarda bu holat yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. Ularni sof og‘zaki adabiyot namunasi deyish ham, tom ma’nodagi yozma adabiyot namunasi deb ham atash mumkin emas. Chunki, ularning tilida adabiyotning bu ikki shakliga xos bo‘lgan xususiyatlarning o‘zaro sintezi aks etgan. Shuningdek, ularda qadimgi turkiy til, shevaga xos bo‘lgan leksik birliklarning eski shakllari, o‘zlashma qatlamga oid arxaik so‘zlar ko‘plab uchraydi. Bu holatlar dostonlar onomastikasi tizimida ham to‘la aks etgan.

¹ Ишаев А. Халқ достонлари лексикасидан. “Ўзбек халқ ижоди” тўплами, Тошкент, “Фан”, 1967. – Б.172.

Xalq dostonlari onomastikasini tahlil qilar ekanmiz, bu tarixiy jarayonlar izini to‘la his qilamiz. Onomastik birliklarning tarixiy-etimologik asoslari, ayniqsa, antroponimlarning katta ko‘philigi arab tiliga aloqadordir. O‘zbek tiliga arab tili faqat din – islom tili sifatida emas, balki fan tili, rasmiy-idoraviy uslub tili, badiiy adabiyot tili sifatida ham ta’sir etdi. Arab tilidan so‘z olish, asosan, o‘zbek-arab bilingvizmi davrida (VII-IX asrlarda) kuchli bo‘ldi¹.

Arab elementlari, garchi toponimik sathda bu darajada aks etmasa ham, shaxs ismlarining vujudga kelishida ma’lum onomastik tizimni vujudga keltirgan va shakllantirgan. Nomlar tarkibidagi affiksoidlarning qo‘llanishi ham mazkur prinsipga bo‘ysunadi. Muhim jihatni mazkur tizim zamonaviy antroponimikada ham o‘z faolligini yo‘qotgan emas.

Kishi nomlarining boshqa bir qismi eroniylarga tillarga xosdir. Shimoliy Xorazm shevalarida ijro etilgan dostonlarda mo‘g‘ul tillari elementlari, xususan, etnonimlar katta o‘rin tutadi. Shunday bo‘lsa ham, dostonlar umumiyligi onomastik fondida asosiy o‘rinni turkiy tillarga xos nomlar egallaydi. Bugungi o‘zbek tili kishi ismlari fondining salmoqli ulushini forsiy tillarga xos birliklar tashkil etadi. Xuddi shu kabi ulushni nomlar tarkibidagi affiksoidlarga taalluqli deb hisoblash mumkin. Ayrim ilmiy manbalarda affiksoidlarning juda kata qismini eroniylarga tillarga xos deb baholangan o‘rinlar ham mavjud². Balki hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi affikosidalar uchun ma’lum darajada bu fikr mos kelar, ammo Xorazm dostonlari tilida uchraydigan affiksoidlarning til qatlamlariga ajralishida muayyan mutanosiblik mavjud. Ya’ni, deyarli arab, fors va turkiy tillarga mansub affiksoidlarning muayyan darajadi muvozanati mavjud.

Bulardan tashqari, Xorazm dostonlarida boshqa – qardosh bo‘lmagan tillarga xos bir guruhi nomlar mavjudki, ular bizni Iskandar Zulqarnayn davriga, qadimgi xitoy manbalari, “Avesto” manbasi va hind xalqi og‘zaki ijodi materiallari tomon yetaklaydi. Kishi ismlari tarkibida uchraydigan affiksoidlar orasidan ham mazkur manbalarga taalluqli shakllarni uchratish mumkin, ammo bu jarayon

¹ Бегматов Э. “Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари”, Тошкент, 1985. – Б.111.

² Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent. Universitet, 2006. В. 116

anchayin murakkab va ko‘proq vqat va imkoniyat talab qiladi. Biz ushbu ishimiz doirasida nomlar trakibiga qo‘silib kelgan affiksoidlarning, asosan, uch xil turi haqida fikr yurishni ma’qul topdik.

Xalq dostonlari onomastik tizimida mavjud holatlarni inobatga olgan holda ularni quyidagi leksik qatlamlar bo‘yicha guruhash maqsadga muvofiq deb hisobladik:

1. O‘z qatlamga oid affiksoidlar;
2. Arabiy qatlamga oid affiksoidlar;

3. Arabiy qatlamga oid affiksoidlar tarzida o‘rganishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz.

3.1. O‘z qatlamga oid affiksoidlar

Turkiy tillarning leksikasini o‘rganish muayyan taraqqiyot bosqichini boshidan kechirgan yo‘nalishlardan hisoblanadi. Jonli tilning leksik sostavini sinchiklab tekshirish, so‘zlarning ma’nolari va nozik semantik ottenkalarini aniqlash va qunt bilan o‘rganish, birinchi navbatda, ana biror tilni yaxshi biladigan mutaxassislar jamoasi tomonidan olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda turkiy tillarning jonli shevalari bilan bevosita shug‘ullanuvchi kishilar fanga bu sohada juda qimmatli material yetkazib berishlari mumkin, biroq afsuski, hozirda jonli shevalar leksikasini o‘rganish tilshunosligimizning boshqa tarmoqlariga nisbatan ancha sustlashib bormoqda, bu esa turkiy tillar leksikasi tarixi taraqqiyoti qonuniyatlarini aniqlashda qiyinchilik tug‘dirayotir.

Leksik me’yorlarni takomillashtirish, adabiy til leksikasini dialektal lug‘at hisobiga o‘sishini ta’minalash, adabiy tilda, ayniqsa adabiy til lug‘at sostavida uchramaydigan spesifik so‘z va terminlarni (masalan, turli sohalar bo‘yicha keng tarqagan, lekin adabiy tilda bo‘lmagan va lug‘atlarda qayd qilinma-gap) dadil olib, adabiy tilga kiritish juda ham zarur ekanligini olimlarimiz takror-takror aytib kelmoqdalar. Terminologik leksikamizning rivojlanishida ayrim sohalar rivojlangan iqtisodiy hududlarga tarqagan shevalarga murojaat qilish qanday ijobjiy natijalar bergenligi, masalan, baliq turlari va baliqchilik rivojlangan Xorazm

vohasida mavjud bo‘lgan bu sohadagi terminlarni adabiy til leksikasiga kiritish zarurligi haqidagi mulohazalar ham juda o‘rinli va o‘z vaqtida bayon etilgan fikrlardir. («Xorazm shevalari leksikasi» nomli to‘plamga murojaat, 34 va undan keyingi sahifalar).

O‘zbek shevalarini kartografiyalash zaruriyati katta til massivlariga tarqalgan yirik shevalarni leksik jihatdan ham yalpi tekshirishni talab qilmoqda. Shu bilan bir qatorda, prof. F. A. Abdullayevning ikkala ishi (“Xorazm shevalari” 1961, “Xorazm shevalari leksikasi”, 1966) ham ko‘proq dialektal lug‘at xarakteridagi ish bo‘lib, juda boy leksik material beradi, lekin shevalar leksikasini chuqur leksikologik planda o‘rganish uchun hali material to‘plashni ham, tekshirish ishlarini ham davom ettirish zarurdir.

Shuningdek, bir tomondan, leksika bo‘yicha qidirish ishlarini o‘g‘uz lahjasining ikkita yirik tarmog‘i bo‘yicha olib borish (Xorazm viloyati va boshqa hududlarga tarqalgan o‘g‘uz shevalari), ikkinchidan, imkoniyat chegaraeida qipchoq va qarluq guruh shevalari bilan qiyosiy o‘rganish zarur ekanligini alohida qayd qilib o‘tmoq kerak; uchinchidan, turkiy tillarning genetik jihatdan yaqin bo‘lgan guruhlari bilan, masalan, turkman va ozarbayjon tillari bilan chog‘ishtirish zaruriyatini ham keltirib chiqaradiki, ayniqsa so‘nggisi turkiy tillarning o‘zaro tarixiy bog‘lanishiga oid juda qimmatli material beradi.

Nihoyat, eski adabiy tilimizning shakllanishi va rivojlanishida o‘g‘uz komponentining ishtiroki va roli haqidagi masalalarni ham shu munosabat bilan ko‘rib chiqish ijobiy natijalar beradi, deb umid qilamiz. Xorazm regioniga tarqalgan o‘zbek tili o‘g‘uz shevalari leksikasining asosiy negizini, hech shubhasiz, umumturkiy tillarga xos bo‘lgan qatlam tashkil qiladi. Bu jihatdan o‘g‘uz lahjasining ikkala tarmog‘i bo‘yicha to‘plangan materialga ko‘ra o‘g‘uz shevalari leksikasi adabiy til leksikasidan keskin farq qilmaydi.

Xorazm o‘g‘uz shevalari leksikasidagi mavjud juda ko‘p so‘zlar adabiy til leksikasida bor, ular shakl va mazmun jihatdan hech qanday farqlanmaydi; faqat o‘g‘uz shevalarida singarmonizmning mavjudligi va elashish hodisasining yo‘qligi so‘zlarning fonetik strukturasida anchagina farq bo‘lishiga olib kelgan, asrlar

davomida hududiy jihatdan ajralgan bo‘lishi esa, ba’zan so‘z ma’nolarida ham o‘zgachaliklarning yuzaga kelishiga sababchi bo‘lgan. Og‘uz guruh shevalarida shunday so‘zlar ham borki, ular o‘zbek adabiy tilida va boshqa o‘zbek shevalarida, odatda, uchramaydi, lekin qardosh turkman va ozarbayjon tillarida bunday so‘zlar adabiy tilning normasi sifatida ish ko‘radi. Bunday o‘ziga xoslikni biz o‘zbek shevalarini qiyosan o‘rganganimizda ham uchratishimiz mumkin.

Og‘uz, guruh shevalarining Xorazm qismida mavjud bo‘lgan so‘zlar boshqa areallardagi shevalar leksikasiga mos keladi, lekin bunday leksik elementlar adabiy tilda norma darajasiga ko‘tarilgan emas yoki mutlaqo uchramaydi. O‘zbek shevalarini o‘rganish natijasida to‘plangan juda ko‘p hujjatlar (ko‘proq leksik materiallar ko‘zda tutiladi) o‘zbek tilining leksik qatlami o‘zbek adabiy tili uchun ham, barcha o‘zbek shevalari uchun ham umumiy ekanligi oydinlashadi. Buni asosiy lug‘at fondidagi so‘z turkumlari bo‘yicha ko‘rish mumkin.

Ko‘plagan dialektologik xarakterdagи ilmiy manbalarda turkiy qatlamga xos birliklarning miqdoriy ko‘rsatkichlari haqida turli xil ma’lumotlarga duch kelamiz. Ayniqsa, antroponimikada turkiy qatlam birliklari hajman kam foizda ko‘rsatilib kelinadi. Chunki, kishi ismlarining katta foizi diniy qarashlarimiz, e’tiqodimiz bilan aloqador bo‘lgan arab-fors qatlamiga oid birliklar asosida yuzaga keladi. Shunga qaramay, folklor manbalari, xususan, Xorazm dostonlari antroponimlar tizimida turkiy asoslarga ega bo‘lgan kishi ismlari muayyan miqdorni tashkil etadi.

Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, muayyan miqdordagi affiksoidlarning ham o‘z qatlmga (turkiy tillarga) aloqador bo‘lib chiqishi tabiiy holat hisoblanadi. Xorazm dostonlari tilida turkiy qatlamga xos affiksoidlar haqida gap borganda eng faol birliklardan hisoblanuvchi *bek//bika//beka* elementlarini e’tiborga olish zarur.

Beka//bika//bek. Mazkur komponent “Oshiqnoma” turkum dostonlaridagi bir talay ismlar, asosan, ayol kishilar nomi tarkibida ishlatalishi kuzatilgan: *Asilbeka*, *Guliasrorbika*, *Novgulbeka*, *Suluvbika*, *Sumbulsochbeka* va boshqalar. Lug‘aviy ma’nosi “hukmdorning, yuqori mansabdorning xotini, xonodon sohibasi”

deganidir. Yuqoridagi atama kelib chiqishiga ko‘ra, *bek* (*beg*) nomi bilan aloqadordir. Go‘ro‘g‘li turkumidan olingan quyidagi parchada beka affiksoidi qatnashgan. “...belbog‘ni shunday yozib qarasa, o‘rtasida **Sumbulsoch** bekaning surati bor. Chir aylanasiga yozib qo‘ygan xati bor. Xatda: “Kimki meni olmoqchi bo‘lsa, darvozadan bo‘lak yo‘ldan kelsa, ikkilamchi, maydonda urush qilib meni boyłasa, shunga tegaman”, -degan...” (“Go‘ro‘g‘li”, 2-kitob, “Sumbulsoch beka” dostoni, 313-bet).

Bek dastlab qayd qilganimizdek, “shahar yoki viloyat hukmdori”, “yuqori martabali amaldor” degan ma’noni bildiradi. Qadimgi manbalarda *bäg*¹, *bəg*² shakllarida talaffuz qilingan bo‘lib, dastlab, “katta, yirik” kabi ma’nolarni ifodalagan. Xuddi shu so‘zga kichraytirish ma’nosini anglatuvchi -ka qo‘shimchasini qo‘shish orqali *beka* so‘zi yuzaga keltirilgan: *bek* › *bəy* + *ka* › *beyka* // *bə:ka* // *beka* kabi.

Bu so‘z aslida, “kichik beka” ma’nosini ifodalagan (O‘TIL.I.43). Sh.Rahmatullaevning ta’kidlashicha, *beka* so‘ziga kichraytirish-erkalash ma’nolarini anglatuvchi -ch qo‘shimchasini qo‘shish bilan *bekä* + *ch* › *bekäch* atamasi hosil qilingan. Bu so‘z aslida “yosh beka” ma’nosini ifodalagan (O‘TIL.I.44). Qadimgi yozma manbalarda qayd qilinishicha, *begäch*, *bekäch* so‘zleri “kichik bek” ma’nosini ifodalaydi³. *Bek* so‘zining keyingi taraqqiyoti negizidaida boshqa turkiy tillarda, shu qatorda, qoraqalpoq, qozoq tillarida *biy* atamasi hosil qilingan. Ushbu tillarda termin ijtimoiy-siyosiy ma’no ifodalagan va urug‘ oqsoqoli ma’nosini ifodalovchichi mansab nomi sifatida qo‘llanilgan. Bu so‘z, ya’ni, *bek*, *bey*, *biy* shakllari davrlar o‘tgach, ko‘plab terminlarning yasalishida asos bo‘lib xizmat qilgan. Jumladan, “Oshiqnoma” turkum dostonlarida o‘nlab erkak kishilarning nomlari tarkibida ishtirok etgan. Misol qilib, *Alibek*, *Ashurbek*, *Bolibek*, *Vafobek*, *Ganjimbek*, *Go‘ro‘g‘libek* (*Bek* *Go‘ro‘g‘li*), *Jig‘olibek*, *Mirzobek*, *Nazirbek*, *Oylabiy*, *Og‘abeg*, *Sarsangbek*, *Sumbulsoch beka*, *Tulimbiy*, *O’tagan biy*, *Sharmon biy* kabilarni keltirish mumkin.

¹ Малов С.Е. Памятники древнетюркской писменности. М.-Л, 1951. – С.369.

² Кошгари М. Девону луготит-турк.1963,. – Б.169.

³ Кошгари, ўша асар, – Б.339.

Misollarga yuzlanamiz: “...Ammo amaldorlarning jamoasining ulug‘i to‘qson ikki to‘p mang‘itdan Tulimxo‘ja degan erdi. To‘xtamishxon **Tulumbiyini** hama mahramlaridan ziyoda yaxshi ko‘rur erdi...” (“Oshiqnoma”, 1-kitob, “Edigo” dostoni, 170-bet). Ushbu parchada qo‘llanilgan nom dostonda bir necha variantlari bilan qo‘llanadi, ya’ni ayrim o‘rinlarda *Tulumxo‘ja*, boshqa joyda *Tulumbiy*, ba’zan *Tulum* shaklida ham uchraydi.

Oq va qora elementli nomlar. “Oshiqnoma” turkum Dostonlari onomastik tizimida rang ma’nosini ifodalovchi so‘zlardan, xususan, *qora* so‘zi bilan hosil qilingan ismlar talaygina. Ular atoqli otlarning hamma turlariga (antroponim, toponim, etnonim, zoonim va h) xosdir: *Aqcha*, *Oqdev*, *Oqrabot*, *Qoradev*, *Qorajon*, *Qorajon*, *Qorabobo*, *Qoromon*, *Qoradali*, *Qoraalam*, *Qoramalik*, *Qorabudoq*, *Qorako‘z*, *Qoratulpor*, *Qoramang‘it* va h.

Haqiqatan ham, bu komponentlar onomastik tizimda ancha aktivdir. Ularni xalq og‘zaki ijodi va qadimgi yozma manbalarda ham kuzatish mumkin. Qiyos qiling: *Qoraxon* – Qoraxoniylar (O‘rta Osiyoda 927-1212 yillar hukmronlik qilgan) sulola asoschisi; *Qora arslon* – Kichik Osiyoda hukmronlik qilgan saljuqiy hukmdorlardan biri; *Qora Yusuf* – G‘arbiy Eron yerlarini boshqargan (XIV asrda) turkiy xon, Tojikistondagi *Qorategin*, “Tohir va Zuhra” dostonidagi sarkarda – *Qorabotir* va boshqalarni keltirish mumkin.

Umuman, badiiylik nuqtayi nazaridan “qora” salbiylik bo‘yog‘iga ega, ammo ushbu nomlarga e’tibor qaratilsa, “qora” so‘zining faqat salbiylik ma’nosini ifodalashiga shubha bilan qarash mumkin. Chunki, xonlar, sarkardalar va boshqa mashhur kishilar salbiy ma’noda bu elementni o‘z nomlari tarkibida saqlamagan bo‘lar edi. Turkiy xalqlar fazodagi eng yorug‘ yulduz bo‘lgan Yupiterni – *Qoraqush* deb atagani uning qora rangi uchun emasligi yana-da ravshanroq namoyon bo‘ladi. *Qoraqush* burgutning turkiy xalqlardagi nomidir. Mazkur nomning Yupiter sayyorasigasiga ko‘chirilishi hech shubhasiz qora patlari bo‘lganligi sababli emas, balki kuchi, qudrati va mahobati uchundir.

Xalq og‘zaki ijodida to‘fonni *qora el* deb nomlash ham bu fikrni tasdiqlaydi. Demak, *qora* so‘zi rang bildirishidan tashqari, “kuchli”, “katta”

ma’nosini ham ifodalaydi. Shuning uchun *Qorabotir*, *Qoraxon* kabi ismlar kuchli, qudratli kabi ma’nolarni ifoda etgan. Qadimgi turkiy tillarda bu so‘z ham rang ifodalash bilan bir qatorda boshqa ma’nolarni ham anglatgan (DLT.III.240). *Oq* so‘zi yuzasidan ham shunday fikrni aytish mumkin. A. Gafurov *oq* so‘zi ismlar tarkibida “baxt, baxtli” kabi ma’nolarni ham ifodalashini qayd qiladi¹.

Shu fakti e’tiborga olish lozimki, *qora* va *oq* so‘zlari toponimlar yo‘nalishida ham o‘ziga xos semantik xususiyatga ega. Ular ko‘plab nomlar tarkibida kuzatiladi. Buni toponimika tizimining yirik tadqiqotchilari ham qayd etgan². *Qora* so‘zi Xorazm shevalarida ko‘plik, seroblik ma’nolarini ham bildiradi.

K. Shoniyozov ham *qora*, *qizil*, *ko‘k*, *oq* kabi so‘zlarning etnik nomlar tarkibida uchrashi tasodifiy holat emasligini qayd qiladi. Uning fikricha, qadimgi davrlarda Oltoy va Janubiy Sibirda yashagan turkiy qabilalar Shimol, Janub, G‘arb va Sharqni ranglar nomi bilan ifodalagan. Qora rang shimolni, qizil rang janubni, ko‘k rang sharqni, oq rang g‘arbni, sariq rang esa markazni ifodalagan. Ma’lum bir qabila ittifoqida bo‘lgan kishilarning tomonlarga qarab joylashishi odat tusiga kirib, vaqt o‘tishi bilan tomon nomlari (rang nomlari) etnonim bo‘lib qolgan³. Shunday ekan, hozirgi vaqtida rang bildiruvchi so‘zlarning urug‘-qabila nomi tarkibida kelishi, ular o‘tmishda qutb tomonlarini aniqlash uchun qo‘llanganligidan dalolat beradi⁴.

Umuman, rang bildiruvchi so‘zlar atoqli otlar tarkibida turli ma’nolarni anglatgan. N.A.Aristovning qayd qilishicha, etnonimni ifodalovchi sariq rang Sharqda podsholar sulolasiga mansub, oqsuyak, yuqori tabaqa kishilariga nisbatan issshlatilgan⁵. N.A.Baskakov qirg‘iz etnonimining etimologiyasini tadqiq qilar ekan, uni “qizil o‘g‘uzlar” ya’ni “janub o‘g‘uzlari” deb talqin qiladi⁶. Bir faktga e’tibor qaratish kerak. Rang bildiruvchi so‘zlar onomastik guruhlarning har birida o‘ziga xos ma’no anglatadi. Misol, *qora* so‘zi antroponimlar tarkibida “kuchli,

¹ Гафуров А. “Лев и Кипарис”. – С.163.

² Дўсимов З.“Шимолий Хоразм топонимлари” филол. фанл. номзод. дисс. Тошкент, 1970. – Б.33.

³ Шанязов К. “Канг давлати ва қангликлар”, Тошкент, “Фан”, 1990. – Б.145.

⁴ Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари. Тошкент, “Фан”, 1997. – Б. 38.

⁵ Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народностей и сведения об их численности, “Живая старина”. СПБ,1896, вып. – С.309.

⁶ Баскаков Н.А. К вопросу о происхождении этнонима киргиз. “Совецкая этнография”, 1964. – С.92-93.

qudratli” ma’nosida, etnonimlar va toponimlar tarkibida tomon ma’nosida qo‘llanishi olib borilgan tadqiqotlar orqali ma’lum bo‘lgan hodisadir. Gidronimlar tarkibida ifodalangan *qora* elementi katta, serob ma’nosini (Qorasuv – kattasuv) anglatib keladi.

Xorazm dostonlari tilida *qora* elementli nomlar ham ma’lum miqdorni tashkil etadi. Bunday elemantlar turkiy tillarga masub birliklar orasida o‘ziga xos o‘rin turtadi. Mazkur element nafaqat affiksoid shaklida, balki nomning asosini tashkil qilgan holatda ham keng qo‘llanila oladi. Qora elementining yana bir jihatni nom asosining birinchi komponenti bo‘lib ham, ikkinchi komponenti bo‘lib ham qatnasha oladi.

Quyidagi misolda Qoraxon nomi tarkibida qora elementi nom asosi sifatida qo‘llailgan: “...*Qoraxonning lashkari birla andog‘ urushdilarkim, Rustam Mozandaronda, Afrosiyob daryoi Nil va Zarafshonda andog‘ urush qilg‘on ermaslar...*” (“Oshiqnama”, 4-kitob, “Xirmondali” dostoni (kitobiy variant), 145-bet). Go‘ro‘g‘li dostonida *Qoradev* nomi tarkibida ham nomning yetakchi birligi sifatida qo‘llaniladi: “...*Kun peshin bo‘lgan pillada Qoradev Qoratulporini minib, chor-atrofni qop-qora tuman qilib, osmon-u zaminni titratib, ko‘prikka kelib qoldi...*” (“Go‘ro‘g‘li”, 2-kitob, “Avaz o‘g‘lonning Rumga qochishi” dostoni, 259-bet).

Yuqorida keltirilgan misollarda qora elementi nomning yetakchi komponenti bo‘lib kelishidan tashqari, asosan, salbiy ottenkalarni ifodalashga, qora rang bilan bog‘liq badiiylikni bo‘rttirishga xizmat qilmoqda. Ammo quyida ushbu so‘zning ijobiy ottenkalarda ishlatalgan o‘rinlarini kuzatamiz:

...*O‘ng yonimda turdi ul Vaysulqora,*

Kuloh kiygan ul Norimjon ko‘rindi... (“Oshiqnama”, 2-kitob, “Oshiq Alband” dostoni, 172-b); yoki:

...*Uch yuz oltmis avliyolarning manzili,*

Sulton Uvays birla Norimjon vali... (“Oshiqnama”, 2-kitob, “Oshiq Alband” dostoni, 203-b) va boshqalar.

Turkiy qatlmga xos oq elemnti ishtirok qilgan kishi nomlaridan yana biri “*Oqcha*” nomidir. Bu nomning kelib chiqishini fors-arab tillaridan emasligi darhol seziladi va bu xato bo‘lib chiqmaydi. Bu nom “*Aqcha*”, “*Aqchagul*” kabi variantlarda “Oshiqnoma” turkumidagi, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonida qo‘llaniladi. Mazkur nom turkman versiyalarda “*Aqja*” shaklida qo‘llaniladi. Bu ism egasining asl ismi Gulnihol bo‘lib, “*Oqcha*” nomi uning laqabi hisoblanadi.

Dostonlar matnidan o‘rin olgan quyidagi parchalarga diqqatni qarataylik:

...Ammo *Shohsanamning Gulnihol degan bir kanizi bor erdi, laqabini Aqcha der erdilar...* (“Oshiqnoma” turkumi. 2-kitob. “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, 26-bet).

Yoki: ... *Shohsanam Aqchaga qarab bir so‘z aytdi:*

Aqcha galin g‘amsiz boshim, G‘amxona bo‘ldi naylayin?

Bir so‘z bilan oshno yorim, Begona bo‘ldi naylayin?... kabi.

Oqcha/Aqcha laqabi uning oq yuzli ko‘rinishi sababli qo‘yilgan bo‘lishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda turkiy so‘zlarning xususiyatlari haqida gapirilganda, qisqa bo‘g‘inli so‘zlarning turkiy bo‘lib chiqishi haqida aytildi. Xususan, sifat turkumiga oid rang-tus bildiruvchi ko‘pgina so‘zlar, jumladan, oq, sariq, ko‘k, qora kabilar shubhasiz turkiy qatlamga oid so‘zlardir. Shunday ekan, “*Oqcha*” nomini, xususan, nomning birinchi tarkibiy qismi hisoblangan “oq” elementini hech ikkilanmay turkiy tillarga mansub birlik sifatida qarash mumkin.

Mazkur nom tarkibida mavjud bo‘lgan yana bir element forsiy tillarga aloqador bo‘lgan **-cha** affiksi bo‘lib, bu element nom tarkibiga singib ketgan deb hisoblash mumkin. Ma’lumki “oq” leksemasi aslida sifat turkumiga taalluqli bo‘lib, u kichraytirish-erkalash affiksini olishi mumkin emas. Mabodo nom tarkibida bu element mavjud ekan, bu holatni bir necha lisoniy hodisalarining ma’lum ketma-ketlikda ro‘y berib o‘tganligi bilan izohlash mumkin. Birinchidan, sifatning atoqli otga o‘tishi uchun avval substanslashish jarayoni, keyin nomga aylanishi va undan keyin esa **-cha** elementini qabul qilishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Yuqoridagi holatda ana shu jarayonlar sodir bo‘lgan deb qarash mumkin.

Ushbu element nomga yana bir ma’no nozikligini, xususan, erkalash-kichraytirsh ottenkasini qo’shish uchun xizmat qilmoqda deb hisoblash, bizning nazarimizda, to‘g‘riroq bo‘ladi.

3.2. O‘zlashgan qatlamga oid birliklar haqida

Xorazm dostonlari tilidagi arabiyligi tillarga oid kishi ismlarini tuzilishi, tarkibidagi elementlari nuqtayi nazaridan ham tahlilga tortish mumkin. Bunday nomlrning ko‘pchilagini hozirgi kunda kishilar bir necha qismlardan iborat ekanligini sezmasligi mumkin. Ana shuning uchun ham dostonlarimiz matnlarida uchraydigan arabiyligi qatlamga xos kishi ismlarini komponent tahlil qilish orqali ularning strukturasiga aloqador qo’shimcha unsurlarni tekshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xorazm dostonlari atoqli otlar tizimidagi arabiyligi asosga ega bo‘lgan onomastik birliklar orasida sodda tarkibli nomlar foiz jihatidan ozchilikni tashkil qilsa ham, ma’lum darajada o‘ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Nomlarning sodda yoki qo’shma (ba’zan murakkab) tarkibga egaligini baholashda muayyan qiyinchiliklarga duch kelinadi. Murakkablik shundan iborat bo‘ladiki, birinchidan, nomning tarkibini yuzaga keltirayotgan birliklarning tarkiblarga ajralishi masalasi qaysi nuqtayi nazaridan belgilanishiga bog‘liq holatlat talaygina. Ikkinchidan, nomning tarkiblarga ajralishi yoki ajralmasligi qaysi qatlam nuqtayi nazaridan baholanishi kabilarda tekshiruvchi uchun ma’lum bir prinsiplarni belgilab olish talab etiladi.

Biz ushbu bo‘limda arabiyligi asoslarga ega bo‘lgan, nom strukturasiga aloqador qo’shimcha birlikni nomning semantikasiga qanday o‘zgarish qo’shib turganligiga qarab xoh tarixiy (dioxron) jihatdan bo‘lsin, xoh hozirgi (sinxron) jihatdan bo‘lsin barcha unsurlarni (asosdan tashqari) tahlil ostiga olishni maqsad qilganmiz.

Luqmon. “Oshiq Alband”dostonida Hazrati Luqmon shaklida qo’llaniladi:

...Dardga davo etgan hazrati Luqmon,

Dod etarman parizodning alinnan... (“Oshiqnoma” 2-kitob, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, 183-b).

Qadimgi arab mifologiyasida Luqmon nomi bilan mashhur bo‘lgan ikkita shaxs tiga olinadi. Ulardan biri Luqmon ibn Od deb yuritilgan. Afsonaga ko‘ra, qadimiylar Arabistonda yashagan Od xalqi Ollohnинг g‘azabiga uchrab, qurg‘oqchilikka duchor bo‘ladi. Xalq bu ofatdan qutilish uchun o‘z vakillarini Makkaga yomg‘ir so‘rab duo o‘qish uchun yuboradi. Ularga Luqmon boshchilik qiladi va Ollohdan o‘ziga uzoq umr tilaydi. Olloh unga yetti burgut umriga teng uzoq umr ato etgan. Ikkinchi Luqmon Qur’onda tilga olinadi (31-Luqmon surasi). Luqmon al-Hakim sifatida qayd etilgan bo‘lib, donishmand va yakkaxudolikning targ‘ibotchisi sifatida tavsiflanadi. Islom afsonalaridagi ko‘pgina aforizm, maqollar, hamda masallar, shuningdek, musulmon xalqlarining folklor asarlarida Luqmon nomi juda mashhur bo‘lgan. O‘rta Osiyo xalqlari orasida Luqmon buyuk hakim va hakimlarning piri deb tan olinadi. Shuningdek, Luqmon so‘zi dono, bilimdon shaxs ma’nosini ham anglatadi. Luqmon so‘zi arabcha (halol luqma) “boquvchi” degan ma’noni bildiradi.

Bahovuddin. “Oshiqnoma” turkumiga kiruvchi “Oshiq Alband” dostonida uchraydi.

*...Bag ‘rim uzra bordur maning bir nishon,
Duo qilsin dedi ul Shohimardon,
Abu Bakr, Siddiq ul Umar, Usmon,
Bahovuddin sarmast buzrug ko‘rindi¹...* (“Oshiqnoma” 2-kitob, “Oshiq Alband” dostoni, 172-b).

To‘liq ismi Said Muhammad ibn Jaloliddin (1318 – 1389) bo‘lib, naqshbandiylik tariqatining asoschisidir. Buxoro yaqinidagi Hinduvon (hozir Qasri Orifon)² qishlog‘ida tug‘ilgan va shu yerda vafot etgan. U yog‘och va metallarga naqsh berish kasbi bilan shug‘ullangani sababli unga Naqshbandiy taxallusi berilgan. Bahovuddin yoshligidayoq so‘fiylik yo‘liga kirgan. Ustozi Mir Said

¹ Ro’zimbayev S. Oshiqnoma. 1-kitob, Xorazm nashriyoti. 2006. –B. 172.

² Nasafiy (E.E.Berezikov). Hazrat Bahovuddin Naqshbandiy. Tarjimon Mahkam Andijoniy –T: Meros, 1992. –B. 100.

Kulol ta'sirida o'z tariqatini yaratdi. U islomni tozalash, ilk holiga qaytarish g'oyasini ilgari surgan. U o'zini Muhammad payg'ambar avlodidan bo'lgan mashhur Murshid deb tanitgan. Bahovuddinning ayrim qarashlari so'fiylikning boshqa vakillari, xususan, Ahmad Yassaviy qarashlaridan farq qiladi. U ham Yassaviy singari faqirlikka, kambag'allikka undaydi, lekin xayr-ehson hisobiga emas, balki faqat o'z mehnati evaziga kun kechirish g'oyasini yoqlaydi. "Dil ba yoru, dast ba kor" ya'ni, dil, qalb yor (xudo) bilan, qo'l mehnat bilan band bo'lishi g'oyasini ilgari suradi.

Bahovuddin so'fiylikni targ'ib qilib Arabiston, Eron va O'rta Osiyoning ko'p shaharlarida bo'lgan. Uning nomi ilohiyashtirilib, u haqda turli rivoyat-u afsonalar to'qilgan. Ularga ko'ra, go'yo uning qabrini ziyorat qilgan kishi haj qilganlik savobini olar ekan. Hozirgi kunda ham bu tasavvurning ta'siri saqlangan. Dindorlar uni "balogardon", ya'ni "balolarni daf qiluvchi" deb biladilar. Xalq dostonlarida ham uning obraz shu tariqa talqin qilinadi.

Shunday nomlardan yana biri "Ali" nomi hisoblanadi. Ali tarixda yashagan mashhur kishilardan biri bo'lib, u payg'ambarimizning kuyovi bo'lgani va islom olamida o'ziga xos martabaga ega bo'lganligi haqida ko'pgina ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Alining to'liq ismi Ali ibn Abu Tolib bo'lib, u haqida xalq orasida juda ko'plab rivoyatlar va afsonalar to'qilgan, bu esa o'z navbatida xalq og'zaki ijodiga mansub ko'plab asarlarda o'z izini qoldirmasdan iloji yo'q edi. Uning *Hasan* va *Husan* nomli egizak o'g'llari – payg'ambarimizning sevimli nevaralari hisoblanadi¹.

"Oshiqnoma" turkum dostonlaridagi atoqli otlarning qo'shma tarkibli turlari ichida ko'pchiligi erkak jinsli kishilarga qo'yilgan nomlar bo'lishi bilan birga, ayrim nomlar xotin-qizlar, payg'ambarlarning rafiqalari, afsonaviy parilar, devlar kabilarga tegishlidir. Masalan, "*Hashtiruh*" nomi "Oshiqnoma" turkumidagi "Hurliqo va Hamro" dostonida uchraydi. Tarkib jihatidan ikki

¹ Irisov A.Chahoryorlar. Toshkent. Fan.1993-yil. –B. 48.

qismidan iborat bo‘lgan bu nom dev nomi sifatida sifatida talqin qilinishi quyidagi misoldan ham sezilib turibdi:

... anda **Hashtiruh** dev bayakbor devning orqasidin havog‘a chiqib, Amud urdi ikki dev urushg‘a mashg‘ul bo‘ldi... (“Oshiqnoma” 2-kitob, “Hurliqo va Hamro” dostoni, 121-b).

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Xorazm dostonlarida uchraydigan sodda va qo‘shma tuzilishga ega bo‘lgan nomlarning tarkibiy jihatlarini tahlil qilish o‘zbek tili va uning onomastika sohasini yanada qiziqarli ma’lumotlar bilan boyitishi mumkin.

3.2.1. Arabiy qatlamga oid birliklar

Arablar tomonidan O‘rta Osiyoning bosib olinishi va ularning uzoq davom etgan xukmronligi, hamda bu erda yashovchi xalqlarning asrlar davomida islom dini ta’sirida bo‘lishlari mahalliy aholi tiliga, ayniqsa, uning leksikasiga arab so‘zlarining singib ketishiga sabab bo‘lgan.

Arab tiliga xos so‘zlar O‘rta Osiyo xalqlari tiliga yozma adabiyot orqali, asosan, eroniy tillardagi adabiyot orqali o‘tgan¹. Tarixan arab tilidan o‘tgan so‘zlearning ayrimlari o‘zlashib, hozirda boshqa tildan o‘tganligi sezilmas darajaga kelib qolgan. Professor F.Abdullaevning qayd qilishicha, “biz bunday so‘zlarni tamomila o‘zlashtirib, o‘z so‘zimizdek turlayveramiz, yasovchi qo‘shimchalar vositasi bilan ulardan yangi so‘zlar yasaymiz”²

Xorazm dostonlari onomastikasida arabiya asosga ega bo‘lgan nomlar katta ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ayniqsa, arab tilidan kirgan kishi nomlari (antroponimlar) salmoqli o‘rinni egallaydi. Ma’lumki, har qaysi tarixiy davr o‘zining moddiy hamda ma’naviy ehtiyojlari, talablaridan kelib chiqqan holda nom tanlash tamoyillarini vujudga keltiradi. Islom dinining tarqalishi va xalq shuuriga singishi bu erda yashovchi xalqlar ma’naviy hayotining barcha sohalarida bo‘lgani kabi, bolaga ism berish odatlariga ham katta ta’sir ko‘rsatdi.

¹ Мадрахимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. – Б.41-42.

² Абдуллаев Ф. Ўзбек тили лексикасининг баъзи бир масалаларига доир. Тил ва адабиёт институти асарлари . 1-китоб, Тошкент, 1948. – Б.89.

Shu sababli ham, dostonlarda uchraydigan kishi nomlari fondining tarkibiy qismlaridan birini diniy ma'noli, asli arabcha bo'lgan nomlar tashkil qiladi. Alloh taolo nomi ishtirok etadigan ismlarning katta bir guruhining oxiri *-ulla* (*-ulloh*, *-alloh*) komponenti bilan tugaydigan nomlar tashkil qiladi. Ularda Allohnini turli tomonlama ta'rif qilish, shuningdek, farzandli bo'lishni yaratganning irodasiga bog'lash, unga shuning uchun shukronalar qilish, farzandning borlig'i, kelajagi, istiqbolini tangrining xohish-irodasi deb anglash kabi aqidalarini ko'rish qiyin emas:

Abdulla ("Oshiq G'arib va Shohsanam", "Go'ro'g'li") – Ollohnining quli, bandasi;

Abduqodir ("Go'ro'g'li") – mislsiz kuch va qudrat sohibining (xudoning) quli;

Ahmadbek, Ahmadsardor ("Go'ro'g'li") – Allohgaga ko'p hamd qiluvchi;

Ibn Hojib ("Go'ro'g'li") – *Hojibullo* shakli ham mavjud bo'lib, Ollohnining qo'riqchisi, xizmatchisi, Alloh yo'lida xizmat qiluvchi kabi ma'nolarni bildiradi;

Ibn Salom ("Oshiqnama") Alloh najotkori, xaloskori bo'lgan bola;

Karam dali // *Karam o'g'lon* ("Go'ro'g'li") "karam" – Ollohnining sifatlaridan biri bo'lib, bag'ri keng, saxovatli ma'nolarini bildiradi;

Karimberdi ("Xirmon dali") "Karim" – Olloh sifati, Karimberdi – Ollohbergan ma'nosida;

Rahmon ("Zulfizar", "Oshiq Alband") Olloh taoloning sifatlaridan biri bo'lib, *al-Rahmon* – rahmli, o'ta mehribon ma'nosida. Zamonaviy antroponimlar tizimidagi *Abdurahmon*, *Rahmonberdi*, *Rahmonberdi* kabi nomlar tarkibida ham ushbu komponent faol qo'llaniladi;

Sayfullo ("Zulfizar") – Allohnining qilichi, shamshiri yoki Allohnining o'tkir, jasur bandasi;

Sattor ("Oshiq Alband") – kechiruvchi degan ma'noda bo'lib, bu ism ham Olloh sifatlaridan biri;

Shaydullo(h) ("Go'ro'g'li") – Allohnining go'zal, xushsurat bandasi;

Qahhor (“Miskin va Gulqand”) – barchani bo‘ysundiruvchi, g‘olib ma’nolarida bo‘lib, Olloh sifatlaridan biri. Bu qism *Abduqahhor* ismi tarkibida ham qatnashib, barchani mag‘lub etuvchining, doimo g‘olibning (Ollohnning) quli ma’nosini anglatadi. Yuqorida keltirilgan misollardan ma’lum bo‘ladiki, dostonlardagi nomlarning ko‘pchiligi Allohning sifatlari asosida vujudga kelgan.

Xorazm dostonlarida uchraydigan ayrim nomlarning o‘ziga xosliklaridan biri ularga sodda yoki qo‘shma deya olishimiz uchun qaysi nuqtayi nazardan qarashimizga bog‘liq bo‘ladigan turlari ham mavjudligidir. Shunday nomlardan biri “*Abdulla*” ismi bo‘lib, bu nom etimologik jihatdan arab tiliga oidligi ko‘pgina ilmiy adabiyotlardan bizga ma’lum. Tarixan ikki qismdan “*abd*” va “*ulloh*” (Alloh) qisimlaridan iborat, biroq hozirgi o‘zbek adabiy tili jihatidan mazkur nom qo‘shma tarkibli deb hisoblanmaydi, chunki bugungi kunda uning tarkibi o‘zbek tili uchun yaxlitlanib qolgan va bir qismli sodda nom shaklida baholanishi mumkin deb o‘ylaymiz. Quyidagi misolga e’tibor qilaylik:

... *Andin so‘ng Shoh Abbos aytdi: Mening qizima ko‘p malomat bo‘ldi, dedi. Abdulla degan bir yigitni qirq kishi birla buyurdi...* (“Oshiqnama” 2-kitob, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, 49-b).

Ushbu parcha “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonidan olingan. Boshqa turkum dostonlarda, xususan, G‘o‘ro‘g‘li turkumida ham bu nom uchraydi, biroq u yerda bu nom tarixiy shaxslarga nisbatan ishlatiladi. “Oshiqnama” turkumidagi dostonlarda esa asarning oddiy qahramoni sifatida keltirilganiga yuqorida guvoh bo‘ldik. Bulardan tashqari, *Abdulqodir*, *Bahouddin* (xalq tilida Bahovaddin shakli ham mavjud) ismlari ham hozirgi o‘zbek tili uchun yuqoridagi kabi arabiyl tillarga aloqador bo‘lgan sodda tarkibli nomlar sifatida baholanishi mumkin.

Xorazm xalq dostonlarida bulardan tashqari bir qator payg‘ambarlarning nomlari uchraydi. Jumladan, *Zakariyo* (“Olloho ni yod etuvchi” ma’nosida), *Is’hoq* (“kulgi, kulish, kulmoq”), *Lut* (“yopishib olmoq”), *Nuh* (“yupatuvchi”), *Yoqub* (“izidan boruvchi”), *Yusuf* (“orttirish, qo‘shish”), *Yunus* (“baliqlar sohibi”), *Yahyo* (“hammadan buyuk”) va boshqalar.

Mazkur nomlarning ko‘pchiligi Xorazm xalq dostonlarida oddiy kishilarning ismi sifatida ham qo‘llaniliadi. Dostonlar onomastikasida uchraydigan payg‘ambarlar nomi qadimgi yozma manbalarda uchraydigan anbiyolar ismlari bilan o‘xshashdir. Hozirgi kunda dostonlarda ham, shuningdek, xalq orasida ham eng ko‘p qo‘llanadigan ism *Muhammad* ismidir. Quyida shu haqda so‘z yuritamiz.

***Muhammad*.** Ko‘plab dostonlarda uchraydi va uning yordamida ko‘plab ismlar hosil qilingan. Jumladan, “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kirgan “Ro‘zaxon” dostonida uchraydi.

...Yuz yigirma to‘rt ming o‘tgan payg‘ambar,

Bariga Muhakmmad Mustafo sarvar¹...

Qur’oni Karimda va qadimgi diniy kitoblarda uning ismi Ahmad deb keltiriladi. Hadis kitoblarida payg‘ambarimizning o‘zлari ismlarini *Muhammad*, *Ahmad*, *Mahmud* hamda *Hamid* deya tilga oladi. Aslida bularning barchasi arabcha hamida (محمد) so‘zidan hosil qilingan bo‘lib, “maqtaluvchi”, “Allohga ko‘p hamd aytuvchi” degan ma’noni anlatadi². Bu so‘zlar bir tushunchani ifodalasa ham, ma’no ottenkalari bilan farqlanadi. Misol: *Ahmad* – Allohga ko‘p hamd aytuvchi; *Hamid* – maqtovga sazovor; *Mahmud* – maqtalgan; *Muhammad* – maqtaluvchi kabi. Islom ta’limotini sharhlashga bag‘ishlangan adabiyotlarda yozilishicha, “Alloh Taoloning 99 ismi (sifati) bo‘lgani kabi janob Payg‘ambarimizning ham 99 nomlari bor”³.

Shu kabi arabiylardan aloqador ismlarning bir qanchasi xalq dostonlari qahramonlarining nomlari sifatida ham uchraydi: *Ahmadbek*, *Ahmadsardor* (“Go‘ro‘g‘li”), *Mahmudjon* (“Arab tang‘an”), *Tohir* (“Avaz gatirgan”), *Said* (“Go‘ro‘g‘li”), *Said Muhammad* (“Miskin va Gulqand”), *Saydali* (“Shoqalandar”), *Rasul* (“Xirmondali”), *Najab* (“Oshiq Najab”), *Mansur Xalloj* (“Oshiq G‘arib va Shohsanam”), *Nazirbek* (“Oshiq Alband”), *Nurali* (“Go‘ro‘g‘li”), *Nuraziz* (“Edigo”), *Muxtor* (“Miskin va Gulqand”), *Abulqosim Qurayshi* (“Malikai

¹ Г-2. – Б.355.

² Арабско-русский словарь. – Б.194.

³ Имом ат-Термизий. Шамойили Муҳаммадия. Тошкент: Мехнат, 1991. – Б.87.

Zavriyo”), *Siddiq* (“Go‘ro‘g‘li”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”), *Rahim* (“Shahriyor”), *Rahimberdi* (“Edigo”) va boshqalar.

Dostonlar onomastik tizimida *Halifayi barhaqlar (choryorlar)* Abu Bakr, Siddiq, Umar, Usmon, Alilarning nomlari yoki ularning nomlari ishtirok etgan ismlar ham ko‘p uchraydi.

Bulardan tashqari arabiy asosli nomlar orasida diniy mazmun kasb etmaydigan, arab tiliga xos leksik birliklardan yasalgan atoqli otlar ham mavjud. Bu nomlarga asos bo‘lgan so‘zlar o‘zbek tili va umuman turkiy tillar leksikasidan muhim joy olgan birliklardir. Chunki, ilmiy adabiyotlarda qayd qilinishicha, arab tilining o‘zbek tiliga ta’siri bir necha faktorlar asosida sodir bo‘lgan. Bir tomonidan, zabit qiluvchilarning og‘zaki so‘zlashuv tili bilan, ikkinchi tomonidan, arab yozma adabiy tili bilan to‘qnashdi. Arab tili mahalliy aholiga davlat va fan tili, ayniqsa din tili sifatida majburan o‘qitildi va singdirildi¹.

Natijada arab tilidan o‘zbek adabiy tiliga, qisman o‘zbek xalq shevalariga arabcha so‘zlar kirib keldi. Ularning ba’zilari antroponimlar va toponimlar sifatida dostonlar onomastikasida uchraydi: *Avaz* (“Go‘ro‘g‘li”turkumi), *Asadalixon* (“Sayyodxon va Hamro”), *Amud* (“Hurliqo va Hamro”), *Asil* (“Asil va Karam”), *Bakir* (“Oshiq G‘arib va Shohsanam”), *Bilol* (“Xirmondali”), *Vali do‘nik* (“Go‘ro‘g‘li”), *Vomiq* (“Go‘ro‘g‘lining o‘limi”), *Vays//Uvays* (“Miskin va Gulqand”), *Vafobek* (“Yusuf va Ahmad”), *Davron* (“Go‘ro‘g‘li”), *Diyorbakir* (“Oshiq G‘arib va Shohsanam”), *Ja’far podsho* (“Go‘ro‘g‘li”), *Zamon* (“Go‘ro‘g‘li”), *Zayd* (“Oshiqnoma” turk.), *Zaynab momo* (“Xiromon pari”), *Ka’ba* (“Go‘ro‘g‘li”), *Kamoljon* (“Sayyodxon va Hamro”), *Karam dali* (“Qirq minglar”), *Layli* (“Oshiq G‘arib va Shohsanam”), *Luqmon* (“Oshiq Alband”), *Madina* (“Roi Chin”), *Marayim* (“Go‘ro‘g‘li”), *Malik* (“Malikai Zavriyo”), *Majnun* (“Shoqalandar”), *Mutal* (“Chortoqli Chambil”), *Munavvarsulton* (“Xiromon pari”), *Muxtor* (“Miskin va Gulqand”), *Nasriddin* (“Go‘ro‘g‘li”), *Nurali* (“Ahmad sardorning o‘limga buyurilishi”), *Odilshoh* (“Oshiq G‘arib va Hilola pari”), *Omon* (“Arab tang‘an”), *Oqilpari* (“Balogardon”), *Olimjon* (“Malikai Zavriyo”), *Robiya*

¹ Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Б.110.

(“Erhasan”), *Rahmatulla* (“Yunus bilan Misqol”), *Said* (“Go‘ro‘g‘lining o‘limi”), *Safar* (“Go‘ro‘g‘li”), *Sayodxon* (“Sayodxon va Hamro”), *Safo* (“Qirq minglar”), *Said* (Go‘ro‘g‘lining o‘limi), *Tohir* (Avaz gatirgan), *Usmon*, *Umar* (“Ro‘zaxon”), *Farhod* (“Avazxon”), *Fotima* (“Edigo”), *Shams* (“Avazning o‘g‘lonning Rumga qochishi”), *Qamar* (“Go‘ro‘g‘li”), *Hasan* (“Hasanxon”), *Husan* (“Oshiqnoma”) va boshqalar.

3.2.2. Forsiy qatlamaq oid birliklar

Turkiy xalqlar tili juda qadim davrlardan buyon O‘rta Osiyoda azaldan yashab kelgan eroniy tillar bilan aloqada bo‘lib kelgan. Manbalarda ta’kidlanishicha, O‘rta Osiyo, xususan, hozirgi O‘zbekiston hududida turkiy tilda gaplashuvchi aholi ham qadimdan yashagan. So‘nggi davr tadqiqotlarida “o‘zbeklar ikki xil tilda so‘zlashuvchi – sharqiy eroniy va turkiy qabila va elatlarning qorishuvidan tarkib topgan etnosdir” – deya ta’kidlanadi¹. Shunday ekan, hozirgi turkiy tillar va o‘zbek tilida uchrovchi so‘g‘d, xorazmiy tillari elementlari qadimiylarida yuz bergan tillararo aloqalar natijasi deb qaralmog‘i kerak.

Eroniy tillarning izlari, ayniqsa, xorazm shevalari leksikasida juda sezilarlidir. Prof. O.Madrahimovning qayd qilishicha, “eroniy tillar o‘zagiga aloqador bo‘lgan leksik qatlama Xorazmdagi o‘g‘uz shevalari leksikasining organik qismiga aylanib ketgan. Ular kundalik hayotda ko‘p ishlataladigan zarur va muhim tushunchalarni ifodalovchi so‘zlardir.”² Ular sheva vakillari tilga shu darajada singib ketganki, hatto, bu elementlar boshqa til oilasiga mansub ekanligini payqash ham ancha mushkul. Buning asosiy sababi, Sh.Shoabdurahmonov qayd qilganidek, “forsiy so‘zlar o‘zbek tili va shevalariga adabiyot orqali kirmadi, balki xalqlarning asrlar davomida birga, hamkor hayot kechirgani, bevosita munosabatida o‘zaro bo‘lgan zarurat tufayli kirgan”³.

¹ Аскаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. –Тошкент: Университет, 2007. – Б.235.

² Мадрахимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. –Тошкент: Фан, 1973. – Б. 49.

³ Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. –Тошкент: Фан, 1962. – Б.222.

Dostonlar tili ko‘proq so‘zlashuv tiliga yaqin bo‘lganligi sababli, ularda ham shevaga xos xususiyatlar to‘la saqlangan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, onomastik birliklar hamgarchi boshqa tillardan o‘tgan bo‘lsa-da, mavjud sheva vakillari tiliga moslashgan. Quyida dostonlarimiz antroponimik tizimida uchraydigan eroniy tillarga xos affiksoidlar haqida to‘xtalamiz.

Gul affiksoidi. Mazkur affiksoid Xorazm dostonlaridagi kishi ismlari tarkibida uchraydigan eng faol birliklardan sanaladi. Ushbu komponent kishi nomlari yasashda juda faol bo‘lib, dostonlar onomastik tizimidagi ko‘plagan nomlar tarkibida uchraydi: Gulasal (“Yusuf va Ahmad”), Gulrux, Gulruxpari, Gulruxsor (“Avaz uylangan”), Gulandom (“Go‘ro‘g‘li”), Gulshirin (“Arab tang‘an”), Gulixiromon, Gulshan (“Xirmondali”), Guljon, Gulqiz, Gulnoz (“Gulqizoy”), Guljamila, Gulsarvi (“Edigo”), Gulchehra (“Oshiq Alband”), Gulchaman (“Oshiq Najab”), Gulsutun (“Shahriyor”) va boshqalar.

Ushbu affiksoidning gender jihatdan universallik xarakteri mavjudligini oldingi boblrda ham tilga olib o‘tganmiz. Mazkur element ko‘p hollarda ismning yordamchi komponenti bo‘lib keladi, ya’ni uning yolg‘iz o‘zi ism hosil qilishda kam qo‘llaniladi. Masalan,

...Gulnihol der: yondi jonim,

Falak bosdi ustixonim,

Azbarxo ‘ja mehribonim,

Yuragimda dog‘lar qoldi... (“Oshiqnoma” 2-kitob, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostoni, 40-b). yoki: “...*Go‘r‘o‘gli sulton pulni ikki bo‘lakka bo‘lib, yarmini bozorlik deb, Guloyimga, yana bir yarmini kiyim-kechaklik deb, Boloyimga berib...*” (“Go‘ro‘g‘li”, 2-kitob, “Avazxon” dostoni, 130-bet) kabilar. Ushbu parchalardagi nomlar tarkibidagi *Guloyim*, *Gulnihol* singari ismlarda *gul* elementi nomning tarkibiy qismi bo‘lib qo‘llanilayotgan bo‘lsa,

... Farrux shohni qizi, otimiz Guldir,

G‘aming birla shaydo bo‘lg‘on bulbuldur,

To o‘lguncha qolay iqroram shuldir,

Fahm aylasang ul makondan bo ‘lurman... (“Oshiqnoma” 3-kitob, “Gul va Sanobar” dostoni, 233-b) singari o‘rinlarda gul komponenti kam hollarda bo‘ladigan yakka holda ism hosil qilganligini ko‘ramiz.

O‘rta Osiyo xalqlarining deyarli barcha tillariga taalluqli bo‘lgan ushbu element nomning asosi bo‘lib kelishi, shuningdek, ismga qo‘shilib ham kelishi mumkin: Donogul (“Donogul”), Ko‘kgul (“Edigo”), Lolagul (“Gul va Sanobar”), Novgul (“Sayod va Hamro”), Oygul (“Avaz”), Oqchagul (“Yunus va Misqol”), Olmagul (“Zulfizar”), Sarvigul (“Xandon botir”), To‘tigul (“Go‘ro‘g‘li”) va boshqalar.

Bonu affiksoidi. Ushbu eroniy tillarga xos bo‘lgan element dastlab grammatik ma’no ifodalagan. Ma’lumki, eroniy tillarda turkiy tillardagi kabi jins ifodalovchi grammatik ko‘rsatkich yo‘q. Shu sababli, jins ma’nosi leksik usulda, ya’ni so‘zlar yordamida ifodalangan. Jumladan, qadimgi Eronda davlat boshqaruvchi, hukmdor *xshatradora* so‘zi bilan yuritilgan. *Xshatra* qadimgi fors tilida “davlat, hokimiyat” degan ma’noni bildirgan.(yangi fors tilidagi shaxr “shahar” so‘zi ham ushbu o‘zak bilan bog‘liq). *Dora* (yangi fors tilida – “dor”) “egallovchi” (rus. obladatel) demakdir. Shunday ekan, *xshatradora* “hokimiyat egasi” degan ma’noni anglatadi. Keyinchalik, hozirgi fors tilida *shahriyor* shakliga kelgan, bu so‘z ayni vaqtida unvon ma’nosida ham qo‘llangan. *Shahriyor* ning xotini esa *Shahribonu* maqomini olgan. Qishloq hokimi *katxudo* deb yuritilsa, uning xotini *katbonu*, ya’ni “qishloq bekasi” (aynan, uy bekasi) deb atalgan.

Umuman, dastlab *bonu* elementi mustaqil qo‘llanmagan, u ayollar ismini hosil qilish uchun xizmat qilgan. Masalan, eroniylarda *Gavhar* ismi erkak kishilar nomi sifatida mavjud bo‘lgan, unga bonu komponenti qo‘shilgach ayol nomi *Gavharbonu* hosil bo‘lgan. Dastlab *bonu* elementi yuqori tabaqa ayollari ismigagina qo‘shilgan, keyinchalik barcha toifa vakillari nomiga qo‘shib ishlatish odat tusiga kirgan.

Ushbu komponent Xorazm dostonlarida ham qo‘llanilgan. “Xiromon pari”, “Sayodxon va Hamro” dostonlarida *Bonu* so‘zi mustaqil holda ism sifatida qo‘llangan: ...*Ammo qizlarning ichinda ikki kaniz bor erdi, birining oti Bonu, yana*

birining oti Lizon erdi... (“Oshiqnama” 2-kitob, “Xiromon pari” dostoni, 318-b). Mazkur element “Malikai Zavriyo” dostonida *Shahribonu* shaklida qo‘llanilgan: ...*So ‘najonning bir kanizi bor erdi. Otig ‘a Shahribonu der erdilar...* (“Oshiqnama” 1-kitob, “Malikai Zavriyo” dostoni, 301-b). Umuman, eroniy asosli nomlar haqida so‘z borar ekan, ular dostonlar onomastikasida uchraydigan eng qadimgi nomlar sifatida qayd qilinishi lozim deb hisoblaymiz. Bunday nomlarning ayrimlari “Avesto” kitobida, Firdavsiyning “Shohnoma” asari kabi qadimeroniy manbalarda ham uchraydi.

Gir affiksoidi. Xorazm dostonlarida uchraydigan forsiy qatlamga oid affiksoidlardan biri **gir** affiksoidi hisoblanadi. Mazkur element forsiy tillardagi “giriftan” olmoq, ushiamoq ma’nolaridagi so‘z bo‘lib, dostonlar tilidagi ayrim nomlarning tarkibiy qismi sifatida ishtirok qilgan. Shunday kishi ismlaridan biri **Ajdargir** ismidir. Ushbu nom “Shahriyor” dostonida uchraydi: ...*ondin so ‘ng podsho Ajdargirning qizi Guliston parini yetti kecha-kunduz to ‘y-tomosha qilib oldi...* (“Oshiqnama” 2-kitob, “Shahriyor” dostoni, 348-b). Mazkur nom ikki qism (ajdar+gir)dan iborat bo‘lib, bиринчи qismi qadimeroniy manbalarda “aji dahoka” shaklida qo‘llanilgan. “Azdahok”, forsiyda –“ajdaho va zahhok” shakllarida tilga olinadigan uch boshli, uch tumshuqli, hamda dunyoni odamlardan holi qilgudek kuchga ega olti ko‘zli ajdaho nomi.

Gir elementi ishtirok qilgan nomlar Xorazm dostonlari tilida nafaqat kishi ismlari tarkibida, balki ayrim hayvon nomlari tarkibida ham kuzatiladi. Masalan, **Ajdargir** (“Shahriyor” dostoni, kishi nomi, 348-b), **Halifayi Jahongir** (“Oshiq Alband” dostoni, kishi nomi, 172-b), **Shabgir** (“Erhasan” dostoni, kishi nomi, 193-b) kabilar kishi ismlari bo‘lsa, **Aspi Jahongir** (“Xiromon pari” dostoni, ot nomi, 401-b), **Morgir** (“Yusuf va Ahmad” ot nomi 14-b) kabi nomlar zoonimlar toifasiga kiritiladigan nomlardir.

Misol: **Shabgir** antroponimi. Nomning tarkibidagi *shab* forschada – tun, *gir* – olmoq ma’nolaridagi leksemalar bo‘lib, “tunning egasi”, “oqshomning xo‘jayini” kabi ma’nolarda nomlash funksiyasini bajarib turibdi. “Erhasan” dostonidan olinga parchada shu nom qo‘llaniladi: “...*Ikkisi darvozaga borib doxil bo ‘ldilar.*

Darvozada Shabgir degan bir qul turgan ekan. Erhasan darvozani och deb, bir she'r boshladi..." ("Oshiqnoma" 4-kitob, "Erhasan" dostoni, 193-b).

Ushbu nom real antroponimik tizimga mansub nom emas, doston aytuvchining bilimi, saviyasi, topqirligi kabilar yordamida to'qib chiqarilgan sun'iy nom hisoblanadi. Bunday nomlash tamoyili folklore asarlari, xusuan, dostonlar leksikasida keng qo'llaniladigan usullardan hisoblanadi. Baxshi yoki jirov dostonning muayyan o'rnida, mazkur o'rinda tunda osoyishtalikka mas'ul shaxslar tungi qo'riqchilar, qorovullar, kabi shaxslarni nomlashda ma'lum kishi ismlari fondiga murojaat qilmasdan, o'zлari o'ylab topgan, aynan shu funksiyani bajaruvchi shaxsni anglatuvchi elementlardan tarkib topgan nom hosil qiladi. *Shabgir* ismi semantik jihatdan *mirshab* (tunning amiri) so'ziga ma'nodoshlik qilishi mumkin.

Xorazm dostonlari leksikasida uchraydigan affiksoidlar orasida ***zod*** // ***zoda*** elementi ham keng qo'llaniladigan elementlardan sanaladi. Umuman, Eroniy tillarga aloqador bo'lgan atoqli otlar dostonlarda katta ko'pchilikni tashkil qiladi. Ushbu affiksoid fors tiliga oid lug'atlarda ham "qo'shma so'zlarning tarkibiy qismi" , tug'ilgan, nasli, avlodi degan ma'nolarni berishi izohlanadi¹. Demak mazkur element nafaqat o'zbek tilida, balki eroniy tillarning o'zida ham so'z qismi funksiyasida iste'foda etiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida va shevalarida ham ***zod/zoda*** elementi ancha faol birlklardan sanaladi. Xorazm dostonlaridagi ko'lagan kishi ismlari tarkibida qo'llanilganini kuzatamiz. Jumladan, Go'ro'g'li turkumidagi "Avaz uylangan" dostonida uchraydi: "...*Sangsor bobo: Botirzoda, bu qayerdan bo'lasiz? Chordog'li Chandibel viloyatinnan, dedi Go'ro'g'li...*" (106-bet). Mazkur o'rindagi Botirzoda ismi situativ yuzaga kelgan nom bo'lib, doston qahramonining nomi o'rnida ishlatilgan onomastik birlik hisoblanadi. Mazkur element dostonlar leksikasidagi ko'plagan turdosh so'zlar tarkibida ham ancha faol qo'llanilganining guvohi bo'lamiz. Masalan, ***bekzoda*** ("Oshiqnoma" 3-kitob, "Layli Majnun" dostoni, 205-b), ***parizod*** ("Oshiqnoma" 2-kitob, "Oshiq Alband" dostoni, 178-b),

¹ Персидско-русский словарь. 1-том. Под редакцией Ю.А.Рубинчика. –М.: Рус.яз., 1985. –С.751.

shahzoda (“Oshiqnoma” 1-kitob, “Roi Chin” dostoni, 136-b), **odamzod**, (“Go‘ro‘g‘li” 2-kitob, “Yunus bilan Misqol” dostoni, 82-b) **sultonzoda** (“Oshiqnoma” 1-kitob, “Roi Chin” dostoni, 136-b) va boshqalar. Quyidagi parchada forsiy tillarga aloqador **zod/zoda** elementi ishtirok etgan o‘rinlar mavjud: “...Ammo vazirning bir o‘g‘li bor erdi. Oni *Shahzodai* Royi Ching‘a vazir qilib erdi. Ul ikki dilbar bir necha mug‘bachalar birlan va chandon *sultonzodalar* aning farmoninda erdi...” (“Roi Chin” dostoni, 136-b).

Ushbu affiksoidning gender ifodalash xususiyati ham mavjud bo‘lib, aslida **zod** erkak jinsiga, **zoda** esa ayollar jinsiga mansub birliklar yasashda ishtirok qilishi lozim. Biroq, bugungi va tarixiy leksikamizda mazkur birliklar gender ifodalashda universal xarakterga o‘tib qolgan. Ya’ni, har biri turli jinslarga aloqador birliklarni hosil qilishda qo‘llanilish xususiyatini olgan.

Quyidagi joy va kishi nomlari ham kelib chiqishiga ko‘ra eroniy tillarga xosdir:

- a) antroponomilar: *Anushirvon, Anvarshoh, Bahrom, Dilorom, Mardon, Parizod, Xurshidshoh, Shohsuvor* va boshqalar;
- b) toponimlar: *Afrosiyob, Astrobod, Badaxshon, Bog‘dod, Jayhun, Murg‘ob, Bolixisor, Garmiyon, Gardiston, Darband, Zakrafshon, Ispaxon, Ko‘histon, Mozandaron, Seyiston, Sabzavor, Tehron, Tobiston, Chingiston, Shahrizar* va boshqalar;

Eroniy asosli nomlarning tarkibida ayrim arxaik elementlar mavjudki, ular avestoviy unsurlar bilan bog‘lanadi. Xalq dostonlaridagi bunday birliklar turkiy va eroniy xalqlarning juda qadim zamonlardan beri bir xududda yashab, yaqin aloqalarda bo‘lishi natijasi hisoblanadi. Bunday unsurlar leksik birliklar tarkibida ham ko‘plab uchraydi.

-iston, -obod affiksoidli nomlar. Dostonlar onomastik tizimida uchraydigan yana bir faktga e’tibor qaratish lozim deb o‘ylaymiz. Odatda, affiksoid deb ataluvchi birliklarning aksariyatini kishi ismlari tarkibida bo‘lishi kuzatiladi. Ammo ayrim toponimlar tarkibidagi elementlarni ham, E.Begmatov, Sh.Rahmatullayevlarning qarashlariga suyanadigan bo‘lsak, affiksoidlar toifasiga

kiritishimiz mumkin bo‘ladi. Jumladan *-iston*, *-obod* tarkibli joy nomlarini ana shu toifaga mansub deb hisoblashimiz mumkin.

Misol qilib: *Zobiliston* (arab+fors), *Ne’matobod*, *Xayrobod* kabilarni keltirish mumkin. Maslan, “...o‘ris yurtlarigacha borib, qaytishida Urganch, Buxoro, Samarqand, Toshkentlar bilan aylanib, Balx-u Badaxshon, Xunxor shaharlaridan o‘tib, qaytib **Zobilistonga** yetibdi...” (“Go‘ro‘g‘li” 2-kitob, “Bozirgon” dostoni, 392-b). –iston affiksoidi ham kishi nomlari, ham joy nomlarida bemalol qo‘llana oladi. Yuqoridagi parchada joy nomi sifatida qo‘llansa, quyida kishi nomi bo‘lib qo‘llanilganini ko‘ramiz” “...ondin so‘ng podsho Ajdargirning qizi **Guliston parini** yetti kecha-kunduz to‘y-tomosha qilib oldi...” (“Oshiqnoma” 2-kitob, “Shahriyor” dostoni, 348-b) va boshqalar.

Mazkur holatda turli til elementlarining aralash qo‘llanishi hodisasi kuzatilmogda. Bunday nomlarni *gibrild nomlar*, *aralash asosli nomlar* deb yuritish maqsadga muvofiq. Bu tipdagи nomlarning turkiy+arabcha, turkiy+forscha, arabcha+forscha kabi shakllari mavjud. Bizning kuzatishimizcha, bunday gibrild nomlar atoqli otlarning ba’zi turlariga: toponimlar, etnonimlar, antroponomislarga xosdir.

Shunday ekan, bunday nomlar mavjudligi onomastik birliklarning juda uzoq davr ushbu xalqlar tomonidan faol qo‘llanilib kelinganligidan dalolat beradi. Arabiy asosli nomlarning miqdoriy adadi antroponomik tizimda juda yuqoridir. Ularning ko‘philigi hozirgi kunda ham faol qo‘llanilib kelinmoqda.

Shunday qilib, xalq dostonlari onomastikasining tarixiy-etimologik tahlili shularni ko‘rsatdiki, har bir xalqning ijtimoiy turmushi, madaniyati, yashash tarzi ularning tilida, xususan, onomastik qatlama aks etadi. Tilning lug‘at tarkibidagi bu qatlam ancha konservativ xarakterga ega bo‘lib, avloddan-avlodga o‘tishi, barqarorligi bilan tilning boshqa sathlaridan ajralib turadi.

Xalq dostonlari onomastikasining tahlili shuni ko‘rsatdiki, dostonlarimiz leksikasida uchraydigan eroniyl tillarga oid affiksoidlar o‘zlashma qatlam birliklari orasida o‘zining salmog‘i va qo‘llanilishi jihatidan muhim o‘rinda turadi. Ularni to‘plab o‘rganish tilshunosligimiz uchun muhim ma’lumotlar beradi.

Bob yuzasidan qisqacha xulosalar

1. Xorazm vohasida tarqalgan dostonlar tili va shu regionda mavjud lahja va shevalar leksikasi tarixiy-etimologik jihatdan o‘zaro umumiylit kasb etadi. Shu sababdan, bu hududda tarqalgan dostonlar tilida tarixiy qatlamlar shevalar tilidagi bilan yaqinligi ma’lum bo‘ladi, biroq antroponimik tizim uchun bu umumiylitda muayyan darajada o‘ziga xoslik kuzatiladi.

2. Til sathlarining barcha tarmoqlarida bo‘lgani kabi affiksoirlar tizimining tarixiy-etimologik jihatdan turkiy, arabi, forsiy tillarga oid qatlamlarga bo‘lib o‘rganish mumkin. Xorazm dostonlaridagi kishi ismlari tarkibida qo‘llaniladigan affiksoidlarning til qatlamlari bo‘yicha tekshirilganda ularning muayyan darajada o‘zaro mutanosibligi mavjudligi ma’lum bo‘ladi.

3. Dostonlarimiz leksikasidan o‘rin olgan antroponimlar tarkibidagi affiksoidlarni kelib chiqishiga ko‘ra turkiy tillarga oid, arabi tillarga oid va forsiy tillarga oid singari tarmoqlarga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq. Ko‘pchilik nomlar tarkibida qo‘llanilgan affiksoidla bugungi kun nuqtayi nazaridan arxaiklashish hodisasiga uchragan. Ammo hozirda ham faolligini yo‘qotmagan shakllar ham uchraydi.

UMUMIY XULOSALAR

Mazkur yuzasidan olib borilgan tekshirishlar, Xorazm dostonlar tilidagi atoqli otlarning gender ifodalash xususiyatlari borasida bildirilgan fikrlarimizni umumlashtirgan holda quyidagi xuloslalarni bildirishni lozim topdik:

1. Dostonlar onomastikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ma’lum bir doston leksikasida tilning boshqa sathlariga qaraganda atoqli otlar eng kam miqdorni tashkil etadi. O‘scha kam miqdorda uchraydigan atoqli otlarning eng katta foizini, albatta, kishi ismlari, ya’ni antroponimlar tashkil etadi. Bunga o‘xhash xuloslalarni dostonlar onomastikasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan ko‘plab tadqiqotchilar ham bildirib o‘tishgan.

2. Xorazm dostonlari tilida uchraydigan kishi ismlarining katta qismi birdan ortiq komponentlardan tashkil topgan nomlar hisoblanadi. Hatto ayrim

nomlar murakkab tarkibga, ya’ni ikkidan ortiq qismlardan tuzilgan shaklga ega Bunday shaklga ega nomlar qo’shma yoki murakkab tarkibli nomlar bo‘lib, ular tarkibidagi muayyan qism (odatda, ikkinchi va undan keyingi qismlar) ko‘p hollarda o‘z atash ma’nosini yo‘qotgan holda qo‘llaniladi, ya’ni nomga qo‘sishimcha ma’no qirralarini qo‘sish uchun xizmat qiladi va bunday elementlar tilshunosligimizdagi affiksoid atamasi bilan izohlangani maqsadga muvofiq.

3. Dostonlar tilida qo‘llaniulgan kishi nomlarini hosil qilishda ishtirok etadigan yordamchi komponentlar ilmiy manbalarda har xil izohlanishini kuzatamiz. Ayrim ilmiy manbalarda biz affiksoid sifatida qarayotgan birliklar *antropoformant*, *aniqlagichr* deya izohlangan. Bizningcha, antroponim tarkibidagi har qanday elementni ham aniqlagich (antroponimik indikator) deb hisoblab bo‘lmaydi. Qachonki, bir xil nomdagi bir nechta shaxslarni bir-biridan farqlab, aynan u emas, bu shaxs ekanligini ajratib, aniqlab turgan birliklarnigina antroponimik indikator deb hisoblash to‘g‘ri bo‘ladi. Boshqa hollarda esa nomlar tarkibidagi yordamchi elementlarni affiksoidlar deb hisoblagan ma’qul deb hisoblaymiz.

4. Xorazm dostonlari onomastik birliklari, xususan, undagi kishi nomlari hamda hozirgi o‘zbek onomastikasining antroponimikasini tekshirish shuni ko‘rsatadiki, kishi nomlari fondi davrga mos ravishda eskirish, arxaiklashish xususiyatga ega. Biroq, mazkur nomlar tarkibidagi affiksoidlar bunday xususiyatdan ancha uzoq. Ya’ni, qanchalik qadimiy bo‘lmasin, o‘sha affiksoid eng zamonaviy nomlar tarkibida qo‘llanishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ayrim affiksoidlarning yashovchanligi ancha kuchli. Misollarda keltirilgan “jon”, “bek”, “xon” affiksoidlari ana shu xarakterdagi shakllardan hisoblanadi.

5. Kishi nomlari tarkibida uchraydigan affiksoid birliklarning doimiyligi ularda eskirish xarakterining mayjud emasligini anglatmaydi. Ba’zi affiksoidlarning arxaiklashganini, bugungi nomlar tarkibida qo‘llanila olmasligini quyidagi antroponimlarning tahlilida ko‘rish mumkin. Jumladan, *Anjumpari*, *Arabtang‘an*, *Bolukaniz*, *Valido‘nik* kabi nomlar tarkibidagi ikkinchi komponent; *Badrustam*, *Bibi Tarli*, *Bibiniyoz* kabi nomlar tarkibidagi birinchi komponentlar

ma'lum darajada eskirganligi, bugungi zamonaviy antroponimlar tarkibida qo'llanishi sustlashganligini e'tirof etib o'tish joyiz deb hisoblaymiz.

6. Nomlar tarkibida qo'llaniladigan affiksoidlarda uchta guruhga ajralish holati antroponimlar tizimidan farqlanadi. Ya'ni, affiksoidlar kishi ismlari tarkibida erkak kishilar ismlariga xos, ayollar ismlariga xos va gender jihatdan universal bo'lgan affiksoidlar kabi turlarga ajraladi. Nomlar fondida bu holat sezilarli darajaga ko'tarila olmagan. Bugungi zamonaviy antroponimik tizimda ba'zi nomlarning gender jihatdan universallik ifodalash holatlari mavjud. Masalan, *Xursand*, *Karomat*, *Sevinch* va boshqalarda gender universallikni ko'rishimiz mumkin ammo bu antroponimik tizimda alohida bir guruh deb baholash darajasiga yetib kelmagan.

7. Har qanday antroponimik tizimda, nomlar gender ifodalash jihatiga ko'ra ikki toifaga ajratiladi. Ya'ni, u zamonaviy antroponimlar tizimi bo'lsin yoki tarixiy antroponimlar bo'lsin, yoki bo'lmasa, dostonlar antroponimikasi bo'lsin erkaklar nomlari va xotin qizlar nomlarini ifodalashiga ko'ra ikkiga bo'linadi. Xuddi shu jarayonni antroponimlar tizimidagi affiksoidlar tizimiga ham tatbiq qilish mumkin. Shunday elementlar borki, ularni yo grammatik (morfologik), yo sintaktik usul deb hisoblab bo'lmaydi. Masalan, *Tohir* // *Tohira*, *Javohir* // *Javohira*, *Ziyod* // *Ziyoda* kabi nomlarning jins ifodalashi bitta tovush vositasida amalga oshgan va bu tovushni grammatik-morfologik yoki sintaktik element sifatida baholab bo'lmaydi. Bunday holatlarni fonetik usulda gender ifodalash deya baholash to'g'ri deb hisoblaymiz.

8. Xorazm dostonlari leksikasida uchraydigan nomlar tarkibidagi affiksoidlarning o'zida ham gender ifodalash xususiyati yaqqol sezilib turadi. Shu boisdan bunday birliklarni ham erkaklar nomlarini hosil qilishda qatnashadigan va ayollar nomlarini hosil qilishga xizmat qiluvchi turlarga ajratish mumkin. Lekin bunday birliklarda shunday xususiyat ham borki, ularning ayrimlari *gender universallik* holatiga to'g'ri keladi. Bu zamonaviy o'zbek antropinimiyasida ham mavjud holatga mos keladi.

9. Xorazm vohasida tarqalgan dostonlar tili va shu regionda mavjud lahja va shevalar leksikasi o‘zaro tarixiy-etimologik jihatdan o‘zaro umumiylit kasb etadi. Shu sababdan, bu hududda tarqalgan dostonlar tilida tarixiy qatlamlar shevalar tilidagi bilan yaqinligi ma’lum bo‘ladi, biroq antroponimik tizim uchun bu umumiylitda muayyan darajada o‘ziga xoslik kuzatiladi.

10. Til sathlarining barcha tarmoqlarida bo‘lgani kabi affiksoidlar tizimining tarixiy-etimologik jihatdan turkiy, arabiyl, forsiy tillarga oid qatlamlarga bo‘lib o‘rganish mumkin. Xorazm dostonlaridagi kishi ismlari tarkibida qo‘llaniladigan affiksoidlarning til qatlamlari bo‘yicha tekshirilganda ularning muayyan darajada o‘zaro mutanosibligi mavjudligi ma’lum bo‘ladi.

11. Dostonlarimiz leksikasidan o‘rin olgan antroponimlar tarkibidagi affiksoidlarni kelib chiqishiga ko‘ra turkiy tillarga oid, arabiyl tillarga oid va forsiy tillarga oid singari tarmoqlarga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq. Ko‘pchilik nomlar tarkibida qo‘llanilgan affiksoidlar bugungi kun nuqtayi nazaridan arxaiklashish hodisasiga uchragan. Ammo hozirda ham faolligini yo‘qotmagan shakllar ham uchraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil, 22 oktyabrdagi PQ 7448-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni

II. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

1. Abdurahmonov D., Bektemirov H. O‘zbek xalq dostonlari onomastikasi // O‘zbek xalq ijodi. To‘plam. –Toshkent: Fan, 1967.
2. Begmatov E. Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. Namangan, 2006.
3. Begmatov E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. –Toshkent: Fan, 2013. –B. 199.
4. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –Toshkent: Fan, 1985.
5. Begmatov E. O‘zbekiston viloyatlari toponimlari. – Toshkent: O‘zME davlat nashriyoti, 2005. – 240 b.
6. Do‘simov Z. Xorazm toponimlari. – Toshkent: Fan, 1985. –104 b.
7. Do‘simov Z. Toponimik indikatorlar //O‘TA. №5. – Toshkent, 1972.
8. Ernazarov T., Husanova M., Esemuratov A. O‘zbek nomshunosligi. – Toshkent: Navro‘z, 2015.
9. Fitrat. Nahv. –Samarqand. 1930.
10. Фрейман А.А. Хорезмийский язык. –M-L, 1951.
11. Go‘ro‘g‘li. Aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf ogli. Nashrga tayyorlovchilar: To‘ra Mirzo va Zubayda Husainova. –Toshkent: Sharq, 2006. –B. 56.
12. Go‘ro‘g‘li. Mas’ul muharrir S.R.Ro‘zimboev. –Urganch: Xorazm nashriyoti, 2004.
13. Oshiqnoma. 1-kitob. Mas’ul muharrir S.Ro‘zimboyev. –Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006.328 b.

14. Oshiqnoma. 2-kitob. Mas’ul muharrir S.Ro‘zimboyev. –Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006. 456 b.
15. Oshiqnoma. 3-kitob. Mas’ul muharrir S.Ro‘zimboyev. –Urganch: Xorazm nashriyoti, 2008. 340 b.
16. Ошиқнома. 4-китоб. Нашрга тайёрловчилар: С.Р.Рўзимбоев., Х.С.Рўзимбоев., Н.Матёзова., Н.Раймова. –Урганч: Хоразм нашириёти, 2009.
17. Hojiyev A. “O‘zbek tilida so‘z yasalishi” 1987-y.
18. Ishayev A. Dostonlar tilining ba’zi xususiyatlari.//Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o‘rni.
19. Ishayev A. Xalq dostonlari leksikasidan // –T,: Fan, 1971.
20. Ishayev A. Shohsanamning vatani qayer? Fan va turmush. –T,: 1971, №11. – B. 26-27.
21. Kamoliddin Sh.S. Drevnetyurkskaya toponimiya Sredney Azii. – Tashkent: Sharq, 2006.
22. Kononov A. N. “Grammatika sovremennoogo uzbekskogo literaturnogo языка”. –M.;L.: Izd-vo AN, 1960.
23. Mahmudov N. O‘zbekning o‘lmas so‘zi // Til. –Toshkent. 1998.
24. Mahmudov N va boshqalar. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. –Toshkent: 2005.
25. Muhammadjonov A. “Turon” geonimi haqida // O‘zbek tili va adabiyoti, 2007. №2.
26. Muhammadjonov A. Samarqandning tarixiy toponimlari // O‘zbek tili va adabiyoti, 2007. № 4. 37-42-betlar.
27. Магазинник Е.В. Ономапоэтика или «говорящие имена» в литературе. – Ташкент: Фан, 1978.
28. Ne’matov H va boshqalar. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. –Toshkent: 2004.
29. Nosirov O‘. O‘zbek tilidagi kishi nomlari haqida ba’zi mulohazalar // Ilmiy asarlar, Qarshi-Toshkent, 1965.
30. Olloyorov Q. Xorazm dostonlari onomastikasi. –Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2017. 120 b.

31. Olloyorov Q.M. Xorazm dostonlaridagi gender xususiyatli universal nomlar va affiksoidlar//Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. –Xiva, 2019.
32. Po'latov Yu. Badiiy asarda nomlar tarjimasi. – Toshkent: Fan, 1967.
33. Qurbonova M. Fitrat tilshunos. –Toshkent: Universitet, 1996.
34. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent. Universitet, 2006.
35. Snesarev G.P. Xorazmliklarning musulmonchilikdan avvalgi marosimlari va urf odatlari. Tarjimon: S.Ro'zimboev. UrDU noshirlilik bo'limi, 2018.
36. Usmonov S. "O'zbek tilining lug'at sostavida tojikcha-forscha va arabcha so'zlar". – Navoiyga armug'on. –Toshkent, 1968.
37. Zaripov X. O'zbek xalq ijodi. Ko'p tomligiga kiradigan asarlarni tayyorlash prinsiplari. Islom shoir ijodi va uning xalq poeziyasida tutgan o'rni. –T,: 1978.
38. O'zbek tilining izohli lugati. K harfi. A.Madvaliyev tahriri ostida. –Toshkent: O'zME nashriyoti, www.ziyouz.com.
39. O'zbek tilining izohli lug'ati. Sh harfi. A.Madvaliyev tahriri ostida. www.ziyouz.com kutubxonasi.
40. Xusanov N.A. XV asr o'zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari. DDA. – Toshkent: 2000.
41. Shamsiev M. Kishilarga atab qo'yilgan nomlar // Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari, 4-kitob. –Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1962.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB. Xorazm dostonlarida atoqli otlarning tarkibiy jihatlari.....	12
1.1. Xorazm dostonlaridagi nomlarning yuzaga kelishida affiksoidlarning o‘rni...16	
1.2. Qo‘shma tarkibli nomlar tarkibida affiksoidlarning qo‘llanishi xususida.....	20
1.3. Xorazm dostonlaridagi ayrim affiksoidli antroponimlar haqida.....	23
Bob yuzasidan qisqacha xulosalar.....	29
II BOB. Atoqli otlar tarkibidagi affiksoidlarda gender jihatlarning namoyon bo‘lishi.....	30
2.1. Erkak kishi nomlari tarkibidagi affiksoidlar.....	35
2.2. Xotin-qizlar nomlari tarkibidagi affiksoidlar.....	42
2.3. Universal xususiyatga ega bo‘lgan affiksoidlar.....	47
Bob yuzasidan qisqacha xulosalar.....	53
III BOB. Affiksoidlarning tarixiy-etimologik tavsifi.....	54
3.1. O‘z qatlamga oid affiksoidlar;.....	57
3.2. O‘zlashgan qatlamga oid affiksoidlar.....	65
3.2.1. Arabiy qatlamga oid birliklar	68
3.2.2. Forsiy qatlamga oid birliklar	73
Bob yuzasidan qisqacha xulosalar.....	80
Umumiy xulosalar.....	80
Foydalanilgan adabiyotlar.....	84

UDC: 398.8

LBC: 82.3 (0)

ISBN: 978-1387-5777-1-2

“Lulu Press”, The United States of America. 2022.

Olloyorov Quvondiq Madiyorovich

1969-yil 9-fevralda Xorazm viloyatining Qo'shko'pir tumanidagi Oqdarband qishlog'iда ziyoli oilasida tug'ilgan. 1986-yilda tumandagi 27-son o'rta mакtabni a'lo baholarga bitkazib, 1987-1989 yillarda (GSVG) armiya saflarida xizmat qilgan. 1989-90 o'quv yiliда Fayzulla Xo'jayev nomidagi Buxoro davlat pedagogika instituti qoshidagi tayyorlov bo'limini tugatib, shu yili Xorazm davlat pedagogika institutining O'zbek filologiyasi fakultetiga o'qishga qabul qilingan.

1995-yilda Qo'qon shahrida Oliy o'quv yurtlarining iqtidorli talabalari o'ttasida o'tkazilgan olimpiadada faxrli 1-o'rinni egallagan. 1995-yilda Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universitetini imtiyozli diplom bilan tamomlab, UrDUning Umumiy tilshunoslik kafedrasiga ishga qabul qilingan.

2018-yilda prof.Z.Do'simov rahbarligida "Xorazm dostonlari onomastikasi" deb nomlangan dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilgan. O'tgan davr mobaynida chet el, markaziy va mahalliy matbuotda qiridan ortiq ilmiy nashrlarga mualliflik qilgan. Munis Xorazmiyning "Savodi ta'lim" risolasining arab yozuvidagi nusxasi (1996), "Xorazm dostonlari onomastikasi" deb nomlangan monografiya (2017), "Xorazm dostonlaridagi atoqli otlar lug'ati" (2017), THE USE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING PROPER NOUNS (study-methodological manual) (2020) va "Areal lingvistika fanini o'qitish asoslari" (2020) kabi uslubiy qo'llanmalar muallifi.

